

1.Ba' zilar jamoat transportini afzal deb bilsa, boshqalar shaxsiy avtomobillarda harakatlanishni ma' qul ko' rishadi.

Hayotimizni jadal sur'atlarda yengillashishiga sababchi bo'lgan transport vositalari har qaysi zamonda ham insonlarga suv va havodek zarur bo'lgan. Hozirgi kunga kelib, ishli hisoblangan barcha shaxslar o'z ish joylariga qay tarzda borishi haqida biror marta bo'lsa ham o'ylab ko'rganliklari aniq. Ko'pchilik bu borada jamoat transportlarini ma'qul deb topishsa, qolganlar esa shaxsiy avtomobillarni afzal deb bilmogdalar. Xo'sh, biz uchun ularning qaysi biri foydaliroq?

Ishga yoki o'qishga shoshayotgan inson uchun tayyor va qulay yordamchi bo'lgan shaxsiy avtomobillardan yaxshirogi yo'qdek. Negaki ushbu turdagi avtomashinalar o'zining tezkorligi hamda qulayligi bilan jamiyatda o'z o'rnini topgan. Yengil mashinalarda harakatlanish yo'lovchiga manziliga istalgan yo'nalishdan vaqtidan oldinroq yetib boorish imkonini beradi.Shuningdek, yo' llarda to' xtab dam olish, ovqatlanish shaxobchalarida tamaddi qilib olib, yana yo' lida davom etish mumkin. Qachon to' xtash va tezlik nazorati haydovchining izmida bo' lishi ko' pchilikka ma' qul bo' ladi

Bu kabi muammolarni bartaraf etishning samarali usullaridan biri bu – jamoat avtotransportlaridan foydalanishdir. Avtobus, trolleybus, metrolar ham ishxonamizga ancha xavfsiz yetib olishimizni ta'minlay oladi. Qolaversa, o'zining hamyonbop narxi tufayli ham jamiyatda ko'plab talabgorlariga ega. Afsuski, har to'kisda bir ayb deganlaridek, jamoat transportilari ham bir qancha noqulayliklardan holi emas. Masalan, yengil avtomashinalarda bo'lganidek ushbu transport vositalarida qulay muhit yo'q: tiqilinch, har xil odamlar orasida o'zimizni anchayin noqulay his qilishimiz mumkin. Bundan tashqari, besh qo'l barobar emas: olomon orasida har xil jinoyatlar (o'g'rilik, to's-to'polonlar) ham sodir bo'lmasligiga hech kim kafolat berolmaydi.

Subyektiv fikrlaydigan bo'lsak, men yo'lda harakatlanayotganda jamoat transportlarini ma'qul ko'raman. Chunki o'zim odatda o'qishga bormoqchi bo'lsam,ushbu transport vositalaridan foydalanaman. Ular

anchayin ishonchli, xavfsiz va doim yo'lovchilarga aniq vaqtda xizmat ko'rsatishadi.

Xulosa o'rnida esa shuni aytmoqchimanki, avtobus va metroda harakatlanish nafaqat atrof-muhit uchun, balki hayotimiz xavfsizligi uvhun ham juda muhim. Agar ko'pchilik jamoat transportidan foydalansa, yo' llardagi tirbandliklar va baxtsiz hodisalarning oldi olingan bo' lardi.

2.Ba' zilar televizorda namoyish qilinayotgan ko' chilochar dasturlar ko' payishi tarafdori bo' lsa,boshqalar bunga qarshi fikr bildirishadi.

Zamon va muhit bilan hamnafas bo'lgan shaxslar oyinayi jahon orqali ko'rsatib kelinadigan turli xil ko'ngilga xush yoqadigan dasturlar va shoularni ortib borishi ijobiy deb hisoblab kelishyapti.Xo'sh,aslini olganda-chi,bunday dasturlarning ko'payishi bizga qanday ta' sir ko' rsatadi?

Bir so'z bilan aytganda,tirik jon doimiy harakatda bo'ladi.Charchoq va o'zidagi yomon holatlarni bartaraf etish uchun ko'ngilga xush yoqadigan shoular kishini o'ziga jalb qilmay qo'ymaydi."Omad"shou yoki"Imkon"shoularni olsak,ular insonga kreativlikni berib qolmasdan,kishilar o'rtasida turli raqobatlarini va imkoniyatlarni beradi.Yana shunday afzalliklari borki, do'stlar bilan,farzandlar,shuningdek,hamkasblar o'rtasida ko'rishimiz kishiga boshqacha zavq beradi hamda hammamizga ma'lum bo'lgan"Zirapcha","AmirxonShou"ko'rsatuvlari biz bilishimiz kerak bo'lgan informatsiyalarni berib o'tadi.Psixologlarning ko'rsatmalari,shouda chiqqan hamyurtlarimizga maslahat berilishi biz o'sha xatoni qilmasligimizga turtki bo'ladi.

"Har narsaning bir aybi bor",-deganlaridek,ayrim ko'ngilochar dasturlar o'zining axloqiy jihatlari sabablari efirga uzatilmagai ma' qul.Misol uchun,"Yor-yor"ko'rsatuvini shu ro' yxatgaga kiritamiz.Bu ko'rsatuvni biz,ayniqsa,rivojlanib keladigan yosh avlodning, mentalitetiga ta'sir etmay qo'ymaydi.U yerda namoyish qilinayotgan turli insonlarning turmush tarzi aholi orasida noroziliklarga va kulgili hatolarning yuzaga kelishiga sabab bo' ladi. Yoshlar ma' naviyatiga bunday saviyasiz ko' rsatuvlar yomon ta' sirini o' tkazish bilan birga hayot haqidagi tasavvurlarini jo' nlashtiradi.

Mening fikrimcha, televizorda efirga uzatilayotgan insonga faqat kayfiyat ulashuvchi dasturlar sonining ortmagani yaxshi.Negaki ular yengil-yelpi hayot tarziga insonni moslashtiradi. Natijada yoshlar orasida oila avval turmushga jiddiy qaramaslik holatlariga guvoh bo' lishimiz mumkin. Ularning o' rniga hujjatli filmlar, tarixiy va milliy an' analarimizga oid kinolarni oila davrasida ko' rish afzalroq.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam,har bir shaxs tanlov huquqiga ega.Lekin,dasturlar hamda shou bo'yicha keladigan bo'lsak, ibratliroq ko'rsatuvlarni tomosha qilishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Ba'zi insonlar xalqlar o'rtasidagi biznes va madaniy aloqalarni kuchaytirish ijobiy deb o'ylashadi,boshqalar esa bu milliy o'zlikning yo'qolishiga olib keladi,deya ta'kidlashadi.

Jadal sur'at bilan rivojlangan bir paytda zamon va muhit bilan hamnafas bo'lib yashaydiganlar qardosh bo'lgan o'lkalar bilan diplomatik aloqalar hamda biznes rejalarni rivojlantirishning qator afzalligi borligini aytayotgan bir paytda,boshqa toifa vakillari esa milliyligimizni yo'qotishimizga yo'l ochib beradi deya ta'kidlashadi.Xo'sh,aslini olganda-chi,o'zligimizni yo'qotamiz deb davlatimizga investitsiya kiritmasligimiz qanchalik to'g'ri yo'l bo'ladi?.

Darhaqiqat, mustaqil bo'lganimizdan so'ng o'zimizning madhiyamiz, gerbimiz, hayotimiz qomusi-konstitutsiyamizga egamiz. O'z mahsulotlarimizni eksport va import qilib Yangi O'zbekistonni rivojlantiryapmiz. Quvonarlisi shundaki, hozirda boshqa rivojlangan davlatlar bilan madaniy aloqalarni kuchaytiryapmiz. Avallo, bu diplomatik aloqalar hamda bizneslar bizga naf keltirmaydi deysizmi? Birinchi navbatda, yangiliklar bilan hamnafas bo'lib, o'zga mamlakatlarning ixtirolari, investitsiyasi, mehnat bozorida qaysi turdagi mahsulot raqobatdosh ekanligini bilamiz va shunga muvofiq o'z tovarlarimizni qayta ishlab chiqaramiz. Qolaversa, hududiy chegaralar ham mustahkamlanadi. Doim urush bo'ladigan davlatlarga bir bo'qing, ularda rivojlanish yo'q, boshqa xalqlar bilan aloqasi yaxshi emas, beva-bechoralar hamda yosh bolalar yo'llarda nobud bo'lyapti. Ilg'or xorijiy tajriba, jahon fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar, texnologiyalar asosida iqtisodning barcha tarmoqlari va ijtimoiy sohalar jadal rivojlanyapti. Uchinchidan, yosh kadr ekanligimni hisobga olganim holda, madaniy aloqalarning yaxshilanishi bizga ko'proq foyda keltiradi. Misol uchun, chetda o'qib, shaxsiy rivojlana olamiz. Ma'lum qardosh xalqning tili, madaniyatini o'zimizga olib kelishimiz mumkin bo'ladi. Kuni kecha Belarus Prezidenti rasmiy tashrif bo'yicha O'zbekistonga keldi. Bu tashrif o'z oldiga biznes hamda diplomatik aloqalarni yaxshilash, tashqi va ichki masalalarga yordam berish hamda yosh o'zbekistonliklarning 30 foizi grant asosida o'qishi kelishildi va rasmiy ish qog'ozlarga imzo qo'yildi.

Tanganing ham ikkinchi tomoni bor ekanligini bilishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshqa madaniyat, til-u-din, o'zgacha fikrlarning kirib kelishi milliyligimizni yo'qolishiga sabab bo'lmaydi deysizmi? Birinchidan, hozirda kiyinishimiz G'arb davlatlariga taqlid qilishimiz orqali milliyligimiz yo'qolyapti, albatta, bu o'zga xalqlar bilan aloqa qilishimiz tufayli. Poytaxtimiz - Toshkentda yoki boshqa shaharlarda "Hikikomori" o'zbek yigit va qizlarini uchratishimiz tabiiy holga aylandi (ular orasida men va siz ham bor). Ikkinchidan, o'zbek tilining imloviy holati buzildi. O'zbek tili bilan birgalikda rus, ingliz, nemis, ispan tillaridan keng miqiyosda qo'shib gapiryapmiz (Ok, xorosho, gud). Bu esa keyinchalik "o'lik til"lar orasidan joy olishimizdan darak beradi. Ovqat masalasiga kelsak, hot dog va shunga o'xshash tez tayyor bo'ladigan

ovqatlarning ommalashuvi kuzatiladi. Italiyaning Florensiya shtatida bir guruh shaxslardan so'rovnoma o'tqazishganda ularning 60 foizi kamroq xorijiy davlatlar bilan madaniy aloqalarni kuchaytirishni xohlashganlarini "New York time" jurnalistlari qayd etib o'tishgan.

Yuqoridagi fikr va dalillarga asoslangan holda men qo'shni hamda chet davlatlar bilan biznes rejalarni kuchaytirish tarafdoriman. Zotan, Prezidentimiz: "Ma'lum davlatda diplomatik aloqalar bo'lmas ekan, o'sha o'lkada rivojlanish bo'lmaydi, moliyaviy barqarorlikka erishilmaydi", - deb aytganlarining o'zi bizga yetarli bo'ladi deb hisoblayman.

Xulosa qiladigan bo'lsam, xalqaro aloqalarning o'sishi nafaqat iqtisodiyotga, balki madaniyatimizga ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Mamlakat "yopiq eshiklar" siyosatini tutmasdan butun jahon davrlariga ochiq bo'lsagina, yuksaladi va ravnaq topadi.

4. Ba'zi insonlar televizor va film tomosha qilish bolalarning ijodkorligini oshiradi deb o'ylashsa, ba'zi insonlar, aksincha, bu holat bolalar ijodkorligini pasaytirishi haqidagi fikrni yoqlaydilar. Siz bu ikki holatni muhokama qiling va fikrlaringizni bildiring.

Bir guruh shaxslar o'ynay jahon orqali efirga uzatilib kelinadigan filmlar o'spirinlarning ijodkorlik salohiyatini oshirishadi deb o'ylayotgan bir paytda boshqa toifadagilar bu jarayon yomon oqibatlarga olib kelishi yuzasidan turli qarashga ega. Men ushbu esseda o'rtada tashlangan vaziyat yuzasidan xulosa chiqarishga urinaman.

21-asr texnika va texnologiyalar asri ekanligi hech kimga sir emas. Hozirda televizorlarni har bir uyda uchratishimiz mumkin. Vaholanki, bu har bir bola televizor ko'ra oladi degani. Bola bog'chadan qaytganda yoki maktab, do'stlar davrasidan keyingi vaqtda televizorni ko'rishni xush ko'radi. Birinchidan, "Aqlvoy", "Bolajon" kabi teleko'rsatuvlarning efirga chiqarilishdan ko'zlangan maqsad bolaning

ijodkorligini oshirish, dunyoqarashini kengaytirishni inobatga olishadi. Misol uchun, ingliz va rus tillarida bimalol gaplasha oladigan, sher, turli xil o'yinlarni yoki musiqiy shoularda o'zini ko'rsatib chiqadigan o'zi bilan teng bo'lgan bolaning namoyishini ko'rib, "Men ham shunaqa qilaman", "Men ham ingliz tilini o'rganib, sher aytib beraman", -deydigan darajaga yetadi. Qolaversa, tarixiy kinolarni ko'rish yoki vatan sadoqati, vatani asrash mavzusidagi musiqalarni tinglashi orqali vataniga muhabbatni, o'z qorachig'idek asrash kerak ekanligini bola anglab yetadi. Psixologlarning "Bolaning ijodkorlik salohiyatini oshirishga nimalar yordam beradi" degan anjumanida qator sabablarni keltirib, televizor ko'rish ham anchagina rivojlantiradi degan tushuncha ilgari surilgan. Ibratomuz, bolaning yoshiga mos bo'lgan film va shunga o'xshash ko'rsatuvlarni ko'rish kerakligini yosh onalarga tavsiya berishgan.

"Har yaxshining yomoni bor", -deganlaridek, ayni balog'atga yetadigan bolaga televizor ko'rish qator salbiy oqibatlarni ham olib kelmay qolmaydi. Birinchidan, kosmopolis dunyoqarash miyyasiga shakllanib, atrofidagi hamma narsani: fiona, nabobat yoxud insonlarni xayolida o'ylab turli xil odatlarni chiqarishadi. Ikkinchidan, ma'nan va jismonan zo'riqish oladi. Masalan, hozirda turk hamda hind filmlari ommaga boshqacha qiziqish uyg'otdi. Oila televizor ko'rayotgan paytda bolalar ham, hech shubhasiz, ko'rishadi. U filmlarning sayoz syujeti, bema'no so'zlarini, axloqiy jihatdan bolaga ta'sir qilmay qo'ymaydi, albatta. Qolaversa, aqliy qobiliyati hamda ko'z funksiyasiga ham ta'siri bo'lakcha. Teledasturlarni tomosha qilishga mukkasidan ketish kognitiv funksiyalarning yomonlashishi hamda kulrang moddalar hajmining kamayishiga olib keladi. Bularning barchasi demensiya (aqliy zaiflik) rivojlanish xavfini oshiradi.", -deydi Hi-Tech.Mail.ru a'zolari.

Meningcha, televizor ko'rishni bola uchun kamaytirish kerak deb bilaman. Albatta, rejalashtirilgan, ma'lum bir vaqt oralig'ida ko'rgan maqsadga muvofiqroq. Intellektual passivlikni stol va kompyuter o'yinlari yoki kitob mutolaasi bilan almashtirish nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Xulosam shuki, farzand tarbiyasi, farzandning o'qishi bo'yicha har bir qilinadigan ish juda muhim. Ular - kelajak avlodimiz, vatanimiz

poydevori. Televizor yoxud boshqa texnikalardan foydalanishiga e'tibor berishimiz lozim.

5. Mavzu: Bugungi kunda ba'zi insonlar davlat byudjetidagi mablag'lar sportga ko'proq sarflanishi kerakligini aytmoqda, ayrimlar esa ta'limga pul ajratish manfaatliroq deb hisoblashmoqda.

Yer yuzidagi barcha shaxslarning ma'lum mavzuda o'z qarashlari mavjud. Shuningdek, davlat byudjetidagi mablag'lar haqida gap ketganda sport sohasi yoxud ta'lim yo'nalishi bo'yicha turli fikrlar yetarlicha. Xo'sh, aslini olganda-chi, qaysi bir sohaga hukumat pul ajratsa manfaatliroq bo'ladi.

Bir tomondan olib qaraganda, sportga mablag' ajratish ancha asosli deb bilaman. Eng asosiy sabablaridan biri shuki, dunyo reytingi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichni egallashimiz mumkin. Misol qilganda boks sport turini olsak, Bahodir Jalilov, Hasanboy Do'stmatov kabi oltin kamar sohiblariga ajratilgan mablag'lar tufayli yosh O'zbekiston yuqori o'rinlarni zabt etyapti. Bundan tashqari tanilish mumkin. Birgina futbol sohasini oladigan bo'lsak, 256 davlatning to'rtidan biri bizni biladi. Bu esa o'z navbatida yurtimizda moliyaviy mablag' yoiniki ma'lum resurslarni olib keladi degani. Misol qilganda, kuni kecha sodir bo'lgan futbol musobaqasida O'zbekiston 2:1 hisobida Tailandni mag'lub etganligi va Osiyo kubogining chorak finaliga yo'l olganligi fikrimizni asoslaydi.

Boshqa tomondan olib qaraganda, najot ta'limda deb hisoblayman. Hozirgi paytni oladigan bo'lsak, g'arb hamda sharq davlatlari agressiv holatda bu degani dron, turli harbiy qurollar, bomba va boshqa plemiyotlar zarur bo'lishi tabiiy holat. Bu qurollarni yasash uchun ma'lum bilimga ega bo'lish lozim. Shu bilan birga, yosh kadrlarga mablag' ajratish ortidan chetga chiqib yurtimizga yangi madaniyat olib kelishi mumkin. Bu esa diplomatik aloqalarni yaxshilashga yordam beradi. Meditsina sohasiga yuzlanadigan bo'lsam, davosiz kasalliklar (oshqozon raki, OITS), o'ta og'ir kasalliklar (insult, infark) kabilarga yuqoridagi mutasaddilar ma'lum miqdorda mablag' ajratmas ekan jamiyat abgor holga keladi. Shuning uchun ham barcha najot

ta'limda,davlatni botqoqlikdan olib chiqadigan kelajak avlodga biror pul ajratmasa juda yomon oqibatlarga olib keladi(madaniy sayozlik,dunyoqarashning sustligi,turli xildagi jinoyatlar).

Mening fikrim,hukumat ta'limga mablag' ajratishi nafaqat davlatga,balki yosh avlodga ham ancha yaxshi.Prezidentimiz aytganidek:"Agar yoshlarga ta'lim bermasak,ilm olishi uchun imkoniyat yaratmasak,qamoqxonalar butun o'lkani egallaydi".

Xulosam shuki,davlat birinchi o'rinda ta'limga ana undan so'ng sport yoiniki boshqa sohalarga ma'lum mablag' ajratishi nur ustiga a'lo nur bo'ladi deb bilaman.

6. 21-asrning eng katta ixtirosi bo'lmish sun'iy aql haqida gap ketganda ikki xil qarama-qarshi fikr mavjud.Ayrim shaxslar fikriga ko'ra,u rivojlansa qator kasblarning o'rnini kamayadi.Lekin ba'zilar bu illuziyaning noto'g'ri ekanligini aytib o'tishyapti.Xo'sh,aslini olganda-chi,sun'iy intellektning hayotimizga kirib kelishi qanchalik to'g'ri?.

Globalashuv davrda yashar ekanmiz har sohada rivojlanishni ko'rayotganimiz tabiiy holatga aylanib qoldi.Bu rivojlanishlardan biri,bashariyatning eng katta ixtirosi atalmish sun'iy intellekt hisoblanadi.Bu takomillashgan aql ayrim kasblarni ham o'rnini egallash pog'onasiga turibdi.Misol qilganda,advakatura sohasini olsak,u yerda bir-biriga yon bosish,o'z tomoniga og'dirib olish kabi holatlar kuzatilmaydi ,shuningdek,har ishni sobit qila oladi.Qolaversa,u charchash nimaligini ya'ni erta-yu kech ishlash qobiliyatiga ega bo'ladi.Yana egallay oladigan kasblaridan biri,shifokorlik kasbidir.His-tuyg'udan yiroqda,operatsiya paytida o'zini yomon his qilmaslik kabi sabablari tufayli ham keltirgan ikki kasbim yo'qolish arafasida turibdi.Hozirgi statistikaga ko'ra,Yaponiyadagi ayrim korxonalarda hamda ta'lim sohasida 67% robotlar ishlaydi.Ular oylik maosh so'ramaydi,kechami kunduz odamlarga beminnat yordam berib keladi..Bu butun dunyoda ishsizlik avj olgan pallada yana oliytoifadagi shaxslar ham ishsiz qolishi kuzatiladi degani

Boshqa tomondan olib qarasak, shunday kasblar borki, uni robotlar yoxud boshqa toifadagi shaxslar ham o'rnini egallay olmaydi. Bulardan biri, psixologlar hisoblanadi. Ularda his-tuyg'u, biror mavzuda o'zining hayotiy tajribasi, shuningdek, bilim ko'nikmasi mavjud va qabuliga kelgan shaxslarga yordam bera oladi. Balki, shuning uchun qush tilini qush, odam tilini odam tushunadi deyishsa kerak. Yana shunaqa kasblardan o'qituvchilikni olsak, xushmuomalik, bolalarni o'ziga qarata olish, shu bilan birga, dars davomida turli xil o'yinlar orqali o'tishi mumkin.

Mening shaxsiy fikrimga to'xtaladigan bo'lsam, robotlardan faqat insoning jismonan qila olmaydigan kasblarga (kon bo'yicha, tog'ni parmalash) mexanizatsiya qilinishi nur ustiga a'lo nur bo'la oladi deb bilaman. Bir narsani yodda tutishimiz kerak, balki u bizga nimadir berar, lekin oxirida hamma narsamizni tortib olishi mumkin. Xuddi fizik - nazariyotchi Stiven Hoking aytganidek, aqlli robotlar foyda keltirayotgani rost, ammo ertaga ular o'zini o'zi takomillashtirishga tushsa, unda odamzod hech nima qilomaydi, ularning evolyutsion tezligi bilan musobaqada yengilamiz, deya ogohlantirgan edi.

Xulosam shuki, har narsa yoxud ish rivoj topib, yuksalgani yaxshi, lekin odamzod o'zi yasagan har narsa o'ziga qarshi qurol bo'lmasligi kerak. Sun'iy intellektning rivojlanishi nafaqat insoniyatga, balki atrof-muhitga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi kerak.

7. Hozirgi kunda ko'pchilik insonlar o'smirlar jinoyatini oldini olishda davlat mas'ul bo'lishi kerak deb hisoblashsa, ba'zilar ota-onalar javobgar bo'lishi kerakligini ta'kidlashmoqda

Endi balog'atga yetayotgan yoshlarni jinoyat yo'lga kirmasligiga hukumat mas'ulmi yoxud ularning ota-onalari. Mening fikrimcha, ota-onalarning javobgarligi bilan birga, davlat ham birdek mas'ul bo'lishi kerak. Chunki kelajak avlod nafaqat ota-onalarning, balki vatan faxri hisoblanadi.

Bir tomondan olib qaraganda, ota-onaning o'rni farzand tarbiyasi hamda o'qishida alohida ahamiyatga ega. Avvalambor, qush inida

ko'rganini qiladi deganlaridek, oila sog'lom munosabatda bo'lsa, bu endi ulg'ayotgan farzandning xulq-atvorida namoyon bo'ladi. Misol uchun, bog'bon o'zi qurgan yosh niholning atrofini begona o'tlardan tozalab, doim suv quyib parvarish qilsa, u kutgan natijaga erishadi. Qolaversa, oiladagi iqtisodiy yetishmovchilik, tengqurlari tomonidan kamsitilishlar ham o'spirin bolani jinoyat yo'lga kirishiga sabab bo'ladi. Bunday vaziyatda, albatta, ota-onaning ehtiyotkor bo'lishi lozim. Farzandga o'zi o'rnak bo'lgan holda kitob o'qishi, erkin fikrlashi kerak, shuningdek, uning kelajagi uchun alohida e'tibor berishi lozim. Zero, farzandga tikilgan sarmoya eng yaxshi sarmoya demakdir. Ana o'shanda bu holatni ko'rgan farzand undan yetarlicha ibrat olib, yomon yo'llarga kirib ketishdan cheklana oladi.

Boshqa tomondan olib qarasak, ertamiz egasi bo'lmish avlodga hukumat mutasaddilari ham befarq bo'lmasliklari kerak. Birinchidan, jinoyatdan cheklash maqsadida jinoiy va ma'muriy jazolar berilishi nafaqat o'spirinlarga, balki davlatga ham ancha yaxshi. Qaysi davlat o'zining yosh kadrlarini jinoiy to'dalarga kirib, ma'naviy sayoz, dunyoqarashi tor bo'lgan shaxsga aylanib qolishini xohlaydi deysiz. Shu munosabat bilan, ko'pchilik oliy ta'limlarda bunaqa holatga uchramaslik uchun turli xildagi uchrashuvlar, yig'in hamda praflaktika kunlari o'tkazilyapti.

Mening fikrimcha, sizdan ugina, bizdan bugina deganlaridek, farzand tarbiyasiga ota-onaning roli juda ahamiyatli. Lekin, har bir o'spirinda o'zini boshqara oladigan xulq bo'lishi esa nur ustiga a'lo nur bo'ladi deb hisoblayman. Abayning aytganidek, senda ilmni, aqlni bir me'yorda saqlaydigan fe'l-atvor xulq degan narsa bor. Sen shu narsani ehtiyot qil: yo birovning o'rinli, yo birovning o'rinsiz gapiga ishonib ketaverma.

Xulosa qiladigan bo'lsam, endi o'sib unadigan avlodimizga yuzaki qarab ketmasligimiz lozim. Go'zal tarbiyani oila, sifatli ta'limni esa hukumat ta'minlab berishi biz kutgan natijani bera oladi.

8. Tarixni qanday o'rgagan ma'qul? Yozma manbalar orqalimi yoki muzeylar?

"Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q",- deganlaridek, o'tmishni anglamoq, uni kelajak avlodga boricha yetkazmoq bugunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ayrimlar ushbu jarayonlarni ajdodlarimiz yozib qoldirgan nodir manbalar orqali o'rganish ma'qul ekanligini ta'kidlasa, boshqa toifa kishilari esa tarixiy ashyolar orqali bilib olish tarafdori. Xo'sh, qaysi tomon fikrlari haqqoniy tarix bilan yuzlashishga imkon beradi?

Dono xalqimizda: "O'tmishga to'plonchadan o'q uzsang, kelajak seni to'pga tutadi",- degan naql bor. Darhaqiqat, o'tmishni anglash, o'rganish va o'rgatishda haqqoniyatga suyanish muhimdir. Uni yozma manbalardan foydalanib o'rganish, birinchidan, aniqlikka, ya'ni faktlarni batafsil o'rganishga yordam beradi. Ikkinchidan esa qo'lyozmalar ilmiy asoslilikni ta'minlaydi. Shuningdek, kitoblar, maqolalar, arxiv materiallari orqali biron- bir voqea yoki shaxs haqidagi turli talqinlarni ko'rib chiqish va faktlarni yanada aniqlashtirish imkoni mavjud. Masalan, buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy haqidagi bilimlarni "Ko'hna dunyo" hamda "Jayhun ustida bulutlar" asarlari orqali mustahkamlab olish mumkin.

Ammo har supraning noni bo'lak bo'lganidek, o'tmish bilan yuzlashishda muzeylar afzalligi quyidagilarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, ko'rgazmalilik. Tarixiy ashyolarni bevosita ko'rish davrni yaxshiroq tasavvur qilishga yordam beradi. Ikkinchidan esa hissiy ta'sir. Muzeylardagi eksponatlar va u yerdagi atmosfera ko'hna tarixni jonlantiradi. O'quvchilarim bilan "Qatag'on qurbonlari muzeyi"ga tashrif chog'ida bolalarning zavqlanib tomosha qilganlariga bevosita guvoh bo'lganman.

Mening fikrimcha, o'tmishni o'rganishdagi har ikki usul bir-birini to'ldiradi. Qo'lyozmalardan olingan bilimlar muzeylarda ko'rganlarimizni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Demak, tarixiy bilimlarni o'rganish uchun yozma manbalarni o'qish va muzeylarga tashrif buyurishni birgalikda amalga oshirish lozim. Zero, "Tarixni bilmay, kelajakka qadam qo'yib bo'lmaydi".

So'ngso'z o'rnida shuni aytmoqchimanki, yozma ma'lumotlar tadqiqotlarini chuqurroq va aniq bo'lishi uchun, muzeylar esa hayotiy

bo'lishi uchun muhimdir. Demak, tarixni o'rganishda ushbu usullarni muvozanatli qo'llash maqsadga muvofiq.

9.Ba'zi insonlar shaharlarda yashashni yaxshi deb hisoblashadi,boshqalar esa qishloqni afzal bilishadi.Siz qaysi fikrni ma'qullaysiz?

Bilamizki,shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda yashash uchun muhitning ahamiyati katta.Mamlakatimizdagi ayrim keng fikrlovchi shaxslar kasbiy va ijtimoiy tomondan ko'tarilish uchun katta shaharlarda istiqomat qilishni afzal deb bilsalar,ba'zi insonlar hamma narsasi tabiiy bo'lgan,tabiat qo'ynida oddiy odamlar bilan yashashni ustun deb bilishadi.Xo'sh,tinch va farovon yashash uchun shaharlar yaxshimi yoki olis qishloqlarmi?

Bir tomondan olib qaralganda,markazlarda istiqomat qilishning foydali tomonlari ko'p.Birinchidan,shaharlarda iqtisodiy faoliyat va tadbirkorlik imkoniyatlari ko'proq bo'ladi,bu esa aholiga ko'plab ish o'rinlari va yuqori maoshli ish joylari taqdim eta oladi.Ikkinchidan,katta shaharlarda har jihatdan zamonaviylashtirilgan maktablar, universitetlar mavjuddir.Bu esa o'z navbatida bolalar uchun sifatli ta'lim olishni osonlashtiradi.Zero xalqimiz:"Ilm olishni istagan shaharga intilar",-deb bejiz aytmagandek,sifatli ta'lim oluvchilar uchun bunday joylar juda qulay va mosdir.

Boshqa tomondan olib qaralganda,hozirgi urbanizatsiyalashtirilayotgan davrda stress va shovqindan holi bo'lgan tabiat qo'yni bo'lmish qishloqlarda yashashni afzal ko'ruvchilarning fikrlari ham o'rinlidir.Buning eng asosiy sabablaridan biri shuki, qishloqlar shaharlarga qaraganda ancha sokin va tinch bo'ladi.Shovqin,tirbandlik va stressning kamligi odamlar hayotini osoyishta

qiladi. Shuningdek, qishloqda yashash orqali inson tabiat bilan yaqin bo'ladi. "Qishloqning havosi-dardning shifosi", -deb aytganlaridek, toza havo, yashil makonlar, tabiat manzaralar qishloq aholisining salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mening fikrimcha, shovqin-suronsiz hayot mavjud bo'lgan qishloqlarda yashash foydaliroq. Chunki bunday joylarda kasalliklar keltirib chiqaradigan omillar kamroq. Shuningdek, qo'ni-qo'shnichilik juda yaxshi rivojlangan, bu esa odamlarning bir-biriga mehr-muhabbatini oshiradi. Shaharlarda yashovchi aholi mashinalarning baland ovozlari, audio reklamalarni eshitaverib, sezgi organlari zaiflashadi. Qishloqlar esa bundan ovozlardan holi bo'lgan joydir.

Muxtasar qilib aytganda, qayerda yashash insonning shug'ullanayotgan kasb-koriga, sharoitiga, ijtimoiy kelib chiqishiga chambarchas bog'liqdir. Fikrimning isboti sifatida aytmqchimanki, chorvador shaharda yashaganidan ko'ra qishloqda o'z mehnati evaziga insonlarga naf keltiradigan ish bilan mashg'ul bo'lgani ham o'ziga, ham mamlakatimizga foydadir.

10. Bugungi kunda ichimlik suvining keskin kamayib ketishi hammani tashvishga solmoqda.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda ichimlik suviga bo'lgan talab va ehtiyoj har qachongidan ortib bormoqda. Shu sababdan suv tanqisligi vujudga kelib, global muammolardan biriga aylanib ulgurdi. Xo'sh, nima sababdan suv yetishmovchiligi kelib chiqdi va uning oldini olish imkoni bormi?

Darhaqiqat, XXI asrga kelib suv tanqisligi muammosi butun yer yuzini qamrab oldi. Ushbu dolzarb masala Markaziy Osiyo mintaqasini ham chetlab o'tmadi. Bilamizki, hamma hududlarga ham, ayniqsa, qishloq joylarga vodoprovod quvurlari o'tkazilmagan. Ayrim aholi ichimlik suvidan foydalana olmay, chekka joylardagi ichimlik suvidan olib

foydalanishadi. Uzoqqa borish imkoniyati yo'q kishilar esa yer ostidan chiqariladigan sho'r suvdan foydalanishga majbur bo'lishadi.

Bundan tashqari, shaharlarni olib qarasak, har bir ko'cha deysizmi, xonadon deysizmi, barchasi ichimlik suvi bilan ta'minlangan. Biroq aholi suvdan tejab foydalanishni bilishmaydi. Bir qarasangiz vodoprovod jo'mraklari ochiq, suvning isrof bo'layotganiga amin bo'lamiz. Qishloq va shahar aholisini solishtiradigan bo'lsak, achinarli holatni ko'ramiz. Yildan yilga toza ichimlik suvi narxlari ham oshmoqda. Jumladan, jismoniy shaxslar, budget tashkilotlari va ulgurji iste'molchilar uchun suvning bir kub metri narxi 1400 so'mni tashkil qilmoqda. Yuridik shaxslar uchun esa uch barobarga oshirilmoqda - ichimlik suvining har kub metri uchun 1000 so'mdan 3000 so'mgacha.

Mening fikrimcha, har bir hududga ichimlik suvi yetkazib berish ishlarini jadallashtirish lozim. Shundagina iste'molchilar qiynalmasdan ichimlik suvidan bimalol foydalanishi mumkin. Ammo, suvni tejab, isrof qilmaslikka odatlanish, suvga bolgan ehtiyojlarni bir pog'onaga bo'lsayam kamaytiradi. "Zar qadrini zargar biladi", deganlaridek, suvning qadrini ham unga muhtoj odamlar biladi, ayrim ko'zi to'q insonlar esa, ichimlik suvidan tejamkorlik bilan foydalanishni bilishmaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, " Suv - hayot manbayi",- deb bejizga aytishmagan. Suvsiz na gul, na inson ko'karadi. Shu boisdan, har bir narsadan unumli va tejamkorlik bilan foydalanishni har bir yosh avlodga o'rgatish kerak.

11.Jamiyatda so' z erkinligining ahamiyati qanday?

Barchamizga ma'lumki,inson boshqa mavjudodlardan òzining ongi va zaboni bilan farq qilib turadi. Sòzlay olish Alloh tomonidan berilgan bir mòjiza desak,mubolağa bòlmaydi.Mamlakatimizda sòz va matbuot erkinligiga ruxsat berilgan. Xòsh, insonlar bu imkoniyatdan qay darajada tògri foydalana olishyapti?

Darhaqiqat, yuqorida ta'kidlaganimizdek, sòzlamòqlik- insonning eng asosiy xususiyatlaridan biri. Uzoq yillar mobaynidan odamlar orasida sòzdan foydalanishda ayrim cheklovlar bòlib kelgan. XIX asr oxiri XX asr boshlariga qadar ham bu holat davom etgan. Necha- necha jadidlarimiz bir sòzlari uchun „millat dushmani " degan tamğa bilan qatl qilingan. Sovet tuzimi vaqtida insonlar òz fikrini bildirishmagan, òz marosim va tadbirlarini ham òtkaza olishmagan. Yaqin yillar mobaynida Òzbekiston mustaqil davlatga aylanishi bilan birga òz konstitutsiyasini qabul qildi va yangi qonunlar joriy qildi hamda eng quvonarlisi :insonlar òz haq-huquqlariga ega bòlishdi. Konstitutsiyaga kòra, „ Har kim fikrlash, sòz va e'tiqod erkinligi huquqiga ega" (33-modda). Bu erkinliklar Òzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hokimiyat tepasiga kelishi bilan jadal sur' atlarda òsa boshladi, yana kòplab erkinliklar kiritildi. Jamiyatda ochiqlik siyosatini ilgari surilishi haqida xabar berdi.

Xususan, hozirgi kunda matbuot erkinligi evaziga xalq orasidagi barcha muammoli mavzular ham yuqori tashkilot vakillarigacha yetib boryapti, albatta ,bu- quvonarli holat. Ammo bunday imkoniyatlarda tògri yòlda foydalana olmayotgan fuqarolar ham yòq emas. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarning ba'zi sahifalarida yolğon, bòrttirilgan xabarlarga kòzimiz tushadi. „Yetti òlchab , bir kes ",- deganday ,sòzlayotgan sòzimizga ham e'tiborli bòlishimiz kerak. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda sòz erkinligiga egaman deb, xohlagan haqoratli sòzlaridan ham foydalanishyapti.

Mening fikrimcha, jamiyatimizda yashovchi har bir kishi berilgan erkinlik va imkoniyatlardan tògri foydalana bilishi lozim. Shirin sòzli bòlmoqlik- inson ziynati. Bejizga bobolarimiz:„Anjom - uy ziynati, sòz - inson ziynati",-deyishmagan. Sòzlarimizning gòzal va mazmundor bòlishi uchun kòproq kitob òqishimiz kerak.

Xulosa òrnida shuni aytish joizki, biz sòzlarimizga e'tibor bermay gapirar ekanmiz, kishilar orasidagi mavqiyemizni ham yòqotib boramiz. Gaplarni òylab gapirishni, mazmundor qilib sòzlashni farzandlarimizga kichikligidan òrgatib milatimizni ma'naviyatli qilaylik!

12. Jamiyatimizdagi ayrim insonlar yosh bolalarga televizor ko'rish ko'z nuriga zarar beradi deb hisoblashsa, boshqalar uning yana boshqa ko'proq zararlari borligini ta'kidlashadi.

Barchamizga ayonki, tezlik bilan rivojlanayotgan davrda texnika va texnologiyalar takomillashib borishi natijasida yosh avlodning kompyuter va televizordan foydalanishini cheklay olmasligimiz biz uchun dolzarb muammo bo'lib kelmoqda. Jamiyatimizdagi ayrim ilg'or fikrli shaxslar televizor ko'rish farzandlarining ko'z nuriga zarar yetkazadi deb hisoblashsa, boshqalar esa uning yanada salbiy jihatlari borligini aytishadi. Xo'sh, aslida-chi, farzandlarimiz uchun televizor tomosha qilish qanchalik ziyon?

Darhaqiqat, zamonaviy texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Televizor ko'rish, kompyuterdan foydalanish ko'plab bolalar uchun kundalik odatga aylangan bo'lsa-da, bu odatlarning salbiy tomonlari mavjud. Birinchidan, bolalarning texnologiyalardan uzoq vaqt foydalanishi ularni tashqarida bolalar bilan o'ynashini, sport bilan shug'ullanishini va hattoki oila a'zolari bilan vaqt o'tkazishini cheklab qo'yadi, natijada esa ularning ko'z nurining pasayishiga olib keladi. Statistika ma'lumotlariga qaraganda, JSST tavsiyalariga ko'ra, 5 yoshgacha bo'lgan bolalarga kuniga 1 soatdan ko'proq ekran oldida o'tirish tavsiya etilmaydi. Lekin ba'zi bir ota-onalar farzandiga qarash o'rniga uning qo'lga telefonlarini berib qo'yadi, natijada bolalarining ko'z nuriga ziyon yetkazishdi. Shu o'rinda: "Ko'z - insonning eng noyob boyligi, uni texnologiya zulmatiga berma", - degan gapga ham quloq tutishimiz zarur.

Bunga qo'shimcha ravishda, televizordan chiqayotgan ultra nurlar nafaqat insonlarning salomatligiga, turmush tarziga va mental

rivojlanishiga ta'sir qilmay qolmaydi. Birinchidan, harakatsizlik muommosi, chunki televizor ko'rish bolalarning jismoniy harakatini keskin kamaytiradigan omil hisoblanadi. Natijada bolaning ortiqcha vazn yig'ishiga, mushaklar rivojlanishining sustlashishiga olib keladi. Ikkinchidan, zangori ekran bolalarda uyqu buzilishlariga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, kechqurun ekranga qarash ko'zlarni zo'riqtirish bilan birga, bolalarning uxlashini qiyinlashtiradi, chunki miya ko'k nur ta'sirida dam olishga tayyor bo'lmaydi. Shuningdek, "Ko'zini texnikaga boqib o'tirgan bola, solig'ini va imkoniyatlarini yo'qotadi", - degan naql bejizga aytmaganiga amin bo'lamiz.

Mening fikrimcha, zangori ekrandan ko'p foydalanishning yana ko'proq salbiy tomonlari mavjud. Televizor va kompyuter o'yinlari orqali tajovuzkor yoki nojo'ya xatti-harakatlar namoyish etiladigan lavhalar bolalarning xulq-atvoriga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shuningdek, texnologiyalardan haddan tashqari foydalanish bolaning kayfiyatini o'zgartirishi, tez jahli chiqishi, diqqatini jamlay olmasligi va chalg'uvchanlikka olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, "Texnologiya quliga aylangan bola o'z sog'lig'ini yo'qotadi." Shuning uchun ham bolalarga me'yor darajasidan oshmagan holda televizor va kompyuterlardan foydalanishiga ruxsat berilishi kerak va ota-onalar ularga bee'tibor bo'lmasliklari kerak.

13. Jamiyatimizdagi ayrim insonlar yosh bolalarga televizor ko'rishko'z nuriga zarar beradi deb hisoblashsa, boshqalar uning yana boshqa ko'proq zararlari borligini ta'kidlashadi.

Barchamizga ma'lumki, hozirgi har sohada jadal rivojlanish kuzatilayotgan bir davrda axborot texnologiyalaridan foydalana olmaydigan insonlar deyarli qolmadi. Televizor, kompyuter va telefon hayotimizning ajralmas qismi bo'lib qoldi. Ba'zi bir insonlar televizor yosh bolalarning ko'z nurini pasaytirishini aytishsa, boshqa toifa odamlar uning

zarari yanada ko'proq ekanligini ta'kidlashmoqda. Xo'sh, yosh farzandlarimiz uchun televizorning salbiy ta'siri qay darajada?

Darhaqiqat, hozirgi zamonda qaysi bir xonadonga kirmaylik, albatta, shu oila farzandlarining televizor tagida soatlab o'tirishlariga guvoh bo'lamiz. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, ko'z nurining pasayishi va ko'z kasalliklari bilan bo'lgan holatlarning uchdan ikki qismi yosh bolalar bilan bog'liqdir. Televizor va turli gadjetlar o'zidan nur chiqarib, uzoq vaqt uzluksiz foydalanish oqibatida ko'zga ziyon yetkazishi isbotlangan.

Bunga qo'shimcha tarzda, televizordan chiqayotgan nurlar yosh bolalarning nafaqat salomatligi, balki ruhiyati va ongiga shikast yetkazishi ham ta'kidlangan. Hozirgi zamon yoshlarida xotira susayishi, jizzakilik, agressivlik holatlari kuzatilmoqda. Ko'pchilik ota-onalar hatto ruhshunos xizmatidan foydalanishga ham majbur bo'lishmoqda. Yoshlar faqatgina tengdoshlari bilan emas, balki ota-onalar bilan ham kelisha olmayotgan vaziyatlarga duch kelinmoqda.

Mening fikrimcha, oynayi jahonning yana boshqa salbiy tomonlari ham bor. Salomatlik borasida kamqonlik, ishtahaning yo'qolishi yoki ortiqcha vazn to'plash fikrimning isbotidir. Maktabda o'quvchilar fikrining tarqoqligi, asabiylashishi, o'zini filmlar qahramonlaridek tutishlari ham bunga misol bo'ladi. Farzandlarimizning televizor ko'rishlarini 1-1,5 soatdan oshmasligini nazorat qilish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, farzandlarimizning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkillash, avvalo, ota-onaning vazifasi hisoblanadi. Televizor o'rniga badiiy adabiyotlarni mutolaa qilib, ma'naviy ozuqa olish mumkin. Zero „Farzandlar bizning keljagimiz“. Shunday ekan, kelajagimizga beparvo bo'lmaylik!

14. Ba'zilar mahalliy ishbilarmonlarni qo'llash kerak desa, boshqalar chet el tadbirkorlariga ko'proq e'tibor qaratish kerak deb ishonishadi.

Barchamizga ma'lumki, shiddat bilan rivojlanayotgan davrda mamlakatimiz har qanday kasb egalari uchun qulay sharoitlar yaratib

beriyapti .Jamiyatimizdagi ayrim ilg'or fikrli kishilar davlatimizning rivojlanishi uchun mahalliy ishbilarmonlarga ko'proq e'tibor qaratish lozim deb hisoblashsa,ba'zi insonlar esa xorijiy tadbirkorlarga ko'proq sarmoya kiritish kerak deb bilishadi.Xo'sh,iqtisodiy rivojlanish uchun mahalliy biznes egalarini quvvatlash muhimmi yoki xorijiy investorlarnimi?

Bir tomondan olib qaralganda,o'zbek tadbirkorlarini qo'llab-quvvatlashning ustun taraflari anchagina.Birinchidan,mahalliy biznesmenlarga sarmoya kiritish orqali mamlakatning ichki iqtisodiyoti mustahkamlanadi.Chet el investitsiyalari va resurslariga qaram bo'lmasdan,o'zining ichki resurslari orqali iqtisodiyotda muvozanat saqlanadi.Bu esa davlatni moliyaviy tomondan barqaror qiladi.Ikkinchidan,davlatimizda ish o'rinlari ozligi sababli ko'plab oilalar nochor ahvolda bo'lib qolishmoqda.Agar mahalliy tadbirkorlar o'z faoliyatlarini kengaytirib, ish o'rinlarini yaratishsa,ishsizlik kamayadi va bu esa mamlakatimiz rivojlanishi uchun yana bir hissa bo'lardi."Qush uyasida ko'rganini qiladi",- deb aytishganidek, mahalliy biznes egalarini qo'llash orqali yangi avlodga tadbirkorlik ruhi singdiriladi.

Boshqa tomondan olib qaralganda,hozirgi globallashuv davrda xorijiy biznes egalarini qo'llab-quvvatlashni afzal ko'ruvchilarning fikrlari ham o'rinlidir.Buning eng asosiy sabablaridan biri shuki,ularning davlatga kirishi bilan ko'plab yangi loyihalar, texnologiyalar va biznes strategiyalar olib kiriladi,bu jarayon esa mahalliy ishlab chiqarishning samarasini oshiradi.Ikkinchidan,xorijiy kompaniyalar mamlakat ichida ishlab chiqarilgan mahsulotlarini xorij bozorlariga olib chiqarishga yordam berishi mumkin,bu esa mamlakatning savdo balansini oshiradi.Yana shuni qo'shimcha qilish mumkinki, albatta,xorijiy tadbirkorlar bilan mahalliy ishbilarmonlar tajriba almashishadi."Elga kelgan boylik-yurtning boyligi",-deganlaridek,xorijiy tadbirkorlar ham bizning boyligimizdir.

Mening nazarimda, chet el biznesmenlarning faoliyati mahalliy tadbirkorlar uchun raqobat muhitini kuchaytiradi, bu raqobatning oshishi bozor muhitining sifat jihatdan rivojlanishiga olib keladi, natijada xaridorlar uchun kengroq tanlov paydo bo'ladi. Shuningdek, chet el ishbilarmonlarini kiyim-kechak masalasida bo'lishsa, ular mahalliy tadbirkorlarga qaraganda ancha zamonaviy va sifatli kiyimlar yaratishadi.

Muxtasar qilib aytganda, davlatimiz ularning qay birini qo'llab-quvvatlashidan qat'iy nazar u davlatning ravnaqiga, iqtisodiyotiga va odamlariga foyda keltirishi lozim. Mahalliy tadbirkorlar ichki iqtisodiyot yaxshilanishiga yordam berishsa, xorijiy biznes egalari esa yangi loyihalarni olib kirishib, mamlakatimizda moliyaviy va iqtisodiy o'sish tomonlaridan foyda keltirishadi.

15. Ba'zilar mahalliy ishbilarmonlarni qo'llash kerak desa, boshqalar chet el tadbirkorlariga ko'proq e'tibor qaratish kerak deb ishonishadi.

Mavzu: Ba'zilar davlat mahalliy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashi kerak deb hisoblashda, boshqalar chet el biznesmenlariga ko'proq imkoniyat yaratish kerak deb o'ylashadi.

Barchamizga ma'lumki, shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi asrimizda bizning mamlakatimiz ham har bir sohada bo'lganidek, biznes sohasida ham mana 33 yildirki katta natijalarga erishib kelmoqda. Hozirda ko'pchilik insonlar o'zimizning ishbilarmon yoshlarga biznes uchun yordam berish tarafdori bo'lsa, boshqalar xorijiy hamkorlarni ko'paytirish va ularga imkoniyatlar eshigini ochish istagida. Xo'sh, bularning qaysi biri yurtimiz uchun yanada foydaliroq yoki samaraliroq bo'lishi mumkin?

Bir tomondan olib qaraganda, yosh va mustaqil O'zbekistonni rivojlantirish uchun hukumatimiz har tomonlama intiluvchan, qiziquvchan va o'z sohasining ustasi bo'lgan mahalliy biznesmenlarimizga imkoniyatlar eshigini ochib bergani foydaliroq. Birinchidan, oddiy fermer

tadbirkorlarni oladigan bo'lsak, ular mana shu tuproqda o'sgani uchun bu yerning iqlimi va tabiatini yaxshi tushunishadi va yerga beradigan mehri ham albatta o'zgacha bo'ladi. Ikkinchidan, tadbirkorlar o'zimizniki bo'lgani uchun ularning ishchilarini 99 foizi ham aynan o'zbeklar bo'ladi. Bu degani, aholining ko'pchiligi ish bilan ta'minlanadi va o'z navbatida ishsiz aholi soni kamayadi. Misol tariqasida, yurtimizning barcha viloyatlarida o'z faoliyatini boshlagan "Premier" kompaniyasini oladigan bo'lsak, atigi 20 ta odam bilan ish boshlagan ushbu firma bugunda shu darajada katta o'rinlarga ega bo'lganki, minglab aholi endi bu yerda ishlab, oilasini boqish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Ikkinchi tarafdin olib qaraydigan bo'lsak, chet el investorlariga vatanimizda o'z faoliyatini boshlashlari uchun yo'l berish ham foydadan holi emas, balki ayni foyda degani. Aytaylik, chet el bilan ochilgan qo'shma korxonalar chiqargan mahsulot sifati biznikidan yuqori va aynan shu narsa raqobatbardoshlikni keltirib chiqaradi, natijada mahsulotlarda sifat yuqori bo'ladi. Ikkinchidan, xorij valyutasini kirib kelishi tez sur'atlarda iqtisodiyotni o'sishiga ko'maklashadi. Yana bir ahamiyatli jihati, xorijiy mutaxassislar yurtimizda zamonaviy va jahon standartlariga to'la javob beradigan korxonalarni quradilar va uni eng so'nggi uskunalar bilan ta'mirlaydilar. Bu bilan cheklanmasdan bizning mutaxassislarga korxonalarning ishlash strukturasi to'la o'rgatadilar. Xalqimiz qadimdan: "Qush so'ysa ham qassob so'ysin", - deganidek, endigina o'sayotgan, jahonga chiqayotgan mamlakatimizga har bir sohada yuksak tajriba va bilimga ega kadrlar kerak va ayni ularni xorijiy davlatlardan olish bu biz uchun, xalqimiz uchun va kelgusidagi biznes g'oyalar uchun juda muhimdir.

Mening fikrimcha, davlatimiz o'zimizning tadbirkorlarni yaxshi o'qitib, ularga imkon berishi va kerak bo'lsa xorijda malaka oshirib bu narsalarni yurtimizga olib kirishi juda o'rinlidir. Albatta, bugun muhtaram prezidentimiz qo'lida hunari bo'lgan har bir yoshga imkoniyat berib, o'z loyihalarini yoki bizneslarini yo'lga qo'yishlari uchun katta miqdorda kreditlar bermoqda va ular ham bu narsaga mas'uliyat bilan yondashib aholini ish bilan ta'minlab hozirda mahsulotlarini chetga eksport qilishmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yurtdoshlarimizga bizneslari uchun imkon yaratib berish ham, chet el investorlariga loyihalari uchun sharoit yaratish ham, barchasi mana shu davlatning foydasi uchun xizmat qiladi."Ko'pni ko'rgan- ko'p bilar",- deganlaridek, ishbilarmonlarimiz faqatgina o'zlari bilgan narsalar bilan cheklanibgina qolmay, zamonaviy va oxirgi texnologiyalardan ham xabardor bo'lishlari, ayni damda bu narsalarni hududimizda yo'lga qo'yishlari nafaqat biznesimizni, balki xorijiy davlatlar bilan do'stligimizni ham mustahkamlaydi!

16. Guruh bo'lib o'qigan yaxshimi yoki yolg'iz shug'ullangan afzalmi?

Barchamizga ma'lumki, shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ta'lim sohasiga ko'proq e'tibor qaratilgani bois ko'pchilik yoshlarimizning ilm olishiga qiziqishi oshmoqda. Jamiyatimizdagi ayrim ilg'or fikrli shaxslar jamoa bo'lib o'qishni afzal deb bilishsa, ayrim insonlar bu fikrga qo'shilmagan holda yolg'iz o'zi dars qilishini ustun deb hisoblashadi. Xo'sh, aqlan va ruhan yuksalish uchun guruh bo'lib o'rganish yaxshimi yoki yakka o'zi o'qiganmi?

Bir tomondan olib qaralganda, guruh bo'lib izlanishning ijobiy taraflari bisyor. Birinchidan, agar kimdir qiyinroq mavzuni tushunmagan bo'lsa, boshqalar bilan muhokama qilish orqali uni osonroq tushunishi va yangi bilimlarni tezroq o'zlashtirish imkonini beradi. "Birlikda ish bitar, el bilan to'y o'tar",- deb aytishganidek, guruh a'zolari bir-biriga yordam berishi va o'quv jarayonida paydo bo'ladigan savollarga osonroq javob topishi mumkin. Ikkinchidan, jamoa bo'lib o'qishda boshqalardan ortda qolmaslik uchun harakat qilishi tabiiy hol bo'lib, natijada muvaffaqiyatga erishish ehtimoli oshadi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, jamoaviy o'rganish individual o'rganishga qaraganda bilim olish natijalari 20-30%ga yaxshilanishi aniqlangan.

Boshqa tomondan qaraydigan bo'lsak, yolg'iz shug'ullanishni afzal ko'ruvchilarning fikrlari ham o'rinlidir. Buning eng asosiy sabablaridan biri shuki, yakka o'zi o'rganayotganda hech kim chalg'itmaydi va to'liq diqqatni topshiriq va mavzuga qaratish mumkin. Ikkinchidan, yolg'iz ishlash mas'uliyatni rivojlantirishga yordam beradi, ya'ni o'quvchi o'z bilimlariga ishonadi va murakkab vazifalarni o'zi mustaqil hal qilishni o'rganadi. "Har kim o'z baxtining me'mori", - deganlaridek, har bir inson o'zi o'qib-o'rganib, muvaffaqiyatga erishishi kerak.

Mening fikrimcha, individual o'rgandan ko'ra kooperativ ta'lim ancha foydaliroq. Chunki guruhda o'qish nafaqat bilim olishga, balki jamoada ishlash, muloqot qilish va boshqalar bilan kelishish ko'nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi. Yolg'iz o'qish davomida biror mavzuni noto'g'ri tushunish ehtimoli yuqori, guruh bo'lib ishlasa, bunday tushunmovchiliklarni bartaraf qilish mumkin bo'ladi.

Muxtasar qilib aytganda, bolalarni guruhlarda o'qitish nafaqat ularning bilimlarni tezroq egallashiga ko'maklashadi, balki ijtimoiy doirasini ham kenaytiradi. Shuningdek, kelajakda ma'lum kasbni egallashida va jamiyatga tezroq aralshib ketishida zamin bo'lib xizmat qiladi.

17. Mavzu. Bugungi kunda ko'pchilik ota-onalar farzandlarining kasb tanlashida jiddiy qarshilik qilib, farzandlari istagan kasb- hunarga emas, balki ota-onalar farzandlari qiziqmasa-da o'zlarining sohalarini yoki boshqa orzu-havasidagi kasbni tanlashga majburlashadi.

Barchamizga ma'lumki, kasb tanlash har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri hisoblanadi. Shu sababli farzandlarining qaysi soha vakili bo'lishi ota-onalarni ham befarq qoldirmaydi. Biroq aksariyat ota-onalar bolalarining xohishiga qarshi chiqib, ularni o'zlarining kasbini tanlashga yoki orzu-havaslaridagi faoliyat turini egallashga undashadi. Xo'sh, kattalarning bunday yo'l tutishi qanchalik to'g'ri yoki xato?

Bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodning jamiyatda o'z o'rnini topa bilishida kattalarning roli beqiyosdir. Buni chuqur anglagan ota-onalarimiz bolalarini o'z hayot tajribasi hamda orzu-istaklariga ko'ra kasb tanlashga da'vat etishadi. Ba'zi hollarda ularning bunday yo'l tutishi kutilgan natijani berishi mumkin. Chunki matematikani tushunmay turib iqtisodchi bo'lishni, adabiyotni o'qimasdan yozuvchilikni orzu qiladigan yoshlarimiz oramizda talaygina. Ular uchun o'zi tanlagan yo'ldan ko'ra ota-ona istagiga bo'ysunish yaxshiroqdir.

Biroq tanganing ikkinchi tomoni bo'lganidek, ota-onaning farzand qiziqishi-yu iqtidorini hisobga olmasdan o'zboshimchalik bilan ish tutishi har doim ham yaxshi samara bermasligi mumkin. Inson majburiyat ostida qaysidir kasb-hunarni o'rgangani bilan agar unda ishtiyoq bo'lmasa baribir ko'zlagan natijasiga erisholmaydi. Chunki kishi o'zi mehnat qilayotgan sohasini chin ko'ngildan sevmas ekan undan malakali mutaxassis chiqishi qiyin. Masalan, opamning bugungi ish faoliyati bunga yorqin dalildir. Opam kattalar so'ziga kirib garchi bir necha yildan beri maktabda ishlayotganiga qaramay, bu sohaga qiziqishi yo'qligi sababli hali hamon yaxshi o'qituvchi bo'la olganicha yoq.

Mening fikrimcha, ota-ona farzandining kasb-hunar tanlash borasidagi fikrini hurmat qilishi kerak. Kasb — bu faqat daromad manbayi emas, balki umrning asosiy qismi sarflanadigan faoliyat turi hamdir. Kattalar buni keng mushohada qilib, yosh avlodning orzu-niyatlariga quloq tutsa ularning kelajagi uchun yaxshi bo'lardi. Zero, Bill Geyts aytganidek: "Inson o'zi sevgan ishda ishlamaydi, balki yashaydi".

Xulosa qilib aytganda, ota-onalar farzandlarini qaysidir faoliyat turiga yo'naltirayotganda shoshmasdan, o'ylab ish ko'rishi maqsadga muvofiqdir. "Maslahatli to'n tor kelmas",— deganlaridek bolaning ishtiyoqidan kelib chiqib unga tavsiyalar berilsa har ikki tomon uchun ham manfaatli bo'ladi.

18. Bugungi kunda ko'pchilik ota-onalar farzandlarining kasb tanlashida jiddiy qarshilik qilib, farzandlari istagan kasb-hunarga emas, balki ota-onalar farzandlari qiziqmasa-da o'zlarining sohalarini yoki boshqa orzu-havasidagi kasbni tanlashga majburlashadi.

Barchamizga ma'lumki, kasb tanlash har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri hisoblanadi. Shu sababli farzandlarining qaysi soha vakili bo'lishi ota-onalarni ham befarq qoldirmaydi. Biroq aksariyat ota-onalar bolalarining xohishiga qarshi chiqib, ularni o'zlarining kasbini tanlashga yoki orzu-havaslaridagi faoliyat turini egallashga undashadi. Xo'sh, kattalarning bunday yo'l tutishi qanchalik to'g'ri yoki xato?

Bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodning jamiyatda o'z o'rnini topa bilishida kattalarning roli beqiyosdir. Buni chuqur anglagan ota-onalarimiz bolalarini o'z hayot tajribasi hamda orzu-istaklariga ko'ra kasb tanlashga da'vat etishadi. Ba'zi hollarda ularning bunday yo'l tutishi kutilgan natijani berishi mumkin. Chunki matematikani tushunmay turib iqtisodchi bo'lishni, adabiyotni o'qimasdan yozuvchilikni orzu qiladigan yoshlarimiz oramizda talaygina. Ular uchun o'zi tanlagan yo'ldan ko'ra ota-ona istagiga bo'ysunish yaxshiroqdir.

Biroq tanganing ikkinchi tomoni bo'lganidek, ota-onaning farzand qiziqishi-yu iqtidorini hisobga olmasdan o'zboshimchalik bilan ish tutishi har doim ham yaxshi samara bermasligi mumkin. Inson majburiyat ostida qaysidir kasb-hunarni o'rgangani bilan agar unda ishtiyoq bo'lmasa baribir ko'zlagan natijasiga erisholmaydi. Chunki kishi o'zi mehnat qilayotgan sohasini chin ko'ngildan sevmas ekan undan malakali mutaxassis chiqishi qiyin. Masalan, opamning bugungi ish faoliyati bunga yorqin dalildir. Opam kattalar so'ziga kirib garchi bir necha yildan beri maktabda ishlayotganiga qaramay, bu sohaga qiziqishi yo'qligi sababli hali hamon yaxshi o'qituvchi bo'la olganicha yoq.

Mening fikrimcha, ota-ona farzandining kasb-hunar tanlash borasidagi fikrini hurmat qilishi kerak. Kasb — bu faqat daromad manbayi emas, balki umrning asosiy qismi sarflanadigan faoliyat turi hamdir. Kattalar buni keng mushohada qilib, yosh avlodning orzu-niyatlariga quloq tutsa ularning kelajagi uchun yaxshi bo'lardi. Zero, Bill Geyts aytganidek: "Inson o'zi sevgan ishda ishlamaydi, balki yashaydi".

Xulosa qilib aytganda, ota-onalar farzandlarini qaysidir faoliyat turiga yo'naltirayotganda shoshmasdan, o'ylab ish ko'rishi maqsadga muvofiqdir. "Maslahatli to'n tor kelmas",— deganlaridek bolaning ishtiyoqidan kelib chiqib unga tavsiyalar berilsa har ikki tomon uchun ham manfaatli bo'ladi.

19. Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda ilm insoniyatga nechog'lik zarurligi deyarli barcha insonlarning ong-u shuuriga singib ulgurdi. Shuning uchun ham bilim olishning an'anaviy maktab ta'limiga

qo'shimcha ravishda kōplab o'quv markazlari ham ochilib, yanada mukammalroq hamda zamonaviy tarzda individual yoki intensiv kurslarda yoshlar bilim va kōnikmalarni egallashmoqda. Bu xususda esa ayrimlar jamoa bōlib o'qishni afzal bilsalar ,boshqa bir guruh kishilar individaul tarzda o'qish ma'qulligini tasdiqlaydilar. Xōsh, aslida bilim olish uchun jamoa bōlib o'qigan afzalmi ,yoki yolg'iz o'qigan yaxshiroqmi?

Bir tomondan olib qaraganda guruh bōlib o'qishning afzalliklari talaygina. Jumladan, guruh bōlib ta'lim olinganda o'zaro fikr almashinuvlar yuz beradi. Inson ongi turli taraflardan kelayotgan turlicha fikrlar oqimi bilan boyishni boshlaydi. Ikkinchidan, yonidagi bir o'quvchi ustozga bergan savolining javobini boshqasi ham eshitib tushuncha oladi. Uchinchidan , o'zaro yaxshi ma'nodagi raqobat sabab kimōzarga o'qish tufayli ta'lim sifati oshishni boshlaydi. Tōrtinchidan,"Yolg'izlik faqat Xudoga xos",- deganlariday yangi hayot ostonasiga qadam qōymoqchi bōlib turgan yoshlar quvnoq jamoa,ajoyib atmosfera, bir umr esda qilarli ,qiziqarli lahzalarni birgalikda boshdan kechiradilar.

Boshqa tomondan olib qaraganda esa yolg'iz ,ya'ni individual bilim olish tarafdorlarining ham fikrlari bir qadar o'rinliday tuyuladi. Sababi: fikri tarqoq yoshlar yolg'iz o'qigani afzal ,chunki atrofdagi dōstlarining shovqin-suroniga chalg'imagaydi. Ikkinchidan , tabiatan boshqalarga kirisha olmaydigan ya'ni introvert bolalar uchun bunday ta'lim juda qōl keladi. Uchinchidan, ustozning bor diqqat-e'tibori faqat bitta o'quvchiga qaratilgani tufayli bola aravani quruq olib qocholmaydi.

Mening fikrimcha,"Yolg'iz otning changi chiqmas,changi chiqsa ham, dong'i chiqmas",- deganlariday inson janiyatdan ayro bōlmagan holda guruh bōlib o'qigani yaxshi. Chunki statistik ma'lumotlarga kōra, guruh bōlib tayyorlanish bir o'zi tayyorlanganga qaraganda ancha samarali foyda berishi isbotlangan. Ōzim"Unique academy"da o'quv bōlimi rahbari lavozimida faoliyat yuritayotgan kezarimda eng kōp ota-onalar tomonidan e'tirozlar individual o'qiyotgan bolalarning o'zlashtirishda sustligi va darsga yetarli darajada qiziqmayotgani ustida bōlar edi.

Xulosa o'rnida shuni ayta olamanki, jamoa bilan o' qish bolaga ijobiy ta' sir o' tkazadi. Bu turdagi ta' lim shakli o' ziga ishongan, dadil, kirishuvchan bolalarni tarbiyalshda juda muhim omil sanaladi.

19. Elektromobillarning afzalliklari nimada?

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda yer kurrasi bòylab atrof-muhitni asrash, tabiatni qutqarish dolzarb muammolardan biri bòlib qolmoqda. Sayyoramizning kelajagi haqida qayg'urayotganlar kòpayib bormoqda va bu yòlda turli ixtirolar qilishmoqda. Xòsh, hozirda chiqarilayotgan elektr mashinalarining qanday foydali va salbiy tomonlari bor?

Darhaqiqat, hozirgi kunda yashil sayyoramizning ekalogik holati buzilib bormoqda. Bu hodisa avtomobilning chiqindi gazlari orqali sodir bòladi. Atrof- muhitning yomonlashuvi va tabiatga tahdid- bu sanotning asosi bòlgan benzinning yonishi oqibatidir. Jamiyatimizda ròy berayotgan bunday talofatlarning oldini olish maqsadida olim va mutaxassislar kelajak avtomobillari - elektromobillarni ishlab chiqarmoqda. Elektromobil - bu elektr batariyasi bilan ishlaydigan avtomobil. Unga benzin, gaz quyishingiz shart emas. Kelajak avtomobillari dastlab Osiyo, Yevropa va AQSHning ba'zi mamlakatlarida tarqaldi va hozirga kelib keng qamrovli ravishda foydalanilmoqda. Xitoy esa bu kabi avtomobillar eksportida yetakchi òrinni egallaydi. Bu mashinaning asosiy afzalligi ,shubhasiz, uning ekalogik tozaligidir. U benzin yoqmaydi, atmosferaga tonnalab xavfli modda chiqarilishini oldini oladi. Bundan tashqari haydash vaqtida shovqin va yoqimsiz hid bòlmaydi.

„Har yaxshining bir yomoni bor" , -deganday ,bu kabi mashinalar ham mutloq zararsiz deb ayto olmaymiz. Birinchidan, ular uchun asosiy quvvat manbai bòlgan batariyalarning ishlab chiqarilishida qanchalab elektr stansiyalari faoliyat olib borishadi va kòplab zararli moddalar atmosferaga tarqaladi. Ikkinchidan, ishlatilib bòlingan batareyalarni yòq qilish maqsadida insonlar chiqindiga tashlashadi va bu tuproqni jonsizlantiradi. Uchinchidan, bu turdagi mashinalarda uzoq yòlga chiqib bòlmaydi. Òrganilgan statistik tadqiqotlarga kòra ,avtomobil sakkiz soat

davomida harakatlana oladi. Batareyalarning har qanday paytda tòla bòlib turishi ham muammoli holat. Tòrtinchidan, bu avtomobil rusumi narxining qimmatligi ham asosiy muammolaridan biridir.

Mening fikrimcha, kelajak avtomobillarining afzalliklari kòproq. Yurtimizda ham keng tarqalishiga harakat qilishimiz kerak. Chunki atrof -muhit muhofazasi har birimiz uchun ahamiyatlidir. Tògri, yuqorida salbiy taraflarini ham sanab òtdik, lekin hozirda olim va tadqiqotchilar bu sohani chuqurroq òrganib, xarajatlarni kamaytirmoqda. Ajabmaski, yaqin yillarda elektromobillar narxlari aholining òrta qatlami uchun ham maqbul bòlib, undan foydalanuvchilar soni ham kòpayaversa.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, har birimiz zamon bilan hamnafas bòlgan holda tejamkor texnikalarga òrganishimiz kerak. Elektr mashinalarining yaroqsiz bòlib qolgan batariyalarini ham qayta ishlashni yòlga qòysak, nur ustiga, a'lo nur bòladi.

20. Turistlarning yurtimizga tashrifi buyurishi jamiyatimizga qanday ta'sir qiladi?

Barchamizga ayonki, globallashuv zamonida insonlar turli xil manzillarga tashrif buyurishni, yangiliklar yaratishni, oldin bormagan mamlakatlarga sayohat qilishni xohlashladi. Bugungi kunda yurtimizda sayyohlar oqimi keskin oshayotgani hammamizga ma'lum. Xo'sh, jahongashta sarguzasht izlovchilarning davlatimizga qanday nafi tegadi?

Darhaqiqat, inson qonida ajoyibotlarga tashnalik hamisha mavjud bo'lgan, shuning uchun ular doimo qayerlargadir borgisi, ko'rmagan narsalarini ushlab ko'rgisi kelaveradi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, har yili dunyo bo'ylab millionlab odamlar sayohat qilish maqsadida o'zga mamlakatlarga o'tlanishadi. Shuningdek, yurtimizga ham deyarli har kuni minglab xorijliklar tarixiy obidalarimiz bo'lgan Samarqand, Buxoro, Xiva kabi manzilhozlarni ko'rish uchun yetib kelishadi. Bunday tashriflarning

eng foydali jihatlaridan biri shuki, turizm sohasining rivojlanishi mamlakatga katta daromad keltiradi, chunki chet elliklar o'zlari bilan qimmatbaho valyutalarini ham olib kelishadi. Ikkinchidan, o'zga millat vakillari o'z urf-odatlarini, an'analari va yashash tarzini ham yurtdoshlarimizga namoyish qilishadi, natijada qadriyatlar uyg'unlashuvi yuzaga keladi, bu esa xalqlarni birlashtiruvchi omildir.

Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib shuni ayta olamanki, hozirda ko'p millatli kompaniyalar, ya'ni KMK lar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ular mamlakatimizga tashrif buyurgan insonlar bilan muloqot qilish orqali sayyohlarga nima kerakligi bilishadi va kerakli choralarni qo'llashadi. Keyingi o'rinda mehmonxona, maishiy xizmat ko'rsarish, milliy hunarmandchilik sohasida faoliyat yuritayotgan hamyurtlarimiz o'z mahsulotlarini dunyo bozoriga olib chiqish imkoniga ega bo'lishadi. Negaki aynan milliyligimiz aks etgan manzillar turistlarni o'ziga jalb qilmay qolmaydi.

Har yaxshining bir yomoni bo'lganidek, o'zga millat vakillari ayrim hollarda madaniy resurslarimizga ziyon yetkazishi mumkin. Chunki tarixiy inshootlarga odamlarning tinimsiz kelib turishi binolar infrostrukturasiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Ba'zi hollarda turistlarning milliy qadriyatlarimizni yaxshi tushunmasligi oqibatida turli xil ko'ngilsiz hodisalar ham uchrab turadi. Yana shuni aytish joizki, ular o'zlari bilan G'arb kiyinish uslubi, gapirish madaniyatini ham olib kelishadi. Ayniqsa, yosh avlodda ularga taqlid qilish holatlari uchrab turadi.

Umuman olganda, sayohat inson dunyoqarashini o'stiradigan, emotsional ta'siri kuchli bo'lgan, insonga estetik zavq bag'ishlaydigan vositadir. Turizm nafaqat moliyaviy jihatdan, balki madaniy, tarbiyaviy tomondan ham yurtimizga ko'plab foyda keltiradi. Shuning uchun mamlakatimiz tarixini butun dunyoga namoyish qilish orqali sayyohlarini ko'proq jalb qilish maqsadga muvofiq bo'lardi.

21. Muzeylarning tarixni o'rganishdagi o'rni qanday?

Sir emaski, hozirgi globallashuv zamonida davlatlar, xalqlar, elatlar hamdostligini yo'lga qo'yish uchun juda ko'p islohotlar amalga oshirilmoqda, buning dalili o'laroq ko'plab sayyohlarning yurtimizga tashrif buyurib milliy urf-odatlarimiz va tarixiy an'alarimizni o'rganayotganliklarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bir davlatning

tarixini o'rganishda muzeylardan yaxshiroq joy yo'q bo'lsa kerak. Xosh, tarixni o'rganishda muzeylarning qanchalik ahamiyati bor?

Darhaqiqat ,muzeylar har bir davlatning qadimgi tarixi,ya'ni o'tmishini o'rganishda beqiyos manba hisoblanadi. Chunki u xalqlar va elatlarning madaniy manbalarini saqlagani holda beshikast va beziyon keyingi avlodga yetkazib beruvchi vositadir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov : "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q",- deya ta'kidlaganiday, muzeylar tariximizni mukammal o'rganish ,yurtga muhabbat va unga munosib farzand bo'lish kabi fazilatlarni shakllantirishga munosib hissa qoshadi. Va bugungi kun yoshlarining ongiga:"Kim edig-u ,kim bo'ldik",-degan tushunchalarni singdirishga yordam beradi. Uchinchidan , tobora yo'qolib borayotgan milliyligimizni eslashga,qayta tiklashga chorlaydi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib shuni aytolamizki, muzeylar boshqa davlat kishilarining yurtimizga oqib kelishini va turistik aloqalarning ham mustahkamlanishini ta'minlaydi. O'quvchilar tarix darslarida o'quv mashg'ulotlarida olgan nazariy ma'lumotlarni amalda muzeylarga borgani holda mustahkamlaydilar. Jumladan, Temuriylar tarixi davlat muzeyida 3 mingdan ziyod ekaponatlar mavjud bo'lgani holda tashrif buyuruvchilar temuriylar sulolasi va unda ro'y bergan barcha voqealardan xabardor bo'ladilar. Shuningdek, muzeyda musulmonlarning muqaddas kitobi bo 'lgan Usmonning Qur' on nusxasi markaziy zalda saqlanadi. Muzey ekspozitsiyasida Amir Temur va uning avlodlarining Yevropa mamlakatlari monarxlari bilan bo 'lgan ko 'plab yozishmalarini ko'rishimiz mumkin va bu biz naqadar qudratli va boy ajdodlarning avlodlari ekanligimizni his etib ,faxr tuyg'usini tuyishimizga yordam beradi.

Mening fikrimcha, har bir shaxs o'z yurti va millatining tarixini o'rganishi uchun tez-tez muzeylarga tashrif buyurib turishi kerak,chunki"Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal", - deganlariday kitoblarda nazariy jihatdan ming o'qisa ham, baribir o'z ko'zi bilan borib ko'rganiga yetmaydi. To'g'ri, har yaxshining bir yomon tomoni bo'lganidek, bugungi kunda muzeylar ko'pincha tarixni o'rganish uchun emas ,asosan turistlarni jalb etuvchi tijoriy maskanlar vazifasini o'tab kelayotgani ham sir emas. Bu esa muzeylarga bo'lgan bahoning tushib ketishiga olib keladi

Umuman olganda, muzeylarga faqat turistlar oqimini oshirish uchun yoki mahalliy aholiga kōngilochar joy sifatida emas haqiqiy kelajakka munosib vorislar bōlib yetishishimiz uchun bilim oladigan maskan sifatida qaralishi kerak deb ōylayman

22. Kambag'allikni qisqartirish uchun hukumat fuqarolari uchun nimalar qilishi kerak?

Barchamizga ma'lumki,hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda kambağallik ko'plab mamlakatlar uchun dolzarb masalalaridan biri bo'lib,uni qisqartirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlar har bir hukumatning ustuvor vazifasi hisoblanadi.Fuqarolar hayot darajasini oshirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash uchun hukumatning roli muhimdir.Xōsh,qashshoqlikni kamaytirish maqsadida hukumat qanday tadbirlarni amalga oshirishi kerak?

Darhaqiqat, kambag'allikka qarshi kurashda ta'lim tizimini rivojlantirish katta ahamiyatga ega.Negaki ta'lim insonning kelajagini belgilovchi asosiy omildir.Hukumat bepul yoki arzon ta'lim imkoniyatlarini yaratishi,yosh avlodni kasbiy ta'lim va malakaga yo'naltirishi orqali ularning kelajakdagi mehnat bozoriga raqobatdosh bo'lishiga yordam berishi mumkin.Shuningdek,fuqarolarning bandligi va daromad manbalarini oshirish maqsadida ish ōrinlari yaratish va kichik biznesni rivojlantirishga ko'maklashish kerak.Buni qilish natijasida fuqarolar ōz-ōzini ta'minlab,oilalarini moddiy jihatdan yaxshiroq ta'minlay oladilar.

Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib shuni ayta olamizki,soğliqni saqlash xizmatlariga keng imkoniyat yaratish ham muhim ahamiyatga ega.Chunki odamlar soğlim bo'lgandagina samarali ishlashi mumkin.Shu sababli,hukumat kambag'al odamlar uchun bepul yoki arzon tibbiy xizmatlarni taqdim etishi,ularni kasalliklardan himoya qilishi va

davolashga yordam berishi kerak. Yana qo'shimcha tadbirlardan biri, hukumat kam ta'minlangan oilalar uchun ijtimoiy himoya tizimlarini kuchaytirish va ularga moliyaviy yordam ko'rsatishi kerak. Bu usul, albatta, samarali foyda beradi.

Mening fikrimcha, hukumat odamlari kambag'allikni qisqartirish borasidagi ijobiy tomonlari ko'proq. Shu orinda Muhammad Yusufning: "Kambag'allik shunchaki iqtisodiy masala emas, bu ijtimoiy adolat masalasi. Hukumat odamlarning imkoniyatlarini kengaytirishi va ularning mehnat qilish imkoniyatlarini yaxshilashi kerak", - degan fikrning qanchalar to'g'ri ekanligiga amin bo'lamiz. To'g'ri, har yaxshining yomoni bor. Hukumat tomonidan kambag'allikka qarshi kurashish uchun ajratilgan moliyaviy resurslar davlat byudjetiga katta yuk bo'lishi mumkin. Bu esa davlat qarzining oshishiga olib keladi.

Umuman olganda, davlatimizda kambag'allikni qisqartirish borasida faqat hukumat odamlari oylashi kerakmas, ya'ni ehson qilishga mablag'i yetadigan insonlar ham o'z yordamini ayamasi kerak. Hamma birgalikda bunga qarshi kurashsa, yaqin yillarda bu muammo bizning mamlakatimizda butunlay yo'q bo'ladi.

23. Sanoatning rivojlanishi tabiatga qanchalik zararli?

Barchamizga ma'lumki, bugungi tezkor ildamlayotgan zamonda ishlab chiqarish korxonalarining atrof-muhitga qanchalik salbiy ta'sir ko'rsatayotgani butun dunyoni o'ylantirayotgan asosiy muammolardan biridir. Sanoat korxonalari bizni o'rab turgan olamga qanchalik jarohat yetkazishi hammaga kundek ravshan. Aslida bunday muassalar davlat va jamiyat uchun qanchalik ahamiyatli?

Darhaqiqat, Yer yuzida insonlar soni ortgani sari ular iste'mol qiladigan mahsulotlar, kiyim-kechaklar, yashash joylari uchun talab ham shunga yarasha oshmoqda. Natijada ishlab chiqarish korxonalari talab darajasida o'z faoliyatlarini olib borishmoqda. Afsuski, bunday korxonalar faoliyati

tabiatga, ayniqsa, atmosferaga jiddiy zarar yetkazishi turgan gap. Buning eng asosiy sabablaridan biri shuki, sanoat korxonalardan chiqayotgan zaharli tugunlar havoni bulg'ab, inson hayoti uchun ziyon keltiradi. Ikkinchidan, sanoat faoliyati asosan energiya iste'moliga bog'liq bo'lgani uchun karbonat angidrid va boshqa issiqxona gazlarining chiqarilishi global iqlim o'zgarishiga olib keladi. Bu jarayon yerda haroratning ortishiga, havzalarning o'zgarishiga va tabiiy ofatlar sonining ko'payishiga sabab bo'ladi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib shuni ayta olamanki, sanoat rivojlanishi tabiiy yashash joylarini yo'q qilishi yoki o'zgartirishi, shuningdek, tabiiy resurslarni haddan tashqari iste'mol qilish orqali biologik xilma-xillikni kamaytirishi mumkin. Bu ko'plab navlarning yo'qolishiga olib kelmoqda. Shuningdek, ishlab chiqarish jadallashganida, tabiiy resurslar, masalan, mineral va energetik manbalar, ortiqcha iste'mol qilinadi. Bu jarayonlar natijasida ba'zi resurslar tugaydi yoki qiyinlashadi. "Turib yeganga tog' ham chidamaydi", - degan maqol juda o'rinlidir. Tabiatga achinmasdan, ko'r-ko'rona yer osti boyliklarimizdan foydalanish oqibatida yaqin kelajakda katta muammolarga yuzlanishimiz tabiiy.

Mening fikrimcha, ortiqcha zararli chiqindilar, gazlar, qayta ishlab bo'lmaydigan mahsulotlar sonining ortishi insoniyat tamadduniga o'rilgan bolta bo'ladi. Sanoat faoliyati natijasida olib kelinayotgan ifloslantiruvchi moddalar suv manbalarini zararli ta'sir qiladi. Shuningdek, sanoat chiqindilari tuproq sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu jarayonlar nafaqat flora va fauna uchun, balki aholi uchun ham ziyon.

Negaki ba'zida ijtimoiy muammolarga, masalan, aholini ko'chirish, ish joylarining yo'qolishi yoki zararli ishlab chiqarish sharoitlariga olib kelishi mumkin. To'g'ri, bunday muassasalar faoliyatining ijobiy ta'sirlari yo'q deb aytolmaymiz. Chunonchi, mahsulotlar xilma-xilligi, bir-birini takrorlamaydigan kiyim-kechaklar ishlab chiqarilishi yashash tarzimizni yaxshilamay qolmaydi. Biroq tabiatni arsamasak, u, albatta, o'z qazosini oladi.

Umuman olganda, ko'plab mamlakatlar va kompaniyalar barqaror rivojlanish va ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilayotganini ta'kidlaydilar. Bu sanoatning tabiatga zararini kamaytirishga va ekologik muammolarni hal qilishga yordam berishi mumkin. Sanoatning rivojlanishi bilan birga atrof-muhitni himoya qilishni muhim ravishda e'tiborga olish zarur.

24. Bolani erta maktabga berishning ijobiy va salbiy jihatlarini qanday?

Barchamizga ayonki, shiddatli rivojlanish bo'layotgan hozirgi davrda insonlar hamma narsani tezroq bo'lishini istashmoqda. Ayrim ota-onalar o'z jigargoshalarini erta yoshdan tezroq ilmi bo'lishi uchun harakat qilayotganliklari hech kimga sir emas. Ammo bolani erta yoshdan maktabga berish qanchalik to'g'ri? Ilm dargohiga erta qadam qo'ygan bolada qanday ijobiy va salbiy ta'sirlarni kuzatish mumkin?

Bir tomondan olib qarasak, erta maktabga borishning ijobiy tomonlari talaygina. Birinchidan, ertaroq o'qish va yozishni o'rganadi. Tengdoshlaridan oldin dunyoni anglashni boshlaydi. Ikkinchidan, mustaqil hayotga barvaqt tayyorlanadi. Bu oliygohlarni tugatib ish bilan ham ta'minlanishini tezlashtiradi. Uchinchidan, 5-6 yoshli bolada miya rivojlanishi kuchli bo'lar ekan. Bu esa o'z navbatida ma'lumotlarni xotirasida yaxshiroq o'rnatib qolishiga yordam beradi.

Ikkinchi tomondan olib qarganda, erta maktabga berishning salbiy jihatlarini ham anchagina. Eng avvalo, bola o'yinlardan, baxtli bolaligidan barvaqt ayriladi. Ota-onaning qistovi bilan dars qiladi. Keyingi o'rinda, hamma bola ham o'zidan katta yoshdagi bolalar bilan chiqisha olmaydi. Bu esa uning atrofdagilar bilan muloqot qilishida qiyinchilik paydo qiladi. Do'stlari bilan chiqisha olmaslik bolani jizzaki, asabiy bo'lishiga zamin yaratadi.

Mening fikrimcha, bolani erta maktabga berishning salbiy tomonlari ko'proq. 6 yosh bo'lgan bolalarda nutq buzilishi, diqqatni jamlamaslik kabilar kuzatiladi. Maktabga moslashmaslik oqibatida bolada tajanglik va ilm dargohidan zerikish ham paydo bo'ladi. Natijada sog'ligi yomonlashishi, bilim olishiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin.

Umuman olganda, qaysi yoshda ta'lim olishidan qat'iy nazar bolani ota-ona doimo nazorat qilishi lozim. Yosh bola yozilmagan oq qog'ozga o'xshaydi. Maktab bolaning jamiyatlardagi ilk qadami hisoblanadi. Shuning

uchun ham bu davr farzandimiz xotirasida salbiy iz qoldirmasligiga harakat qilishimiz kerak.

25. Bugungi kunda gazeta va jurnallarni bosmadan chiqarilmay qoyishi va elektron shaklga kochishining ijobiy va salbiy jihatlari qanday?

Barchamizga ayonki,hozirgi globallashuv bolayotgan bir davrda insoniyat hayotida ma'lumotlar va yangiliklar haddan ziyod . Internet tarmogining rivojlanishi har bir shaxsning hayotida muhim orin tutmoqda.Avvallari gazeta va jurnallar uchun obuna bolish,ularning tashkilot va xonadonlarga vaqtida yetkazilishi ta'minlangan edi.Hozirgi davrda esa gazeta va jurnallarning elektron shaklga kochganligi hech kimga sir emas.Xo' sh,gazeta va jurnallarning bosmadan chiqarilmay,balki elektron shaklda berilayotganining qanday ijobiy va salbiy tomonlari mavjud?

Bir tomondan olib qaralganda,elektron shakldagi gazeta va jurnallarning borligi ham yaxshi.Birinchidan,tanlash imkoniyati koproq.Ya'ni xohlagan vaqtda,kerakli gazeta yoki jurnalni mutolaa qilish mumkin.Ikkinchidan,internet tarmogidan kengroq foydalana olish.Kerakli saytlardan qidirib ma'lumotlar toplash.Uchinchidan,qogozbozlikning kamligi.Zarurligi uchun yillar davomida gazeta va jurnallarning xonadonlarda joy egallashi.

Tanganing ikkinchi tomoni bolganidek,gazeta va jurnallarni elektron shaklga kochishining salbiy tomonlari ham yoq emas.Eng avvalo, ular qariyalar uchun noqulayliklar keltirib chiqaradi.Chunki juda kop yoshi katta insonlar gazeta va jurnallarni oqishadi,ammo ularning hammasi ham internet tarmogidan foydalana olmaydi.Keyingi orinda kopchilik insonlarda kompyuter,telefonlar ishlatish jarayonida turli koz kasalliklariga duchor bolish hollari kuzatilmoqda.

Mening fikrimcha,har bir inson qaysi shaklda bolmasin gazeta va jurnallarni oqib turishi maqsadga muvofiqdir.Chunki odamzod yashar ekan,doimo axborot almashib turadi.Hozirgi davrda axborot olish yollari koplgi bois ayrim shaxslar gazeta va jurnallarga e'tiborsiz bolib

qolishdi. Natijada talab kamligi uchun ham bosmaxonalar ishi elektron shaklga otdi. Bu, albatta, oz navbatida ishchi orinlarining qisqarishiga olib keldi.

„Gapning hissasi yaxshi, yolning-qisqasi“, – deganlaridek, har bir shaxs ozi uchun axborot olishda chegaralanmasligi lozim. Internet rivojlanayotgan hozirgi davrda axborotni aniq, ishonarli tarzda berish gazeta va jurnallarning nufuzini yanada oshiradi. Buning uchun esa izlanuvchan, malakali xodimlarning faoliyati zarur, deb o`ylayman.

26. Inson muvaffaqiyatga erishish uchun iste'dod kerakmi yoki qattiq mehnat?

Barchamizga ma'lumki, shiddat bilan rivojlanayotgan davrda muvaffaqiyatga erishish inson hayotidagi asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Bunga erishish yo'lida har kim o'ziga xos usullarni tanlaydi. Ko'pchilik iste'dod muvaffaqiyat kaliti deb bilsa, boshqalar qattiq mehnat hammasidan ustun ekanini ta'kidlaydi. Xosh, muvaffaqiyatga erishish uchun qaysi yol ma'qul?

Bir tomondan olib qaralganda, iste'dod insonning tug'ma qobiliyatlaridan kelib chiqadi. Negaki iste'dodli shaxslar o'z sohalarida boshqalarga qaraganda tezroq va samaraliroq yutuqlarga erishish imkoniga ega bo'ladilar. Masalan, buyuk san'atkorlar yoki sportchilar ko'pincha tug'ma qobiliyatlari tufayli ajralib turadilar. "Iste'dod oltin, mehnat uni porlatadi", – degan maqol aynan shuni tasdiqlaydi. Iste'dod muvaffaqiyatga tezroq olib kelishi mumkin, lekin u faqat mehnat bilan boyitilgandagina to'la samara beradi.

Boshqa tomondan olib qaralganda, qattiq mehnat insonning istagan maqsadga yetishishidagi eng muhim vositalardan biridir. Buning eng asosiy sabablaridan biri shuki, mehnatkash insonlar o'z vaqtlarini va kuchlarini sarflab, o'z tajribalarini oshiradilar va natijada muvaffaqiyat sari yo'l ochadilar. Maqollardan biri aytadi: "Mehnat – eng yaxshi usta." Qattiq mehnat orqali insonlar o'z imkoniyatlarini kengaytiradi, iste'dodsiz ham katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

Mening nazarimda, muvaffaqiyat uchun qattiq mehnat bilan ishlash ancha foydaliroq. Shu órinda, mehnat qilish jarayonida sabr va qat'iyat zafarlar uchun muhimdir, chunki har qanday kasbda qiyinchiliklar bo'lishi mumkin. Bekorga xalqimiz: "Sabrning tagi sariq oltin", – deb aytishmagan. Masalan, iste'dodli bóla turib, lekin mehnat qilib, zahmat tekishni xohlamasa, u inson muvaffaqiyatga erisha olmaydi.

Muxtasar qilib aytganda, muvaffaqiyatga erishish uchun faqat iste'dod yoki faqat qattiq mehnat yetarli emas. Iste'dod, albatta, foydali, lekin mehnat qilish va qat'iyat bilan ishlash orqali o'z imkoniyatlarini kengaytirish va muvaffaqiyatga erishish imkonini oshirish mumkindir. Har bir inson o'z iste'dodini rivojlantirish uchun mehnat qilish va o'z maqsadlariga erishish uchun harakat qilishi kerak.

27. Ba' zilar bolalarga uyga vazifa berilishi kerak deb hisoblashsa, boshqalar zarur emas deb ta' kidlashadi.

Barchamizga ma'lumki, bugungi tez ildamlayotgan va ilm-fan cho'qqilari zabt etilayotgan bir davrda ota-onalar va o'qituvchilar orasida o'quvchilarga beriladigan topshiriqlar hamda vazifalar dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Jamiyatimizdagi ayrim shaxslar farzandlariga uyda mustaqil bajarishlari uchun beriladigan topshiriqlarni keraksiz deb hisoblaydilar va ustozlardan bunday vazifalarni bermasliklarini talab qiladilar. Xo'sh, bunday qarash o'quvchining maktabda bilimlarni yaxshi o'zlashtirish jarayoniga qanday ta'sir o'tkazadi?

Mening fikrimcha, axborot va yangi bilimlar soniya sayin ortib borayotgan bir pallada maktab o'quvchilarining uyga vazifalarni bajarmasdan vaqtini behuda o'tkazishlari ularning kelajagiga bevosita ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Chunki uyga vazifa o'quvchilarga darsda o'rgangan materialni mustahkamlash imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, bilimlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ikkinchidan, uyga vazifa o'quvchilarga mustaqil ravishda ishlashni o'rgatadi. O'z-o'zini boshqarish,

vaqtni rejalashtirish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. "Yoshlarning bo'sh vaqti- dushmanning ish vaqti",- deb aytishlari bejizga emasligiga amin bo'lamiz. Shuningdek, o'quvchilar vazifalarni bajarishda tahlil qilish, baholash va fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu ko'plab fanlar uchun muhim hisoblanadi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib shuni ayta olamanki,uyga vazifalar orqali ota-onalar farzandlarining o'qish jarayonini kuzatishi va ularga yordam berishi mumkin. Bu oila va maktab o'rtasida aloqani mustahkamlashga yordam beradi. Bundan tashqari,vazifalar o'quvchilarga o'z bilimlariga mas'uliyat bilan qarashni o'rgatadi. Ular o'z maqsadlariga erishish uchun motivatsiya topishadi. Shuningdek,ba'zi vazifalar ijodiy yondashuvni talab qiladi, bu esa o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshiradi,masalan, adabiyot, musiqa, chizmachilik kabi fanlar aynan kreativlikka yo'naltirilgani bo'lib, o'quvchilar individual izlanishlar olib borib ushbu fanlardan berilgan vazifalarni bajarishlari orqali ular taffakur qilish va g'oyalar ustida ishlash ko'nikmalarini o'zlarida.shakllantirishadi.

Boshqa tomondan olib qaraganda, qo'shimcha topshiriqlarning bir qancha salbiy tomonlari ham yo'q emas, albatta. Eng avvalo,o'quv dasturida kamida 6-7 xil fan mujassamlashgan. O'quvchilar darslar jarayonida mustahkamlovchi mashqlarni bajarib mavzuni yetarlicha o'zlashtirganidan keyin ustoz tomonidan berilgan yana ayan shunday tipdagi topshiriqlar ularni zeriktirib qo'yadi. Natijada fanga qiziqishlari so'nishi mumkin. Keyingi o'rinda, telefon yoki kompyuterda bir soniyada bajarishi mumkin bo'lgan grafiklar, chizmalar va matnlarni qo'lda yozib vaqt sarflash bugungi kun yoshlari uchun foydasizdek tuyulishi tabiiy. Biroq bu kabi bir-ikki kamchiliklarini aytmaganda, bolaning mavzu yuzasidan berilgan mashqlarni o'zi mustaqil bajarishi zaruriy progress hisoblanadi. "Takrorlash-bilimlarning onasi",- deb aytilganda aynan mana shu holat nazarda tutilgan.

Umuman olganda, hozirgi shiddatli davrda ustozlar ham o'quvchilarga ortiqcha yuklamalar bermasdan dars jarayonida interfaol metodlar orqali ularni o'qishga rag'batlantirishi va qiziqishini kuchaytirish bilan bolalarning uyda ham shu mavzu yuzasidan izlanishlariga majbur qilish kerak. Chunki har qanday qiziqtirib qo'yilgan mavzu o'quvchida o'zida ko'proq bilimlarni shakllantirishga undashi hammamizga kunday ravshan.

28. Nima uchun yoshlar keksalarni behurmat qilishadi?

Barchamizga ma'lumki, hozirgi zamonaviylashib borayotgan davrda yosh avlodning kattalarni hurmat qilmasligi asosiy muommolardan biri hisoblanadi. Oila, maktab va jamiyatdagi kattalar yoshlarga hayotiy tajribalari bilan yordam berishiga qaramay, bu hurmatning yo'qligi jamiyatda katta muommoga aylanib bormoqda. Xósh, ushbu muommoning sabablari nimada va qanday choralar ko'rishimiz kerak?

Darhaqiqat, ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy texnologiyalar rivojlanganligi yoshlarga ózgacha ta'sirini o'tkazmoqda. Buning eng birlamchi sabablaridan biri shuki, zamonaviy texnologiyalar va axborot vositalari yoshlar orasida yangi qarashlar va qadriyatlarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Bu ba'zida eski qadriyatlarga nisbatan ehtiyotkorlikni kamaytirishi mumkin. Ikkinchidan, yoshlar va kattalar órtasidagi muloqot usullari farq qilishi mumkin. Chunki kattalar ko'pincha an'anaviy, hayotiy tajribaga asoslangan fikrlarga egadirlar, yoshlar esa yangilarga ochiq bo'lishi va óz fikrini erkin ifoda etishni istashadi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib shuni ayta olamanki, maktab va jamiyatda yetarli darajada axloqiy tarbiya berilmasligi ham asosiy sabablardan biridir. Ta'lim muassasalari yoshlarning nafaqat bilim olishi, balki xulq-atvorga ham rioya qilishini o'rgatishlari kerak, chunki ko'plab yoshlar o'zini hurmat qilish va kattalar bilan bo'lgan munosabatlarda yetarlicha bilimlarga ega emas. Keyingi órinda, yoshlar ko'pincha ijtimoiy tarmoqlar bilan vaqt o'tkazadi va kattalar bilan bevosita muloqotga kamroq kirishadi. Bu esa ular orasidagi tafovutlarni kuchaytiradi va kattalarga hurmat kamayishiga olib keladi. Oqibatda yoshlar kattalar fikrlarini e'tiborsiz qoldirishadi.

Mening fikrimcha, ushbu chigal vaziyatning oldini olish uchun, eng avvalo, oiladagi muhitni to'g'irlash kerak. Chunki "Qush uyasida ko'rganini qiladi", - deb aytishganidek, albatta, bolalar ham oilada ko'rgan muhitni boshqalarga qilishga harakat qiladi, shuning uchun ham oila a'zolarining bir-birini hurmat qilishlarini bolaga ko'rsatish kerak. Ikkinchidan, yoshlarni texnologiyadan to'g'ri foydalanishga va ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy me'yorlarga rioya qilishga o'rgatish muhimdir. Uchinchidan, maktab va ta'lim muassasalarida tarbiyani kuchaytirish darkor.

Xulosa qilib shuni ayta olamanki, oiladagi muhitni yaxshilash, ta'limda bolalarga e'tibor qaratish va ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanish jamiyatimizdagi bunday noxushliklar kam sodir bo'lishiga olib kelar edi. Zero bolalarga to'g'ri yo'lni ko'rsatsak, bu, albatta, ham jamiyatimizga, ham bolaning oila a'zolariga foydalidir.

29. Tarixni qanday o'rgagan ma'qul? Yozma manbalar orqalimi yoki muzeylar?

"Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", - deganlaridek, o'tmishni anglamoq, uni kelajak avlodga boricha yetkazmoq bugunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ayrimlar ushbu jarayonlarni ajdodlarimiz yozib qoldirgan nodir manbalar orqali o'rganish ma'qul ekanligini ta'kidlasa, boshqa toifa kishilari esa tarixiy ashyolar orqali bilib olish tarafdori. Xo'sh, qaysi tomon fikrlari haqqoniy tarix bilan yuzlashishga imkon beradi?

Dono xalqimizda: "O'tmishga to'plonchadan o'q uzsang, kelajak seni to'pga tutadi", - degan naql bor. Darhaqiqat, o'tmishni anglash, o'rganish va o'rgatishda haqqoniyatga suyanish muhimdir. Uni yozma manbalardan foydalanib o'rganish, birinchidan, aniqlikka, ya'ni faktlarni batafsil o'rganishga yordam beradi. Ikkinchidan esa qo'lyozmalar ilmiy asoslilikni ta'minlaydi. Shuningdek, kitoblar, maqolalar, arxiv materiallari orqali biron-bir voqea yoki shaxs haqidagi turli talqinlarni ko'rib chiqish va faktlarni yanada aniqlashtirish imkoni mavjud. Masalan, buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy haqidagi bilimlarni "Ko'hna dunyo" hamda "Jayhun ustida bulutlar" asarlari orqali mustahkamlab olish mumkin.

Ammo har supraning noni bo'lak bo'lganidek, o'tmish bilan yuzlashishda muzeylar afzalligi quyidagilarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, ko'rgazmalilik. Tarixiy ashyolarni bevosita ko'rish davrni yaxshiroq tasavvur qilishga yordam beradi. Ikkinchidan esa hissiy ta'sir. Muzeylardagi eksponatlar va u yerdagi atmosfera ko'hna tarixni jonlantiradi. O'quvchilarim bilan "Qatag'on qurbonlari muzeyi"ga tashrif chog'ida bolalarning zavqlanib tomosha qilganlariga bevosita guvoh bo'lganman. (54)

Mening fikrimcha, o'tmishni o'rganishdagi har ikki usul bir-birini to'ldiradi. Qo'lyozmalardan olingan bilimlar muzeylarda ko'rganlarimizni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Demak, tarixiy bilimlarni o'rganish uchun yozma manbalarni o'qish va muzeylarga tashrif buyurishni birgalikda amalga oshirish lozim. Zero, "Tarixni bilmay, kelajakka qadam qo'yib bo'lmaydi". (40)

So'ngso'z o'rnida shuni aytmoqchimanki, yozma ma'lumotlar tadqiqotlarini chuqurroq va aniq bo'lishi uchun, muzeylar esa hayotiy bo'lishi uchun muhimdir. Demak, tarixni o'rganishda ushbu usullarni muvozanatli qo'llash maqsadga muvofiq.

30. Ba'zi insonlar shaharlarda yashashni yaxshi deb hisoblashadi, boshqalar esa qishloqni afzal bilishadi. Siz qaysi fikrni ma'qullaysiz?

Bilamizki, shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda yashash uchun muhitning ahamiyati katta. Mamlakatimizdagi ayrim keng fikrlovchi shaxslar kasbiy va ijtimoiy tomondan ko'tarilish uchun katta shaharlarda istiqomat qilishni afzal deb bilsalar, ba'zi insonlar hamma narsasi tabiiy bo'lgan, tabiat qo'ynida oddiy odamlar bilan yashashni ustun deb bilishadi. Xo'sh, tinch va farovon yashash uchun shaharlar yaxshimi yoki olis qishloqlarmi?

Bir tomondan olib qaralganda, markazlarda istiqomat qilishning foydali tomonlari ko'p. Birinchidan, shaharlarda iqtisodiy faoliyat va tadbirkorlik imkoniyatlari ko'proq bo'ladi, bu esa aholiga ko'plab ish o'rinlari va yuqori maoshli ish joylari taqdim eta oladi. Ikkinchidan, katta shaharlarda har jihatdan zamonaviylashtirilgan maktablar, universitetlar mavjuddir. Bu esa o'z navbatida bolalar uchun sifatli ta'lim olishni osonlashtiradi. Zero xalqimiz: "Ilm olishni istagan shaharga intilar", - deb bejiz aytmagandek, sifatli ta'lim oluvchilar uchun bunday joylar juda qulay va mosdir.

Boshqa tomondan olib qaralganda, hozirgi urbanizatsiyalashtirilayotgan davrda stress va shovqindan holi bo'lgan tabiat qo'yni bo'lmish qishloqlarda yashashni afzal ko'ruvchilarning fikrlari ham o'rinlidir. Buning eng asosiy sabablaridan biri shuki, qishloqlar shaharlarga qaraganda ancha sokin va tinch bo'ladi. Shovqin, tirbandlik va stressning kamligi odamlar hayotini osoyishta qiladi. Shuningdek, qishloqda yashash orqali inson tabiat bilan yaqin bo'ladi. "Qishloqning havosi-dardning shifosi", - deb aytganlaridek, toza havo, yashil makonlar, tabiat manzaralar qishloq aholisining salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mening fikrimcha, shovqin-suronsiz hayot mavjud bo'lgan qishloqlarda yashash foydaliroq. Chunki bunday joylarda kasalliklar keltirib chiqaradigan omillar kamroq. Shuningdek, qo'ni-qo'shnichilik juda yaxshi rivojlangan, bu esa odamlarning bir-biriga mehr-muhabbatini oshiradi. Shaharlarda yashovchi aholi mashinalarning baland ovozlari, audio reklamalarni eshitaverib, sezgi organlari zaiflashadi. Qishloqlar esa bundan ovozlardan holi bo'lgan joydir.

Muxtasar qilib aytganda, qayerda yashash insonning shug'ullanayotgan kasb-koriga, sharoitiga, ijtimoiy kelib chiqishiga chambarchas bog'liqdir. Fikrimning isboti sifatida aytmoqchimanki, chorvador shaharda yashaganidan ko'ra qishloqda o'z mehnati evaziga insonlarga naf

keltiradigan ish bilan mashg'ul bo'lgani ham o'ziga, ham mamlakatimizga foydadir.

31. Bugungi kunda ichimlik suvining keskin kamayib ketishi hammani tashvishga solmoqda.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda ichimlik suviga bo'lgan talab va ehtiyoj har qachongidan ortib bormoqda. Shu sababdan suv tanqisligi vujudga kelib, global muammolardan biriga aylanib ulgurdi. Xo'sh, nima sababdan suv yetishmovchiligi kelib chiqdi va uning oldini olish imkoni bormi?

Darhaqiqat, XXI asrga kelib suv tanqisligi muammosi butun yer yuzini qamrab oldi. Ushbu dolzarb masala Markaziy Osiyo mintaqasini ham chetlab o'tmadi. Bilamizki, hamma hududlarga ham, ayniqsa, qishloq joylarga vodoprovod quvurlari o'tkazilmagan. Ayrim aholi ichimlik suvidan foydalana olmay, chekka joylardagi ichimlik suvidan olib foydalanishadi. Uzoqqa borish imkoniyati yo'q kishilar esa, yer ostidan chiqariladigan sho'r suvdan foydalanishga majbur bo'lishadi.

Bundan tashqari, shaharlarni olib qarasak, har bir ko'cha deysizmi, xonadon deysizmi, barchasi ichimlik suvi bilan ta'minlangan. Biroq, aholi suvdan tejab foydalanishni bilishmaydi. Bir qarasangiz vodoprovod jo'mraklari ochiq, suvning isrof bo'layotganiga amin bo'lamiz. Qishloq va shahar aholisini solishtiradigan bo'lsak, achinarli holatni ko'ramiz. Yildan yilga toza ichimlik suvi narxlari ham oshmoqda. Jumladan, jismoniy shaxslar, budget tashkilotlari va ulgurji iste'molchilar uchun suvning bir kub metri narxi 1400 so'mni tashkil qilmoqda. Yuridik shaxslar uchun esa uch barobarga oshirilmoqda – ichimlik suvining har kub metri uchun 1000 so'mdan 3000 so'mgacha.

Mening fikrimcha, har bir hududga ichimlik suvi yetkazib berish ishlarini jadallashtirish lozim. Shundagina iste'molchilar qiynalmasdan ichimlik suvidan bimalol foydalanishi mumkin. Ammo, suvni tejab, isrof qilmaslikka odatlanish, suvga bolgan ehtiyojlarni bir pog'onaga bo'lsayam kamaytiradi. "Zar qadrini zargar biladi", deganlaridek, suvning

qadrini ham unga muhtoj odamlar biladi, ayrim ko'zi to'q insonlar esa, ichimlik suvidan tejamkorlik bilan foydalanishni bilishmaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, " Suv - hayot manbayi", deb bejizga aytishmagan. Suvsiz na gul, na inson ko'karadi. Shu boisdan har bir narsadan unumli va tejamkorlik bilan foydalanishni har bir yosh avlodga o'rgatish kerak.

32.So' z erkinligi berilishi qanchalik to' g' ri?

Barchamizga ma'lumki, inson boshqa mavjudodlardan o'zining ongi va zaboni bilan farq qilib turadi. Sòzlay olish Alloh tomonidan berilgan bir mòjiza desak mubolağa bòlmaydi. Mamlakatimizda sòz va matbuot erkinligiga ruxsat berilgan. Xòsh, insonlar bu imkoniyatdan qay darajada tògri foydalana olishyapti?

Darhaqiqat, yuqorida ta'kidlaganimizdek, sòzlamoqlik insonning eng asosiy xususiyatlaridan biri. Uzoq yillar mobaynidan odamlar orasida sòzdan foydalanishda ayrim cheklovlar bòlib kelgan. XIX asr oxiri XX asr boshlariga qadar ham bu holat davom etgan. Necha- necha jadidlarimiz bir sòzlari uchun „millat dushmani " degan tamğa bilan qatl qilingan. Sovit tuzimi vaqtida insonlar o'z fikrini bildirishmagan, o'z marosim va tadbirlarini ham o'tkiza olishmagan. Yaqin yillar mobaynida O'zbekiston mustaqil davlatga aylanishi bilan birga o'z konstitutsiyasini qabul qildi va yangi qonunlar joriy qildi. Hamda eng quvonarlisi insonlar o'z haq-huquqlariga ega bòlishdi. Konstitutsiyaga kòra, „ Har kim fikrlash, sòz va e'tiqod erkinligi huquqiga ega" (33-modda). Bu erkinliklar O'zbekiston Respublikasi ikkinchi prezidenti Shavkat Mirziyoyev hokimiyat tepasiga kelishi bilan jadal suratlarda o'sa boshladi, yana kòplab erkinliklar kiritildi. Jamiyatda ochiqlik siyosatini ilgari surmoqchiligi haqida xabar berdi.

Xususan, hozirgi kunda matbuot erkinligi evaziga xalq orasidagi barcha muammoli mavzular ham yuqori tashkilot vokillarigacha yetib boryapti, albatta bu- quvonarli holat. Ammo, bunday imkoniyatlarda tògri yòlda foydalana olmayotgan fuqarolar ham yòq emas. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarning ba'zi sahifalarida yolğon, bòrttirilgan xabarlarga

kòzimiz tushadi. „Yetti òlchab , bir kes " deganday sòzlayotgan sòzimizga ham e'tiborli bòlishimiz kerak. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda sòz erkinligiga egaman deb, xohlagan xaqoratli sòzlaridan ham foydalanishyapti.

Mening fikrimcha, jamiyatimizda yashovchi har bir kishi berilgan erkinlik va imkoniyatlardan tògri foydalana bilishi lozim. Shirin sòzli bòlmoqlik-inson ziynati. Bejizga bobolarimiz- „Anjom - uy ziynati, sòz - inson ziynati.",deyishmagan. Sòzlarimizning gòzal va mazmundor bòlishi uchun kòproq kitob òqishimiz kerak.

Xulosa òrnida shuni aytish joizki, biz sòzlarimizga e'tibor bermay gapirar ekanmiz, kishilar orasidagi mavqiyemizni ham yòqotib boramiz. Gaplarni òylab gapirishni, mazmundor qilib sòzlashni farzandlarimizga kichikligidan òrgatib milatimizni ma'naviyatli qilaylik!

33.Jamiyatimizdagi ayrim insonlar yosh bolalarga televizor ko'rish ko'z nuriga zarar beradi deb hisoblashsa,boshqalar uning yana boshqa ko'proq zararlari borligini ta'kidlashadi.

Barchamizga ayonki,tezlik bilan rivojlanayotgan davrda texnika va texnologiyalar takomillashib borishi natijasida,yosh avlodni kompyuter va televizordan foydalanishini cheklay olmasligimiz,biz uchun dolzarb muommo bo'lib kelmoqda.Jamiyatimizdagi ayrim ilg'or fikrli shaxslar televizor ko'rish farzandlarining ko'z nuriga zarar yetkazadi deb hisoblashsa,boshqalar esa uning yanada salbiy jihatlari borligini aytishadi.Xo'sh,aslida-chi,farzandlarimiz uchun televizor tomosha qilish qanchalik ziyon?

Darhaqiqat, zamonaviy texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan.Televizor ko'rish , kompyuterdan foydalanish ko'plab bolalar uchun kundalik odatga aylangan bo'lsa-da,bu odatlarning salbiy tomonlari mavjud.Birinchidan,bolalarning texnologiyalardan uzoq vaqt

foydalanishi ,ularni tashqarida bolalar bilan o'ynashini,sport bilan shug'ullanishini va hattoki,oila a'zolari bilan vaqt o'tkazishini cheklab qo'yadi,natijada esa ularning ko'z nurining pasayishiga olib keladi.Statistik ma'lumotlarga qaraganda,JSST tavsiyalariga ko'ra,5yoshgacha bo'lgan bolalarga kuniga 1 soatdan ko'proq ekran oldida o'tirish tavsiya etilmaydi.Lekin ba'zi bir ota-onalar farzandiga qarash o'rniga uning qo'lga telefonlarini berib qo'yadi,natijada bolalarining ko'z nuriga ziyon yetkazishdi.Shu o'rinda:"Ko'z-insonning eng noyob boyligi,uni texnologiya zulmatiga berma",-degan gapga ham quloq tutishimiz zarur.

Bunga qo'shimcha ravishda, televizordan chiqayotgan ultra nurlar nafaqat insonlarning salomatligiga,turmush tarziga va mental rivojlanishiga ta'sir qilmay qolmaydi.Birinchidan, harakatsizlik muommosi,chunki televizor ko'rish bolalarning jismoniy harakatini keskin kamaytiradigan omil hisoblanadi.Natijada,bolaning ortiqcha vazn yig'ishiga,mushaklar rivojlanishining sustlashishiga olib keladi.Ikkinchidan,zangori ekran bolalarda uyqu buzilishlariga sabab bo'lishi mumkin.Ayniqsa,kechqurun ekranga qarash ko'zlarni zo'riqtirish bilan birga,bolalarning uxlashini qiyinlashtiradi,chunki miya ko'k nur ta'sirida dam olishga tayyor bo'lmaydi.Shuningdek,"Ko'zini texnikaga boqib o'tirgan bola,solig'ini va imkoniyatlarini yo'qotadi",-degan naql bejizga aytmaganiga amin bo'lamiz.

Mening fikrimcha,zangori ekrandan ko'p foydalanishning yanada salbiy tomonlari mavjud.Televizor va kompyuter o'yinlari orqali tajovuzkor yoki nojo'ya xatti-harakatlar namoyish etiladigan lavhalar bolalarning xulq-atvoriga salbiy ta'sir qilishi mumkin.Shuningdek, texnologiyalardan haddan tashqari foydalanish bolaning kayfiyatini o'zgartirishi,tez jahli chiqishi,diqqatini jamlay olmasligi va chalg'uvchanlikka olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish joizki,"Texnologiya quliga aylangan bola o'z sog'lig'ini yo'qotadi."Shuning uchun ham bolalarga me'yor darajasidan

oshmagan holda televizor va kompyuterlardan foydalanishiga ruxsat berilishi kerak va ota-onalar ularga bee'tibor bo'lmasliklari kerak.

34.Jamiyatimizdagi ayrim insonlar yosh bolalarga televizor ko'rishko'z nuriga zarar beradi deb hisoblashsa,boshqalar uning yana boshqa ko'proq zararlari borligini ta'kidlashadi.

Barchamizga ma'lumki, hozirgi har sohada jadal rivojlanish kuzatilayotgan bir davrda axborot texnologiyalaridan foydalana olmaydigan insonlar deyarli qolmadi.Televizor , kompyuter va telefon hayotimizning ajralmas qismi bo'lib qoldi .Ba'zi bir insonlar televizor yosh bolalarning ko'z nurini pasaytirishini aytishsa,boshqa toifa odamlar uning zarari yanada ko'proq ekanligini ta'kidlashmoqda.Xo'sh,yosh farzandlarimiz uchun televizorning salbiy ta'siri qay darajada?

Darhaqiqat,hozirgi zamonda qaysi bir xonadonga kirmaylik,albatta,shu oila farzandlarining televizor tagida soatlab o'tirishlariga guvoh bo'lamiz.Statistik ma'lumotlarga qaraganda,ko'z nurining pasayishi va ko'z kasalliklari bilan bo'lgan holatlarning uchdan ikki qismi yosh bolalar bilan bog'liqdir.Televizor va turli gadjetlar o'zidan nur chiqarib,uzoq vaqt uzluksiz foydalanish oqibatida ko'zga ziyon yetkazishi isbotlangan.

Bunga qo'shimcha tarzda,televizordan chiqayotgan nurlar yosh bolalarning nafaqat salomatligi,balki ruhiyati va ongiga shikast yetkazishi ham ta'kidlangan.Hozirgi zamon yoshlarida xotira susayishi,jizzakilik,agressivlik holatlari kuzatilmoqda.Ko'pchilik ota-onalar hatto ruhshunos xizmatidan foydalanishga ham majbur bo'lishmoqda.Yoshlar faqatgina tengdoshlari bilan emas,balki ota- ona bilan ham kelisha olmayotgan vaziyatlarga duch kelinmoqda.

Mening fikrimcha,oynayi jahonning yana boshqa salbiy tomonlari ham bor.Salomatlik borasida kamqonlik,ishtahaning yo'qolishi yoki ortiqcha vazn to'plash fikrimning isbotidir.

Maktabda o'quvchilar fikrining tarqoqligi,asabiylashishi,o'zini filmlar qahramonlaridek tutishlari ham bunga misol bo'ladi.

Farzandlarimizning televizor ko'rishlarini 1-1,5 soatdan oshmasligini nazorat qilish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda,farzandlarimizning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkillash, avvalo,ota-onaning vazifasi hisoblanadi.Televizor o'rniga

badiiy adabiyotlarni mutolaa qilib,ma'naviy ozuqa olish mumkin.Zero „Farzandlar bizning keljagimiz".Shunday ekan ,kelajagimizga beparvo bo'lmaylik!

35.Ba' zilar mahalliy ishbilarmonlarni qo' llab-quvvatlash kerak deb hisoblashsa, boshqalar xorijiy tadbirkorlarni jalb qilish kerak deb hisoblaydi.

Barchamizga ma'lumki,shiddat bilan rivojlanayotgan davrda mamlakatimiz har qanday kasb egalari uchun qulay sharoitlar yaratib beryapti .Jamiyatimizdagi ayrim ilg'or fikrli kishilar davlatimizning rivojlanishi uchun mahalliy ishbilarmonlarga ko'proq e'tibor qaratish lozim deb hisoblashsa,ba'zi insonlar esa xorijiy tadbirkorlarga ko'proq sarmoya kiritish kerak deb bilishadi.Xo'sh,iqtisodiy rivojlanish uchun mahalliy biznes egalarini quvvatlash muhimmi yoki xorijiy investorlarnimi?

Bir tomondan olib qaralganda,o'zbek tadbirkorlarini qo'llab-quvvatlashning ustun taraflari anchagina.Birinchidan,mahalliy biznesmenlarga sarmoya kiritish orqali mamlakatning ichki iqtisodiyoti mustahkamlanadi.Chet el investitsiyalari va resurslariga qaram bo'lmasdan,o'zining ichki resurslari orqali iqtisodiyotda muvozanat saqlanadi.Bu esa davlatni moliyaviy tomondan barqaror qiladi.Ikkinchidan,davlatimizda ish o'rinlari ozligi sababli ko'plab oilalar nochor ahvolda bo'lib qolishmoqda.Agar mahalliy tadbirkorlar o'z faoliyatlarini kengaytirib, ish o'rinlarini yaratishsa,ishsizlik kamayadi va bu esa mamlakatimiz rivojlanishi uchun yana bir hissa bo'lardi."Qush uyasida ko'rganini qiladi",- deb aytishganidek, mahalliy biznes egalarini qo'llash orqali yangi avlodga tadbirkorlik ruhi singdiriladi.

Boshqa tomondan olib qaralganda,hozirgi globallashuv davrda xorijiy biznes egalarini qo'llab-quvvatlashni afzal ko'ruvchilarning fikrlari ham o'rinlidir.Buning eng asosiy sabablaridan biri shuki,ularning davlatga kirishi bilan ko'plab yangi loyihalar, texnologiyalar va biznes strategiyalar

olib kiriladi, bu jarayon esa mahalliy ishlab chiqarishning samarasini oshiradi. Ikkinchidan, xorijiy kompaniyalar mamlakat ichida ishlab chiqarilgan mahsulotlarini xorij bozorlariga olib chiqarishga yordam berishi mumkin, bu esa mamlakatning savdo balansini oshiradi. Yana shuni qo'shimcha qilish mumkinki, albatta, xorijiy tadbirkorlar bilan mahalliy ishbiarmonlar tajriba almashishadi. "Elga kelgan boylik-yurtning boyligi", -deganlaridek, xorijiy tadbirkorlar ham bizning boyligimizdir.

Mening nazarimda, chet el biznesmenlarning faoliyati mahalliy tadbirkorlar uchun raqobat muhitini kuchaytiradi, bu raqobatning oshishi bozor muhitining sifat jihatdan rivojlanishiga olib keladi, natijada xaridorlar uchun kengroq tanlov paydo bo'ladi. Shuningdek, chet el ishbiarmonlarini kiyim-kechak masalasida bo'lishsa, ular mahalliy tadbirkorlarga qaraganda ancha zamonaviy va sifatli kiyimlar yaratishadi.

Muxtasar qilib aytganda, davlatimiz ularning qay birini qo'llab-quvvatlashidan qat'iy nazar u davlatning ravnaqiga, iqtisodiyotiga va odamlariga foyda keltirishi lozim. Mahalliy tadbirkorlar ichki iqtisodiyot yaxshilanishiga yordam berishsa, xorijiy biznes egalari esa yangi loyihalarni olib kirishib, mamlakatimizda moliyaviy va iqtisodiy o'sish tomonlaridan foyda keltirishadi.

36. Ba' zilar guruh bo' lib o' qishni tanlashsa, boshqalar yolg' iz o' qish tarafdoridirlar.

Hozirda hamma sohada shiddatli rivojlanish bo'layotgani kabi ta'lim sohasiga bo'layotgan e'tibor sabab bu sohada ham ko'plab o'zgarishlar bo'lmoqda. Jumladan, yangi jihozlar bilan ta'minlangan maktablar, litsey va ixtisoslashgan ta'lim muassasalari qurildi. Shularning qatorida oliygohlarga kirish uchun tayyorlash maqsadida o'quv markazlari ham deyarli barcha yashash joylarida tashkil qilindi. Shunday bo'lsada ayrim maktab bitiruvchilari alohida yolg'iz bilim olishni istashadi. Xo'sh, bu qanchalik to'g'ri fikr.

O'ylab qaralsa guruh bo'lib bilim olishning samarasi kattaroq. Birinchidan, "Bir kalla yaxshi, ikki kalla undan-da yaxshi", -deganlaridek fikr almashish bo'ladi, birining bilmaganini biladigandan o'quvchidan

o'rganib, savol-javob va turli tortishuvlar natijasida o'rganilgan ma'lumotlar yana-da mustahkamlanadi. Ikkinchidan, o'quvchilar o'z fikrlarini mustaqil va erkin bildira olish ko'nikmasiga hamda aytgan ma'lumotining qanchalik asosli ekanini isbot qilib bera olishni o'rganadilar. Uchinchidan yangi do'stlar orttiradilar.

Aslida, qanday tartibda bilim olishning ahamiyati yo'q. Yolg'iz o'zi bo'lsa ham harakat qilish, albatta, juda yaxshi. Binobarin, ulug' Allomalarimiz ham yangilik yaratishda, egallagan bilimlarini mustahkamlashda yolg'izlikni afzal ko'rganlar. Bunday hollarda fikr yanada charxlanadi. Inson ham ma'nan ham ma'naviy tomondan yuksaladi.

Mening nazarimda, bugungi kun yoshlari uchun guruh bo'lib ishlagan ancha foydali. Sababi, hozirgi zamon o'quvchilari guruhlarda ishlasalar natijalari ancha yuqori ko'rsatkich berganligi pedagog-olimlar tomondan isbotlangan. Bugungi texnika rivojlangan davrda o'quvchi-yoshlarni ilm olishga qiziqtirish uchun ustozlarga ulkan ma'suliyat yuklanmoqda. Bu borada o'qituvchilar yana-da mahoratini oshirishlariga yordam beradigan hamma choralar ko'rilmogda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qanday usulda bo'lsa-da har bir shaxs doimiy izlanishda bo'lib o'z ustida ishlashi kerak, zero "Beshikdan to qabrgacha ilm izla", - deb hadisi sharifda bejiz keltirilmagan. Binobarin, Oллоh yaratgan mavjudodlarning onglisi va oliysi insondir.

37. Guruh bo'lib o'qigan yaxshimi yoki yolg'iz shug'ullangan afzalmi?

Barchamizga ma'lumki, shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ta'lim sohasiga ko'proq e'tibor qaratilgani bois ko'pchilik yoshlarimizning ilm olishiga qiziqishi oshmoqda. Jamiyatimizdagi ayrim ilg'or fikrli shaxslar jamoa bo'lib o'qishni afzal deb bilishsa, ayrim insonlar bu fikrga qo'shilmagan holda yolg'iz o'zi dars qilishini ustun deb hisoblashadi. Xo'sh, aqlan va ruhan yuksalish uchun guruh bo'lib o'rganish yaxshimi yoki yakka o'zi o'qiganmi?

Bir tomondan olib qaralganda, guruh bo'lib izlanishning ijobiy taraflari bisyor. Birinchidan, agar kimdir qiyinroq mavzuni tushunmagan bo'lsa, boshqalar bilan muhokama qilish orqali uni osonroq tushunishi va yangi bilimlarni tezroq o'zlashtirish imkonini beradi. "Birlikda ish bitar, el bilan to'y o'tar", - deb aytishganidek, guruh a'zolari bir-biriga yordam berishi va o'quv jarayonida paydo bo'ladigan savollarga osonroq javob topishi mumkin. Ikkinchidan, jamoa bo'lib o'qishda boshqalardan ortda qolmaslik uchun harakat qilishi tabiiy hol bo'lib, natijada muvaffaqiyatga erishish ehtimoli oshadi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, jamoaviy o'rganish individual o'rganishga qaraganda bilim olish natijalari 20-30%ga yaxshilanishi aniqlangan.

Boshqa tomondan qaraydigan bo'lsak, yolg'iz shug'ullanishni afzal ko'ruvchilarning fikrlari ham o'rinlidir. Buning eng asosiy sabablaridan biri shuki, yakka o'zi o'rganayotganda hech kim chalg'itmaydi va to'liq diqqatni topshiriq va mavzuga qaratish mumkin. Ikkinchidan, yolg'iz ishlash mas'uliyatni rivojlantirishga yordam beradi, ya'ni o'quvchi o'z bilimlariga ishonadi va murakkab vazifalarni o'zi mustaqil hal qilishni o'rganadi. "Har kim o'z baxtining me'mori", - deganlaridek, har bir inson o'zi o'qib-o'rganib, muvaffaqiyatga erishishi kerak.

Mening fikrimcha, individual o'rgandan ko'ra kooperativ ta'lim ancha foydaliroq. Chunki guruhda o'qish nafaqat bilim olishga, balki jamoada ishlash, muloqot qilish va boshqalar bilan kelishish ko'nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi. Yolg'iz o'qish davomida biror mavzuni noto'g'ri tushunish ehtimoli yuqori, guruh bo'lib ishlasa, bunday tushunmovchiliklarni bartaraf qilish mumkin bo'ladi.

Muxtasar qilib aytganda, qay holda bilim olish o'quvchining xohishiga, o'rganish holatiga chambarchas bog'liqdir. Ikkala o'rganish usulida ham o'quvchi o'zi uchun ma'lum darajada ma'lumotlar, bilimlar va ko'nikmalarni olishi mumkin.

38. Bugungi kunda ko'pchilik ota-onalar farzandlarining kasb tanlashida jiddiy qarshilik qilib, farzandlari istagan kasb- hunarga emas, balki ota-onalar farzandlari qiziqmasa-da o'zlarining sohalarini yoki boshqa orzu-havasidagi kasbni tanlashga majburlashadi.

Barchamizga ma'lumki, kasb tanlash har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri hisoblanadi. Shu sababli farzandlarining qaysi soha vakili bo'lishi ota-onalarni ham befarq qoldirmaydi. Biroq aksariyat ota-onalar bolalarining xohishiga qarshi chiqib, ularni o'zlarining kasbini tanlashga yoki orzu-havaslaridagi faoliyat turini egallashga undashadi. Xo'sh, kattalarning bunday yo'l tutishi qanchalik to'g'ri yoki xato?

Bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodning jamiyatda o'z o'rnini topa bilishida kattalarning roli beqiyosdir. Buni chuqur anglagan ota-onalarimiz bolalarini o'z hayot tajribasi hamda orzu-istaklariga ko'ra kasb tanlashga da'vat etishadi. Ba'zi hollarda ularning bunday yo'l tutishi kutilgan natijani berishi mumkin. Chunki matematikani tushunmay turib iqtisodchi bo'lishni, adabiyotni o'qimasdan yozuvchilikni orzu qiladigan yoshlarimiz oramizda talaygina. Ular uchun o'zi tanlagan yo'ldan ko'ra ota-ona istagiga bo'ysunish yaxshiroqdir.

Biroq tanganing ikkinchi tomoni bo'lganidek, ota-onaning farzand qiziqishi-yu iqtidorini hisobga olmasdan o'zboshimchalik bilan ish tutishi har doim ham yaxshi samara bermasligi mumkin. Inson majburiyat ostida qaysidir kasb-hunarni o'rgangani bilan agar unda ishtiyoq bo'lmasa baribir ko'zlagan natijasiga erisholmaydi. Chunki kishi o'zi mehnat qilayotgan sohasini chin ko'ngildan sevmas ekan undan malakali mutaxassis chiqishi qiyin. Masalan, opamning bugungi ish faoliyati bunga yorqin dalildir. Opam kattalar so'ziga kirib garchi bir necha yildan beri maktabda ishlayotganiga qaramay, bu sohaga qiziqishi yo'qligi sababli hali hamon yaxshi o'qituvchi bo'la olganicha yoq.

Mening fikrimcha, ota-ona farzandining kasb-hunar tanlash borasidagi fikrini hurmat qilishi kerak. Kasb — bu faqat daromad manbayi emas, balki umrning asosiy qismi sarflanadigan faoliyat turi hamdir. Kattalar buni keng mushohada qilib, yosh avlodning orzu-niyatlariga quloq tutsa ularning kelajagi uchun yaxshi bo'lardi. Zero, Bill Geyts aytganidek: "Inson o'zi sevgan ishda ishlamaydi, balki yashaydi".

Xulosa qilib aytganda, ota-onalar farzandlarini qaysidir faoliyat turiga yo'naltirayotganda shoshmasdan, o'ylab ish ko'rishi maqsadga muvofiqdir. "Maslahatli to'n tor kelmas",— deganlaridek bolaning

ishtiyoqidan kelib chiqib unga tavsiyalar berilsa har ikki tomon uchun ham manfaatli bo'ladi.

39.Elektromobillarning afzalliklari nimada?

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda yer kurrasi bòylab atrof-muhitni asrash, tabiatni qutqarish dolzarb muammolardan biri bòlib qolmoqda. Sayyoramizning kelajagi haqida qayg'urayotganlar kòpayib bormoqda va bu yòlda turli ixtirolar qilishmoqda. Xòsh, hozirda chiqarilayotgan elektr mashinalarining qanday foydali va salbiy tomonlari bor?

Darhaqiqat, hozirgi kunda yashil sayyoramizning ekalogik holati buzilib bormoqda. Bu hodisa avtomobilning chiqindi gazlari orqali sodir bòladi. Atrof- muhitning yomonlashuvi va tabiatga tahdid- bu sanotning asosi bòlgan benzinning yonishi oqibatidir. Jamiyatimizda ròy berayotgan bunday talofatlarning oldini olish maqsadida olim va mutaxassislar kelajak avtomobillari - elektromobillarni ishlab chiqarmoqda. Elektromobil - bu elektr batariyasi bilan ishlaydigan avtomobil. Unga benzin, gaz quyishingiz shart emas. Kelajak avtomobillari daslab Osiyo, Yevropava AQSHning ba'zi mamlakatlarida tarqaldi va hozirga kelib keng qamrovli ravishda foydalanilmoqda. Xitoy esa bu kabi avtomobillar eksportida yetakchi òrinni egallaydi. Bu mashinaning asosiy afzalligi shubhasiz uning ekalogik tozaligidir. U benzin yoqmaydi, atmosferaga tonnalab xavfli modda chiqarilishini oldini oladi. Bundan tashqari haydash vaqtida shovqin va yoqimsiz hid bòlmaydi.

„Har yaxshining - bir yomoni bor" deganday bu kabi mashinalar ham mutloq zararsiz deb ayto olmaymiz. Birinchidan, ular uchun asosiy quvvat manbai bòlgan batariyalarning ishlab chiqarilishida qanchalab elektr stansiyalari faoliyat olib borishadi va kòplab zararli moddalar atmosferaga tarqaladi. Ikkinchidan, ishlatilib bòlingan batareyalarni yòq qilish maqsadida insonlar chiqindiga tashlashadi va bu tuproqni jonsizlantiradi. Uchinchidan, bu turdagi mashinalarda uzoq yòlga chiqib

bòlmaydi. Òrganilgan statestik tadqiqotlarga kòra avtomobil sakkiz soat davomidan harakatlana oladi. Batareyalarning har qanday paytda tòla bòlib turishi ham muammoli holat. Tòrtinchidan, bu avtomobil rusumi narxining qimmatligi ham asosiy muammolaridan biridir.

Mening fikrimcha, kelajak avtomobillarining afzalliklari kòproq. Yurtimizda ham keng tarqalishiga harakat qilishimiz kerak. Chunki, atrof -muhiid muhofazasi har birimiz uchun ahamiyatlidir. Tògri, yuqorida salbiy taraflarini ham sanab òtdik, lekin hozirda olim va tadqiqotchilar bu sohani chuqurroq òrganib, xarajatlarni kamaytirmoqda. Ajabmaski, yaqin yillarda elektromobillar narxlari aholining òrta qatlami uchun ham maqbul bòlib, undan foydalanuvchilar soni ham kòpayaversa.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, har birimiz zamon bilan hamnafas bòlgan holda tejamkor texnikalarga òrganishimiz kerak. Elektr mashinalarining yaroqsiz bòlib qolgan batariyalarini ham qayta ishlashni yòlga qòysak, nur ustiga, a'lo nur bòladi.

40.Turistlarning yurtimizga tashrifi buyurishi jamiyatimizga qanday ta'sir qiladi?

Barchamizga ayonki, globallashuv zamonida insonlar turli xil manzillarga tashrif buyurishni, yangiliklar yaratishni, oldin bormagan mamlakatlarga sayohat qilishni xohlashladi. Bugungi kunda yurtimizda sayyohlar oqimi keskin oshayotgani hammamizga ma'lum. Xo'sh, jahongashta sarguzasht izlovchilarning davlatimizga qanday nafi tegadi?

Darhaqiqat, inson qonida ajoyibotlarga tashnalik hamisha mavjud bo'lgan, shuning uchun ular doimo qayerlargadir borgisi, ko'rmagan narsalarini ushlab ko'rgisi kelaveradi. Statistika ma'lumotlariga qaraganda, har yili dunyo bo'ylab millionlab odamlar sayohat qilish maqsadida o'zga mamlakatlarga o'tlanishadi. Shuningdek, yurtimizga ham deyarli har kuni minglab xorijliklar tarixiy obidalarimiz bo'lgan Samarqand, Buxoro, Xiva kabi manzilhozlarni ko'rish uchun yetib kelishadi. Bunday tashriflarning

eng foydali jihatlaridan biri shuki, turizm sohasining rivojlanishi mamlakatga katta daromad keltiradi, chunki chet elliklar o'zlari bilan qimmatbaho valyutalarini ham olib kelishadi. Ikkinchidan, o'zga millat vakillari o'z urf-odatlarini, an'analari va yashash tarzini ham yurtidoshlarimizga namoyish qilishadi, natijada qadriyatlar uyg'unlashuvi yuzaga keladi, bu esa xalqlarni birlashtiruvchi omildir.

Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib shuni ayta olamanki, hozirda ko'p millatli kompaniyalar, ya'ni KMK lar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ular mamlakatimizga tashrif buyurgan insonlar bilan muloqot qilish orqali sayyohlarga nima kerakligi bilishadi va kerakli choralarni qo'llashadi. Keyingi o'rinda mehmonxona, maishiy xizmat ko'rsatish, milliy hunarmandchilik sohasida faoliyat yuritayotgan hamyurtlarimiz o'z mahsulotlarini dunyo bozoriga olib chiqish imkoniga ega bo'lishadi. Negaki aynan milliyligimiz aks etgan manzillar turistlarni o'ziga jalb qilmay qolmaydi.

Har yaxshining bir yomoni bo'lganidek, o'zga millat vakillari ayrim hollarda madaniy resurslarimizga ziyon yetkazishi mumkin. Chunki tarixiy inshootlarga odamlarning tinimsiz kelib turishi binolar infrostrukturasiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Ba'zi hollarda turistlarning milliy qadriyatlarimizni yaxshi tushunmasligi oqibatida turli xil ko'ngilsiz hodisalar ham uchray turadi. Yana shuni aytish joizki, ular o'zlari bilan G'arb kiyinish uslubi, gapirish madaniyatini ham olib kelishadi. Ayniqsa, yosh avlodda ularga taqlid qilish holatlari uchray turadi.

Umuman olganda, sayohat inson dunyoqarashini o'stiradigan, emotsional ta'siri kuchli bo'lgan, insonga estetik zavq bag'ishlaydigan vositadir. Turizm nafaqat moliyaviy jihatdan, balki madaniy, tarbiyaviy tomondan ham yurtimizga ko'plab foyda keltiradi. Shuning uchun mamlakatimiz tarixini butun dunyoga namoyish qilish orqali sayyohlarini ko'proq jalb qilish maqsadga muvofiq bo'lardi.

41.Kambagallikni qisqartirishda fuqarolar uchun nimalar qilinishi kerak?

Barchamizga ma'lumki, yurtimizda aholi soni kundan kunga ortib bormoqda. Albatta, shunga yarasha insonlarning ehtiyoji ham oshmoqda. Har bir inson orzu-niyatlar qiladi, ularni amalga oshirish yollarini izlaydi. Ammo hamma ham buning uddasidan chiqib olmaydi. Moddiy tomondan yetishmovchilik ayrim insonlarni ruhan ezib

qoyadi.Xosh, bu holatga qanday chora korish mumkin?Aholi orasida kambagallikni qisqartirish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

Darhaqiqat,har bir davlat oz xalqining yashash tarzi yaxshilanishi uchun imkoniyatlar yaratadi.Kambagallikni qisqartirishda,birinchidan,yangi ish orinlari yaratilishi lozim.Buning uchun korxonalar va ishlab chiqarish sexlarini barpo etish kerak.Ikkinchidan, aholini zamonaviy kasb-hunarga orgatish, deb hisoblayman.Uchinchidan,ularning iqtisodiy va moliyaviy savodxonligini oshirish darkor.Tortinchidan,cheikka qishloqlardagi aholining hayotini chuqurroq organish zarur.

Yuqoridagilarga qoshimcha qilib shuni aytmoqchimanki,ish orinlarini zaxiralash orniga ehtiyojmand kishilarni ishga olgan tadbirkorlarga soliq imtiyozlari berilishi kerak.Shuningdek,oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratish lozim.Chunki ushbu tadbirkorlik butun oilani ish bilan ta'minlaydi.Statistik ma'lumotlarga qaraganda,yurtimizda kambagallikka qarshi kurash boyicha 700 million dollarlik dasturlarni amalga oshirish kozda tutilgan.

Mening fikrimcha,,Yurardan avval yol axtar" deganlaridek,oz biznesini tashkil etgan tadbirkorlar ham katta-katta xarajatlar qilib ozi uchun mutaxassis tayyorlashi kerak.Yurtimizda faoliyat yuritayotgan kasb-hunar maktablari , kollej va texnikumlarda malakali mutaxassislar tayyorlashda,ularning potensialini oshirish boyicha chora-tadbirlar korish maqsadga muvofiq bolar edi.Togri, har yaxshining bir yomoni boladi.Ayrim toifa insonlar jismonan soglom bolsa ham, „bersang yeyman" qabilida ish tutmoqda. „Ayollar daftari"ga a'zo bolish uchun qonun doirasidan tashqarida ish tutishga harakat qilayotgan shaxslar fikrimning dalilidir.

Xulosa qilib aytadigan bolsam, mehnatkash va harakatchan inson hech qachon kambagal bolmaydi.Har bir inson kuchi boricha,imkoniyati yetganicha halol mehnat qilib rozgorini tebratganiga yetmaydi.Hukumat yaratgan sharoitlardan oqilona foydalana olish kerak.Aholining kambagal bolishi nafaqat davlatga, balki shu yerda yashayotgan insonlarga ham bogliqdir.

42.Kambag'allikni qisqartirish uchun hukumat fuqarolari uchun nimalar qilishi kerak?

Barchamizga ma'lumki,hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda kambağallik ko'plab mamlakatlar uchun dolzarb masalalaridan biri bo'lib,uni qisqartirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlar har bir hukumatning ustuvor vazifasi hisoblanadi.Fuqarolar hayot darajasini oshirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash uchun hukumatning roli muhimdir.Xósh,qashshoqlikni kamaytirish maqsadida hukumat qanday tadbirlarni amalga oshirishi kerak?

Darhaqiqat, kambag'allikka qarshi kurashda ta'lim tizimini rivojlantirish katta ahamiyatga ega.Negaki ta'lim insonning kelajagini belgilovchi asosiy omildir.Hukumat bepul yoki arzon ta'lim imkoniyatlarini yaratishi,yosh avlodni kasbiy ta'lim va malakaga yo'naltirishi orqali ularning kelajakdagi mehnat bozoriga raqobatdosh bo'lishiga yordam berishi mumkin.Shuningdek,fuqarolarning bandligi va daromad manbalarini oshirish maqsadida ish órinlari yaratish va kichik biznesni rivojlantirishga ko'maklashish kerak.Buni qilish natijasida fuqarolar óz-ózin ta'minlab,oilalarini moddiy jihatdan yaxshiroq ta'minlay oladilar.

Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib shuni ayta olamizki,soğliqni saqlash xizmatlariga keng imkoniyat yaratish ham muhim ahamiyatga ega.Chunki odamlar soğlim bo'lgandagina samarali ishlashi mumkin.Shu sababli,hukumat kambag'al odamlar uchun bepul yoki arzon tibbiy xizmatlarni taqdim etishi,ularni kasalliklardan himoya qilishi va davolashga yordam berishi kerak.Yana qo'shimcha tadbirlardan biri,hukumat kam ta'minlangan oilalar uchun ijtimoiy himoya tizimlarini kuchaytirish va ularga moliyaviy yordam ko'rsatishi kerak.Bu usul,albatta,samarali foyda beradi.

Mening fikrimcha,hukumat odamlari kambag'allikni qisqartirish borasidagi ijobiy tomonlari ko'proq.Shu órinda Muhammad Yusufning:"Kambag'allik shunchaki iqtisodiy masala emas,bu-ijtimoiy

adolat masalasi. Hukumat odamlarning imkoniyatlarini kengaytirishi va ularning mehnat qilish imkoniyatlarini yaxshilashi kerak", - degan fikrning qanchalar to'g'ri ekanligiga amin bo'lamiz. To'g'ri, har yaxshining yomoni bor. Hukumat tomonidan kambag'allikka qarshi kurashish uchun ajratilgan moliyaviy resurslar davlat byudjetiga katta yuk bo'lishi mumkin. Bu esa davlat qarzining oshishiga olib keladi.

Umuman olganda, davlatimizda kambag'allikni qisqartirish borasida faqat hukumat odamlari o'ylashi kerakmas, ya'ni ehson qilishga mablag'i yetadigan insonlar ham o'z yordamini ayamasi kerak. Hamma birgalikda bunga qarshi kurashsa, yaqin yillarda bu muammo bizning mamlakatimizda butunlay yo'q bo'ladi.

44. Sanoatning rivojlanishi tabiatga qanchalik zararli?

Barchamizga ma'lumki, bugungi tezkor ildamlayotgan zamonda ishlab chiqarish korxonalarining atrof-muhitga qanchalik salbiy ta'sir ko'rsatayotgani butun dunyoni o'ylantirayotgan asosiy muammolardan biridir. Sanoat korxonalari bizni o'rab turgan olamga qanchalik jarohat yetkazishi hammaga kundek ravshan. Aslida bunday muassalar davlat va jamiyat uchun qanchalik ahamiyatli?

Darhaqiqat, Yer yuzida insonlar soni ortgani sari ular iste'mol qiladigan mahsulotlar, kiyim-kechaklar, yashash joylari uchun talab ham shunga yarasha oshmoqda. Natijada ishlab chiqarish korxonalari talab darajasida o'z faoliyatlarini olib borishmoqda. Afsuski, bunday korxonalar faoliyati tabiatga, ayniqsa, atmosferaga jiddiy zarar yetkazishi turgan gap. Buning eng asosiy sabablaridan biri shuki, sanoat korxonalardan chiqayotgan zaharli tugunlar havoni bulg'ab, inson hayoti uchun ziyon keltiradi. Ikkinchidan, sanoat faoliyati asosan energiya iste'moliga bog'liq bo'lgani uchun karbonat angidrid va boshqa issiqxona gazlarining chiqarilishi global iqlim o'zgarishiga olib keladi. Bu jarayon yerda haroratning ortishiga, havzalarning o'zgarishiga va tabiiy ofatlar sonining ko'payishiga sabab bo'ladi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib shuni ayta olamanki, sanoat rivojlanishi tabiiy yashash joylarini yo'q qilishi yoki o'zgartirishi, shuningdek, tabiiy resurslarni haddan tashqari iste'mol qilish orqali biologik xilma-xillikni kamaytirishi mumkin. Bu ko'plab navlarning yo'qolishiga olib

kelmoqda. Shuningdek, ishlab chiqarish jadallashganida, tabiiy resurslar, masalan, mineral va energetik manbalar, ortiqcha iste'mol qilinadi. Bu jarayonlar natijasida ba'zi resurslar tugaydi yoki qiyinlashadi. "Turib yeganga tog' ham chidamaydi", – degan maqol juda o'rinlidir. Tabiatga achinmasdan, ko'r-ko'rona yer osti boyliklarimizdan foydalanish oqibatida yaqin kelajakda katta muammolarga yuzlanishimiz tabiiy.

Mening fikrimcha, ortiqcha zararli chiqindilar, gazlar, qayta ishlab bo'lmaydigan mahsulotlar sonining ortishi insoniyat tamadduniga o'rilgan bolta bo'ladi. Sanoat faoliyati natijasida olib kelinayotgan ifloslantiruvchi moddalar suv manbalarini zararli ta'sir qiladi. Shuningdek, sanoat chiqindilari tuproq sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu jarayonlar nafaqat flora va fauna uchun, balki aholi uchun ham ziyon.

Negaki ba'zida ijtimoiy muammolarga, masalan, aholini ko'chirish, ish joylarining yo'qolishi yoki zararli ishlab chiqarish sharoitlariga olib kelishi mumkin. To'g'ri, bunday muassasalar faoliyatining ijobiy ta'sirlari yo'q deb aytolmaymiz. Chunonchi, mahsulotlar xilma-xilligi, bir-birini takrorlamaydigan kiyim-kechaklar ishlab chiqarilishi yashash tarzimizni yaxshilamay qolmaydi. Biroq tabiatni arsamasa, u, albatta, o'z qazosini oladi.

Umuman olganda, ko'plab mamlakatlar va kompaniyalar barqaror rivojlanish va ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilayotganini ta'kidlaydilar. Bu sanoatning tabiatga zararini kamaytirishga va ekologik muammolarni hal qilishga yordam berishi mumkin. Sanoatning rivojlanishi bilan birga atrof-muhitni himoya qilishni muhim ravishda e'tiborga olish zarur.

45. Bolani erta maktabga berishning ijobiy va salbiy jihatlari qanday?

Barchamizga ayonki, shiddatli rivojlanish bo'layotgan hozirgi davrda insonlar hamma narsani tezroq bo'lishini istashmoqda. Ayrim ota-onalar o'z jigargo'shalarini erta yoshdan tezroq ilmi bo'lishi uchun harakat qilayotganliklari hech kimga sir emas. Ammo bolani erta yoshdan maktabga berish qanchalik to'g'ri? Ilm dargohiga erta qadam qo'ygan bolada qanday ijobiy va salbiy ta'sirlarni kuzatish mumkin?

Bir tomondan olib qarasak, erta maktabga borishning ijobiy tomonlari talaygina. Birinchidan, ertaroq o'qish va yozishni o'rganadi. Tengdoshlaridan oldin dunyoni anglashni

boshlaydi.Ikkinchidan,mustaqil hayotga barvaqt tayyorlanadi.Bu oliygohlarni tugatib ish bilan ham ta'minlanishini tezlashtiradi.Uchinchidan,5-6 yoshli bolada miya rivojlanishi kuchli bo'lar ekan.Bu esa o'z navbatida ma'lumotlarni xotirasida yaxshiroq o'rnashib qolishiga yordam beradi.

Ikkinchi tomondan olib qaralganda,erta maktabga berishning salbiy jihatlari ham anchagina.Eng avvalo,bola o'yinlardan,baxtli bolaligidan barvaqt ayriladi.Ota-onaning qistovi bilan dars qiladi.Keyingi o'rinda , hamma bola ham o'zidan katta yoshdagi bolalar bilan chiqisha olmaydi.Bu esa uning atrofdagilar bilan muloqot qilishida qiyinchilik paydo qiladi.Do'stlari bilan chiqisha olmaslik bolani jizzaki,asabiy bo'lishiga zamin yaratadi.

Mening fikrimcha,bolani erta maktabga berishning salbiy tomonlari ko'proq.6 yosh bo'lgan bolalarda nutq buzilishi,diqqatni jamlamaslik kabilar kuzatiladi.Maktabga moslashmaslik oqibatida bolada tajanglik va ilm dargohidan zerikish ham paydo bo'ladi.Natijada sog'ligi yomonlashishi,bilim olishiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin.

Umuman olganda,qaysi yoshda ta'lim olishidan qat'iy nazar bolani ota-ona doimo nazorat qilishi lozim.Yosh bola yozilmagan oq qog'ozga o'xshaydi.Maktab bolaning jamiyatdagi ilk qadami hisoblanadi.Shuning uchun ham bu davr farzandimiz xotirasida salbiy iz qoldirmasligiga harakat qilishimiz kerak.

46.Bugungi kunda gazeta va jurnallarni bosmadan chiqarilmay qoyishi va elektron shaklga kochishining ijobiy va salbiy jihatlari qanday?

Barchamizga ayonki,hozirgi globallashuv bolayotgan bir davrda insoniyat hayotida ma'lumotlar va yangiliklar haddan ziyod . Internet tarmogining rivojlanishi har bir shaxsning hayotida muhim orin tutmoqda.Avvallari gazeta va jurnallar uchun obuna bolish,ularning tashkilot va xonadonlarga vaqtida yetkazilishi ta'minlangan edi.Hozirgi davrda esa gazeta va jurnallarning elektron shaklga kochganligi hech kimga sir emas.Xosh,gazeta va jurnallarning bosmadan chiqarilmay,balki elektron shaklda berilayotganining qanday ijobiy va salbiy tomonlari mavjud?

Bir tomondan olib qaralganda,elektron shakldagi gazeta va jurnallarning borligi ham yaxshi.Birinchidan,tanlash imkoniyati ko'proq.Ya'ni xohlagan vaqtda,kerakli gazeta yoki jurnalni mutolaa qilish mumkin.Ikkinchidan,internet tarmogidan kengroq foydalana olish.Kerakli saytlardan qidirib ma'lumotlar toplash.Uchinchidan,qogozbozlikning kamligi.Zarurligi uchun yillar davomida gazeta va jurnallarning xonadonlarda joy egallashi.

Tanganing ikkinchi tomoni bolganidek,gazeta va jurnallarni elektron shaklga kochishining salbiy tomonlari ham yoq emas.Eng avvalo, ular qariyalar uchun noqulayliklar keltirib chiqaradi.Chunki juda ko'p yoshi katta insonlar gazeta va jurnallarni oqishadi,ammo ularning hammasi ham internet tarmogidan foydalana olmaydi.Keyingi orinda ko'pchilik insonlarda kompyuter,telefonlar ishlatish jarayonida turli ko'z kasalliklariga duchor bolish hollari kuzatilmoqda.

Mening fikrimcha,har bir inson qaysi shaklda bolmasin gazeta va jurnallarni oqib turishi maqsadga muvofiqdir.Chunki odamzod yashar ekan,doimo axborot almashib turadi.Hozirgi davrda axborot olish yollari ko'pligi bois ayrim shaxslar gazeta va jurnallarga e'tiborsiz bolib qolishdi.Natijada talab kamligi uchun ham bosmaxonalar ishi elektron shaklga otdi. Bu, albatta, oz navbatida ishchi orinlarining qisqarishiga olib keldi.

„Gapning hissasi yaxshi,yolning-qisqasi“,–deganlaridek,har bir shaxs ozi uchun axborot olishda chegaralanmasligi lozim. Internet rivojlanayotgan hozirgi davrda axborotni aniq,ishonarli tarzda berish gazeta va jurnallarning nufuzini yanada oshiradi.Buning uchun esa izlanuvchan,malakali xodimlarning faoliyati zarur, deb o'ylayman.

47.Inson muvaffaqiyatga erishish uchun iste'dod kerakmi yoki qattiq mehnat?

Barchamizga ma'lumki, shiddat bilan rivojlanayotgan davrda muvaffaqiyatga erishish inson hayotidagi asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Bunga erishish yo'lida har kim o'ziga xos usullarni tanlaydi. Ko'pchilik iste'dod muvaffaqiyat kaliti deb bilsa, boshqalar qattiq mehnat

hammasidan ustun ekanini ta'kidlaydi. Xósh, muvaffaqiyatga erishish uchun qaysi yól ma'qul?

Bir tomondan olib qaralganda, iste'dod insonning tug'ma qobiliyatlaridan kelib chiqadi. Negaki iste'dodli shaxslar o'z sohalarida boshqalarga qaraganda tezroq va samaraliroq yutuqlarga erishish imkoniga ega bo'ladilar. Masalan, buyuk san'atkorlar yoki sportchilar ko'pincha tug'ma qobiliyatlari tufayli ajralib turadilar. "Iste'dod oltin, mehnat uni porlatadi", - degan maqol aynan shuni tasdiqlaydi. Iste'dod muvaffaqiyatga tezroq olib kelishi mumkin, lekin u faqat mehnat bilan boyitilgandagina to'la samara beradi.

Boshqa tomondan olib qaralganda, qattiq mehnat insonning istagan maqsadga yetishishidagi eng muhim vositalardan biridir. Buning eng asosiy sabablaridan biri shuki, mehnatkash insonlar o'z vaqtlarini va kuchlarini sarflab, o'z tajribalarini oshiradilar va natijada muvaffaqiyat sari yo'l ochadilar. Maqollardan biri aytadi: "Mehnat - eng yaxshi usta." Qattiq mehnat orqali insonlar o'z imkoniyatlarini kengaytiradi, iste'dodsiz ham katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

Mening nazarimda, muvaffaqiyat uchun qattiq mehnat bilan ishlash ancha foydaliroq. Shu órinda, mehnat qilish jarayonida sabr va qat'iyat zafarlar uchun muhimdir, chunki har qanday kasbda qiyinchiliklar bo'lishi mumkin. Bekorga xalqimiz: "Sabrning tagi sariq oltin", - deb aytishmagan. Masalan, iste'dodli bóla turib, lekin mehnat qilib, zahmat tekishni xohlamasa, u inson muvaffaqiyatga erisha olmaydi.

Muxtasar qilib aytganda, muvaffaqiyatga erishish uchun faqat iste'dod yoki faqat qattiq mehnat yetarli emas. Iste'dod, albatta, foydali, lekin mehnat qilish va qat'iyat bilan ishlash orqali o'z imkoniyatlarini kengaytirish va muvaffaqiyatga erishish imkonini oshirish mumkindir. Har bir inson o'z iste'dodini rivojlantirish uchun mehnat qilish va o'z maqsadlariga erishish uchun harakat qilishi kerak.

48.Inson muvaffaqiyatga erishishi uchun iste'dod kerakmi yoki qattiq mehnatmi?

Barchamizga ma'lumki, har bir inson bu yorug' dunyoda muvaffaqiyatlar egasi bolishni orzu qiladi. Albatta, bunga erishish uchun bor kuchi va aqlini sarf etadi. Muvaffaqiyat garovi tinimsiz mehnat va shubhasiz, iste'dodning ham mavjudligidir. Ba'zi hollarda inson iste'dodi borligi uchun ishlari yurishib ketsa, ayrim vaziyatlarda esa faqatgina qattiq mehnat orqali muvaffaqiyatga erishganini ta'kidlaydi. Aslida muvaffaqiyatga erishishda nima muhim? Iste'dodmi yoki qattiq mehnatmi?

Darhaqiqat, „iste'dod“ nomli tabiiy qobiliyat hammada ham mavjud emas. Iste'dodli odamlar, birinchidan, o'z yo'nalishida ulkan yutuqlarga erishishi mumkin. Tasviriy san'at, musiqa, sport kabi yo'nalishlarda o'zining qobiliyatini korsata olayotgan yoshlar fikrimning isbotidir. Ikkinchidan, bunday insonlarda oson organish jihatlari bor. Ular yangi ma'lumotlarni oson ozlashtiradilar va bu narsa ularning muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.

Ammo boshqa tomondan olib qaralganda: „Olma pish, ogzimga tush“, – deb otirish ham yaramaydi. Har bir muvaffaqiyatning ortida, albatta, qattiq mehnat ham yoq emas. Eng avvalo, mehnatkash inson o'z mehnat kuchi bilan ham yutuqlarga erisha oladi. Keyingi orinda esa sabr, qat'iyat, mustahkam iroda ham muvaffaqiyatga olib boradi. Qattiq mehnat odamning har tomonlama chiniqishiga yordam beradi.

Mening fikrimcha, muvaffaqiyatga erishishda ham iste'dod, ham qattiq mehnatning hissasi bor. „Tirik bandada tinim yoq“, – deb bejizga aytishmagan. Iste'dod Alloh tomonidan beriladigan bir in'om, qattiq mehnat esa insonning o'ziga bogliq. Shunday ekan, o'z qobiliyatiga ishonib mehnat qilmasa yoki aksincha, iste'dodi yoqligini bahona qilib mehnat qilmasa, albatta, bunday shaxslarni muvaffaqiyat ham chetlab otadi.

Xulosa qilib aytganda, yutuqlarga erishish insonning o'ziga bogliq. Har bir inson iste'dodini rivojlantirish uchun tinimsiz mehnat qilishi

darkor. Mehnat insonni ulug'laydi. Shunday ekan, iste'dodni rivojlantirish ham tinimsiz mehnatga bog'liqdir.

49. Ba'zilar uyga vazifa berilishi shart deb hisoblashsa, boshqalar kerak emas deb ta'kidlashadi

Barchamizga ma'lumki, bugungi tez ildamlayotgan va ilm-fan cho'qqilari zabt etilayotgan bir davrda ota-onalar va o'qituvchilar orasida o'quvchilarga beriladigan topshiriqlar hamda vazifalar dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Jamiyatimizdagi ayrim shaxslar farzandlariga uyda mustaqil bajarishlari uchun beriladigan topshiriqlarni keraksiz deb hisoblaydilar va ustozlardan bunday vazifalarni bermasliklarini talab qiladilar. Xo'sh, bunday qarash o'quvchining maktabda bilimlarni yaxshi o'zlashtirish jarayoniga qanday ta'sir o'tkazadi?

Mening fikrimcha, axborot va yangi bilimlar soniya sayin ortib borayotgan bir pallada maktab o'quvchilarining uyga vazifalarni bajarmasdan vaqtini behuda o'tkazishlari ularning kelajagiga bevosita ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Chunki uyga vazifa o'quvchilarga darsda o'rgangan materialni mustahkamlash imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, bilimlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ikkinchidan, uyga vazifa o'quvchilarga mustaqil ravishda ishlashni o'rgatadi. O'z-o'zini boshqarish, vaqtni rejalashtirish va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. "Yoshlarning bo'sh vaqti- dushmanning ish vaqti",- deb aytishlari bejizga emasligiga amin bo'lamiz. Shuningdek, o'quvchilar vazifalarni bajarishda tahlil qilish, baholash va fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu ko'plab fanlar uchun muhim hisoblanadi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib shuni ayta olamanki, uyga vazifalar orqali ota-onalar farzandlarining o'qish jarayonini kuzatishi va ularga yordam berishi mumkin. Bu oila va maktab o'rtasida aloqani mustahkamlashga yordam beradi. Bundan tashqari, vazifalar o'quvchilarga o'z bilimlariga mas'uliyat bilan qarashni o'rgatadi. Ular o'z maqsadlariga erishish uchun motivatsiya topishadi. Shuningdek, ba'zi vazifalar ijodiy yondashuvni talab qiladi, bu esa o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshiradi, masalan, adabiyot, musiqa, chizmachilik kabi fanlar aynan kreativlikka yo'naltirilgani bo'lib, o'quvchilar individual izlanishlar olib borib ushbu fanlardan berilgan vazifalarni bajarishlari orqali ular taffakur qilish va g'oyalar ustida ishlash ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirishadi.

Boshqa tomondan olib qaraganda, qo'shimcha topshiriqlarning bir qancha salbiy tomonlari ham yo'q emas, albatta. Eng avvalo, o'quv dasturida kamida 6-7 xil fan mujassamlashgan. O'quvchilar darslar jarayonida mustahkamlovchi mashqlarni bajarib mavzuni yetarlicha o'zlashtirganidan keyin ustoz tomonidan berilgan yana aynan shunday tipdagi topshiriqlar ularni zeriktirib qo'yadi. Natijada fanga qiziqishlari so'nishi mumkin. Keyingi o'rinda, telefon yoki kompyuterda bir soniyada bajarishi mumkin bo'lgan grafiklar, chizmalar va matnlarni qo'lda yozib vaqt sarflash bugungi kun yoshlari uchun foydasizdek tuyulishi tabiiy. Biroq bu kabi bir-ikki kamchiliklarini aytmaganda, bolaning mavzu yuzasidan berilgan mashqlarni o'zi mustaqil bajarishi zaruriy progress hisoblanadi. "Takrorlash-bilimlarning onasi",- deb aytilganda aynan mana shu holat nazarda tutilgan.

Umuman olganda, hozirgi shiddatli davrda ustozlar ham o'quvchilarga ortiqcha yuklamalar bermasdan dars jarayonida interfaol metodlar orqali ularni o'qishga rag'batlantirishi va qiziqishini kuchaytirish bilan bolalarning uyda ham shu mavzu yuzasidan izlanishlariga majbur qilish kerak. Chunki har qanday qiziqtirib qo'yilgan mavzu o'quvchida o'zida ko'proq bilimlarni shakllantirishga undashi hammamizga kunday ravshan.

50.Nega yoshlar kattalar hurmat qilmay qo'ygan?

Barchamizga ma'lumki, hozirgi zamonaviylashib borayotgan davrda yosh avlodning kattalarni hurmat qilmasligi asosiy muommolardan biri hisoblanadi. Oila, maktab va jamiyatdagi kattalar yoshlarga hayotiy tajribalari bilan yordam berishiga qaramay, bu hurmatning yo'qligi jamiyatda katta muommoga aylanib bormoqda. Xósh, ushbu muommoning sabablari nimada va qanday choralar ko'rishimiz kerak?

Darhaqiqat, ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy texnologiyalar rivojlanganligi yoshlarga ózgacha ta'sirini o'tkazmoqda. Buning eng birlamchi sabablaridan biri shuki, zamonaviy texnologiyalar va axborot vositalari yoshlar orasida yangi qarashlar va qadriyatlarining paydo

bo'lishiga olib kelmoqda. Bu ba'zida eski qadriyatlarga nisbatan ehtiyotkorlikni kamaytirishi mumkin. Ikkinchidan, yoshlar va kattalar o'rtasidagi muloqot usullari farq qilishi mumkin. Chunki kattalar ko'pincha an'anaviy, hayotiy tajribaga asoslangan fikrlarga egadirlar, yoshlar esa yangilarga ochiq bo'lishi va o'z fikrini erkin ifoda etishni istashadi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib shuni ayta olamanki, maktab va jamiyatda yetarli darajada axloqiy tarbiya berilmasligi ham asosiy sabablardan biridir. Ta'lim muassasalari yoshlarning nafaqat bilim olishi, balki xulq-atvoriga ham rioya qilishini o'rgatishlari kerak, chunki ko'plab yoshlar o'zini hurmat qilish va kattalar bilan bo'lgan munosabatlarda yetarlicha bilimlarga ega emas. Keyingi o'rinda, yoshlar ko'pincha ijtimoiy tarmoqlar bilan vaqt o'tkazadi va kattalar bilan bevosita muloqotga kamroq kirishadi. Bu esa ular orasidagi tafovutlarni kuchaytiradi va kattalarga hurmat kamayishiga olib keladi. Oqibatda yoshlar kattalar fikrlarini e'tiborsiz qoldirishadi.

Mening fikrimcha, ushbu chigal vaziyatning oldini olish uchun, eng avvalo, oiladagi muhitni to'g'irlash kerak. Chunki "Qush uyasida ko'rganini qiladi", - deb aytishganidek, albatta, bolalar ham oilada ko'rgan muhitni boshqalarga qilishga harakat qiladi, shuning uchun ham oila a'zolarining bir-birini hurmat qilishlarini bolaga ko'rsatish kerak. Ikkinchidan, yoshlarni texnologiyadan to'g'ri foydalanishga va ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy me'yorlarga rioya qilishga o'rgatish muhimdir. Uchinchidan, maktab va ta'lim muassasalarida tarbiyani kuchaytirish darkor.

Xulosa qilib shuni ayta olamanki, oiladagi muhitni yaxshilash, ta'limda bolalarga e'tibor qaratish va ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanish jamiyatimizdagi bunday noxushliklar kam sodir bo'lishiga olib kelar edi. Zero bolalarga to'g'ri yo'lni ko'rsatsak, bu, albatta, ham jamiyatimizga, ham bolaning oila a'zolariga foydalidir.

51. Ba'zilar zamonaviy meditsina tarafdori bo'lsa, boshqalar xalq taboabatini tanlashadi

Barchamizga ma'lumki, bugungi tez ildamlayotgan zamonda har bir inson uchun salomatligi eng yuqori o'rinda turadi. Turli texnika va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bu davrda tibbiyot sohasida ham anchagina yangiliklar paydo bo'lmoqda. Jamiyatimizdagi ayrim ilg'or fikrli shaxslar o'z hayotini faqat shifokorlarga, o'z kasbining ustalariga, ishonib topshirishadi, boshqa toifa vakillari esa shifobaxsh giyohlar vositasida davolanishni afzal ko'rishadi. Xo'sh, qay bir usul bemor tezroq oyoqqa turishida, sog'lom hayotini davom ettirishda ko'proq samaraliroq?

Bir tomondan olib qaraganda, yuqori aniqlikka asoslangan texnikalar va dori vositalari yordamida davolovchi meditsinani ustun ko'ruvchilarning fikri anchagina asosli. Eng avvalo, zamonaviy meditsina ilmiy tadqiqotlar va klinik sinovlarga asoslangan bo'lib, kasalliklarni aniqlash va davolashda aniq va samarali usullarni taklif etadi. "Sinamagan otning sirtidan o'tma",-deb aytilgan hikmat aynan mana shuning uchun. Ikkinchidan, zamonaviy uskunalar va texnologiyalar, masalan, MRT, rentgen va laboratoriya tahlillari, kasalliklarni tez va to'g'ri aniqlash imkonini beradi. Shuning uchun qimmatli boyligimiz bo'lmish sog'ligimizni salomatlik posbonlariga ishonib topshirgan afzal.

Boshqa tomondan olib qaraganda, tabiiy dori vositalari, giyohlari va ona tabiat qo'ynida shifo topishning ustun taraflari ham anchagina. Masalan, xalq tabobati ko'pincha tabiiy ingredientlar va usullardan foydalanadi, bu esa ko'plab odamlar uchun qiziqarli va xavfsizroq ko'rinishi mumkin. Chunki salomatligimiz eng katta boylikdir. Ikkinchidan, xalq tabobati ko'plab madaniyatlar va an'analarga asoslangan bo'lib, ularni saqlab qolish va o'rganish imkonini beradi. Ibn Sinodan meros qolgan "Tib qonunlari" asari ham aynan tabiiy vositalar bilan davolashga undaydi. "Tabiatning o'zi eng yaxshi tabibdir",- deb bekorga aytishmagan.

Mening fikrimcha, inson o'z hayotini ilmiy asoslangan, sinovlardan o'tgan va samara beradigan zamonaviy tibbiyotga ishonib topshirgani ma'qul. Negaki kasalxonalarda har xil sohalarda mutaxassislar mavjud, bu esa bemorlar uchun individual yondashuvni ta'minlaydi. Ko'z kasalliklarini alohida shifokor, ichki organizmlar bilan boshqa mutaxassis shug'ullanadi. Bu bemorning kasalligiga tez va to'g'ri tashxis qo'yilishini ta'minlaydi. Shuningdek, bugungi kunda onlayn shifokorlar maslahatidan ham bemalol foydalanishimiz mumkin. To'g'ri, xalq tabobati ko'pincha sog'liqni saqlashga e'tibor qaratadi, bu esa kasalliklarning oldini olishga

yordam beradi. Biroq jiddiy kasalliklarni oddiy giyohlar yordamida samarali davolash mushkul masaladir.

Umuman olganda, inson o'z turmush tarziga, yashash sharoitiga bee'tibor bo'lmasligi lozim. " Kasalni davolangandan ko'ra uning oldini olgan afzal",- degan hikmat juda to'g'ri. Shuning uchun sog'lom turmush tarziga har bir shaxs amal qilgani yaxshi natija beradi.

52.Jamiyatimizda kambag'allar sonining ortib borishining sababi nimada? Qanday choralar ko'rish kerak?

Barchamizga ma'lumki, bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan mamlakatimizda bir qator islohotlar, yangidan yangi o'zlarishlar, aholini ma'naviy va moddiy kambag'allikdan olib chiqishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda,lekin shunga qaramay jamiyatimizda kambag'allarning soni hanuz ko'payib bormoqda . Xosh, bunga sabab nimada va ushbu hodisalarga barham berish uchun hukumatimiz yana qanday choralar ko'rish kerak?

Darhaqiqat, bugungi kunda diyorimizda kambag'allikni bartaraf etishga qaratilgan bir qator choralar ko'rilayotganligiga qaramay aholi orasida kam daromadli va kambag'al oilalar ko'paygandan ko'payib bormoqda. Bunga asosiy sabab shuki, ish o'rinlarining yetishmasligi yoki past maoshli ish o'rinlariga egalik ham kambag'allikni kuchaytiradi. Bugungi kunda ishsizlik va kam oylik to'lanishi vajidan chet davlatlarga hamyurtlarimizning"oqib ketayotgani"ham bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Ikkinchidan, inflatsiya ya'ni narxlarning oshishi , ayniqsa asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining narxlarini sun'iy tarzda oshirilishi o'rta qatlamning kambag'allashishiga, kambag'al qatlamning yanada yoqsillashishiga olib keladi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib shuni ayta olamanki, kambag'allarga sifatli ta'lim yetishmaydi. Uning ustiga an'anaviy ta'lim dargohlariga qo'shimcha ravishda o'quv markazlarga ham borib o'qish ularning iqtisodiga to'g'ri kelmaydi,natijada oliy ta'limga kirish imkoniyati deyarli nolga to'g'ri proporsional holga keladi. Bu esa kambag'al qatlamning

iqtisodiy imkoniyatlarini yanada pasaytiradi. Ikkinchidan,"Quruq qoshiq og'iz yirtar", - deganlariday, jamiyatimizda hamma bir xil tabaqada kōriladi deb jar solingani, ijtimoiy yordam tizimlarini yōlga qōyilgani bilan ijtimoiy qatlamlar orasidagi farqlar baribir kambalag'allarni qiyin ahvolga soladi

Mening fikrimcha, kambag'allikni qisqartirish uchun judayam kōplab chora va tadbirlar yōlga qōyilishi lozim,chunki Őzbekiston Respublikasi Davlat statistika qōmitasining ma'lumotlariga kōra , 2021- yilda mamlakatimizda 11 foizdan ortiq aholi kambag'al deb hisoblangan. Shu sababli , yangi ish ōrinlarini yaratish va mahalliy biznesni qōllab-quvvatlash kerak , hamda yuqoridagilarga qōshimcha ravishda mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun subsidiyalar va grantlar berish lozim.

Kambag'al oilalarning ham farzandlarini malakali ōqituvchar boshchiligida sifatli ta'lim berilishi , imkon qadar oliy ta'limga jalb etilishi ,oliy ta'limga jalb etilmagan taqdirda maktab ta'limidan sōng kasb va hunar kollejlariga biriktirilib ōzining sohasiga monand tarzda ish bilan ta'min etilishi kerak.

Xulosa ōrnida shuni ayta olamanki, bir mashxur shaxs:"Kambag'allik bu qilmagan jinoyating uchun tovon tōlashga ōxshaydi"- deya ta'kidlaganidek, ularni har tomonlama qōllab-quvvatlash orqali bu girdobdan tortib olish mumkin. Lekin jamiyatda shunday shaxslar ham bor : "Bersang yeyman,ursang ōlaman", -degan , ana shunday kimsalarni jamiyatimiz ichidan ajrata bilish ham mutasaddi tashkilotlarining asosiy dasturilamali bōlmog'i darkor.

53.Bugungi kunda hayvonlarning ko 'plab turlari yo 'qolib bormoqda. Buning sababi nimada va qanday oldini olishimiz mumkin?

Barchamizga ma'lumki, har tomonlama ildam odimlayotgan asrimiz ming afsuski yo 'qotishlardan ham xoli emas. Avvallari son-sanog 'i ko 'p bo 'lgan hayvonlarning ko 'pchiligi bugun yo 'qolish arafasida ekani ham hech kimga sir emas. Xo 'sh, ushbu muammoning yuzaga kelishiga nimalar sabab bo 'lmoqda va ayni damda muammoga qanday yechim topishimiz mumkin?

Darhaqiqat, bugungi kunda hayvonlarning yo 'qolib borayotgani va shu sababdan ko 'plab hayvonlar maxsus qo 'riqxonalarda saqlanib, ularni ovlagan insonlarga qonuniy jazo choralari ko 'rilayotgani hech kimga sir emas. Bunday noxush vaziyatlarning yuzaga kelishiga birinchi sabab: ekologiya buzilishi. Negaki ekologiya buzilishi natijasida tabiatdagi muhim bo 'lgan ozuqa zanjiri muvozanati buziladi. Ikkinchidan, hayvonlarning ko 'plab suv toshqini va turli tabiiy talofatlar oqibatida halokatga uchrashi oqibatida sanoqsiz hayvonlar yo 'qolib ketdi. Misol tariqasida 2018-yilda AQSHning Illinois shtatidagi yong 'in oqibatida o 'sha yerda yashovchi yovvoyi to 'g ' echkisi tamoman yo 'qolib ketadi va hozirda ushbu hayvon noyob bo 'lib qolmoqda.

Yuqoridagilarga qo 'shimcha qilib shuni ayta olamanki, hozirda juda ko 'p insonlar noqonuniy ovga chiqmoqda va hattoki qo 'riqxonadagi hayvonlarni ovlashdan ham qaytishmayapti. Albatta bugungi kunda nafaqat davlatimiz hukumati va Butunjahon Hamjamiyati ham bu muammoga qarshi kurashmoqda. Lekin o 'z davrida quruqlikdagi va dengiz tubidagi noyob hayvonlarning ovanishi bugun tabiatning bir bo 'lagi bo 'lgan tirik mavjudotlarning butunlay yo 'q bo 'lib ketishiga olib kelmoqda.

Mening fikrimcha, bebaho tabiatning betakror ne'mati bo 'lgan hayvonot dunyosini himoya qilish uchun bugungi asrimizda qo 'riqxonalarni ko 'paytirish va ularni xavfsizligini ta'minlash kerak. Hayvonlar dunyosini tanazzulga yuz tuttiradigan brokonerlardan himoya qilish zarur. Chunki ular timsoh hamda noyob hayvonlarni ovlab terisini mo 'may pullaydilar. Zamonaviy ov qurollarining takomillashib ketgani ham barchani havotirga soladi.

Xulosa qilib shuni ayta olamanki, tabiatni asrash har birimizning vazifamiz va ayni muammoga yechim sifatida jonzoatlarni ovchilardan himoya qilish kerak deb o 'ylayman va bunga butun insoniyat ahli hissasini qo 'shishi kerak. Ov ishqibozlarga nisbatan ko 'riladigan jazo choralarni kuchaytirish o 'ylaymizki, kutilgan natijani bermay qolmaydi. Zero, ona tabiat bizning bebaho boyligimizdir. Uni himoya qilish uchun barcha choralarni qo 'llash esa davlat hukumati va bizning vazifamiz!

54.Xususiy maktablarda o'qishning ijobiy va salbiy jihatlari qanday?

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda ta'lim tizimida xususiy maktablarning o'rni va roli ortib bormoqda. Ko'plab ota-onalar o'z farzandlarini xususiy maktablarda berish niyatida bo'lishadi. Xosh, bolalarning xususiy o'quv maskanlarida ta'lim olishining ijobiy va salbiy tomonlari qanday?

Bir tomondan olib qaralganda, shaxsiy ta'lim muassasalarida o'qishning ijobiy jihatlari talaygina. Birinchidan, nodavlat maktablar ko'pincha sifatli ta'lim berishga intiladi. Bu maktablarda o'quvchilar uchun kichik sinflar, zamonaviy texnologiyalar jihozlangan sinfxonalar va tajribali o'qituvchilar mavjud bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, xususiy maktablarda dars dasturlari kengroq bo'lib, xalqaro darajada tan olingan o'quv dasturlarni ham o'z ichiga oladi. Shu tariqa, o'quvchilar kelajakda xalqaro universitetlarga kirish imkoniyatlarini oshirishi mumkin. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, AQShda xususiy maktab bitiruvchilarining oliy o'quv yurtlariga kirish ko'rsatkichi 95 foizdan oshadi.

Biroq nodavlat ta'lim muassasalarida o'qishning salbiy tomonlari ham yo'q emas. Eng avvalo, bu maktablarda o'qish katta mablag' talab qiladi, shuning uchun hamma ham bu imkoniyatdan foydalana olmaydi. Shuningdek, ayrim xususiy maktablarda ta'lim sifati davlat maktablaridan farq qilmasligi mumkin. Negaki ba'zi hollarda bunday maktablar faqat moliyaviy manfaatlarni ko'zlab, ta'lim sifatiga kam e'tibor qaratishadi. Bundan tashqari, nodavlat muassasalaridagi ijtimoiy muhit ba'zi bolalar uchun stress va raqobatni kuchaytirishi mumkin, bu esa ularning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mening fikrimcha, xususiy maktablarda o'qishning ijobiy tomonlari salbiy tomonlari qaraganda ko'proq. Chunki xususiy maktablarda tartib-intizomga katta e'tibor beriladi. Shuningdek, xavfsizlik masalalari ham davlat maktablariga qaraganda yaxshiroq yo'lga qo'yilgan bo'ladi. Bularga qo'shimcha qilib yana shuni ayta olamanki, ko'pgina xususiy maktablar xorijiy tillarni chuqurlashtirib o'qitishga e'tibor qaratadi. Bu esa ularga kelajakda har xil sertifikatlar olishi uchun ham foydalidir.

Muxtasar qilib aytganda, ota-onalar farzandlarini xususiy maktablarda o'qitishda o'zlarining ijtimoiy sharoitiga, kasb-koriga va farzandlarining qiziqishiga chambarchas bog'liqdir. Zero, bolaning qayerda o'qigani muhim emas, balki qanday bilim olgani muhimdir.

55. Ba'zilar tarixni o'rganish kerak deb hisoblasa, boshqalar bu fikrga qarshi bo'ladi.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunimizda tarix insoniyatning hayoti va tajribalari haqida to'plangan bilimlar to'plamidir. Ba'zi odamlar tarixni o'rganish hozirgi zamonga yoki kelajakka ahamiyatsiz ekanligini ta'kidlaydi, ammo bu masalaga boshqa tomondan qaraganda, tarix insoniyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaganini ko'rish mumkin. Xósh, kelajak uchun tarixni bilish qanchalik muhim?

Darhaqiqat, tarix insoniyat uchun ulkan tajriba manbai hisoblanadi. Chunki har qanday davlat yoki jamiyatning rivojlanish yo'lida ko'plab xatolar va muvaffaqiyatlar mavjud. Misol uchun, Ikkinchi jahon urushidan o'rganilgan saboqlar, bugungi xalqaro munosabatlarda tinchlik va barqarorlikni saqlashga katta ta'sir ko'rsatadi. Agar tarixni o'rganmasak, kelajakda o'sha xatolarni qaytarish ehtimoli oshadi. Shuningdek, o'tmishni o'rganish orqali biz insoniyatning qanday rivojlanganligini, muhim voqealar va ijtimoiy o'zgarishlarni tushunamiz. "O'z tarixini bilmagan xalqning, kelajagi bo'lmaydi", -deb ham bejiz aytmagan bizning xalqimiz.

Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib shuni ayta olamanki, tarix madaniy va milliy ózlikni shakllantirishga yordam beradi. Har bir millatning o'z tarixi bor va bu tarix ularga o'zligini anglashga, óz qadriyatlarini saqlashga yordam beradi. Masalan, O'zbekiston Mustaqillik tarixi va milliy qahramonlarimizning ko'rsatgan fidokorliklari yosh avlodni milliy ğurur bilan to'ldiradi. Faktlarga qaraydigan bo'lsak, AQSh universitetlarida talabalarning 57 foizi o'tmishni órganishga qiziqish bildirgan.

Mening fikrimcha, tarixni bilish borasidagi ijobiy tomonga o'zgartiradigan va mushkulini oson qiladigan jihatlari ko'proq. Qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsam, tarix innovatsiya va taraqqiyot uchun ham ilhom manbai bo'lishi mumkin. Chunki tarixiy yutuqlar va kashfiyotlar zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishiga asos bo'lgan. Albatta, bu kashfiyotlarni bilish kelajakda yangi izlanishlar uchun zamin yaratadi. Tóĝri, har narsaning bir yomoni bor. Tarixga haddan tashqari ko'p e'tibor berish kelajakni qurish o'rniga ótmishlardagi xatolarga berilib ketishimizga olib keladi. Odamlar ótmishdagi xatolarni qayta-qayta eslab, yangi imkoniyatlarni boy berishi ham mumkin.

Umuman olganda, tarix faqat o'tgan voqealar haqida emas, balki bugungi kun va kelajak uchun qimmatli saboqlardir. Shuning uchun tarixni órganish bizning madaniy va ilmiy merosimizni saqlash, rivojlantirish uchun zarurdir.

56. Bugungi kunda ayrimlar yengil avtomobillarda yo'lovchi sifatida yurish bir muncha yengilliklar berishini aytishmoqda. Ayrimlar esa avtobuslarda yurish kerakli deb hisoblashadi.

Hozirgi tezlik bilan rivojlanayotgan davrda transport vositalaridan foydalanish har bir inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Jamiyatimizdagi ayrim ilĝor fikrli shaxslar yengil avtomobillarda manzilga yetish har tomonlama qulay deb bilishsa, ba'zi odamlar bu fikrga qo'shilmagan holda jamoat transporti ya'ni avtobuslarda yurishni ustun deb bilishadi. Xósh, manzillarga tinch va qulay holatda yetib borish uchun qaysi yól afzalroq?

Bir tomondan olib qaralganda,yengil avtomobilda harakatlanish qulaylik va shaxsiy erkinlikni ta'minlaydi.Negaki avtomobil orqali harakatlanishda odam óz manzilini mustaqil belgilab,har qanday vaqtda va joyda to'xtashi mumkin.Bu, ayniqsa, shoshilinch ishlar yoki uzoq masofaga borishda juda muhimdir.Shuningdek,avtomobilda yo'lovchi sifatida yurish vaqtni tejash va noqulay ob-havo sharoitlarida qulaylik yaratadi.

Boshqa tomondan qaraydigan bo'lsak,avtobuslardan foydalanishni afzal ko'ruvchilarning fikrlari ham órinlidir.Buning eng birlamchi sabablaridan biri shuki,avtobusda harakatlanish shaxsiy transport xarajatlarini kamaytiradi,chunki jamoat transportining narxi yengil avtomobillarga qaraganda ancha arzon.Shuningdek,atrof-muhitni asrash nuqtai nazaridan ham avtobuslar kamroq zarar yetkazadi.Negaki bir nechta odam bir transport vositasida yurishi orqali havo ifloslanishi kamayadi.

Mening nazarimda,ortiqcha xarajatsiz jamoat transportidan foydalanish ancha qulayroq.Chunki u ancha xavfsizroq.Statistik ma'lumotlarga qaraganda,yengil avtomobillar bilan bog'liq avariya soni ko'proq bo'ladi,negaki shaxsiy avtomobillarda yurish vaqtida haydovchilar tez-tez yo'l qoidalarini buzishi mumkin.Avtobuslar esa professional haydovchilar tomonidan boshqariladi va xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilinadi,bu esa,albatta, yo'lovchilarga ishonch beradi.

Muxtasar qilib shuni ayta olamanki,yengil avtomobilda yurish shaxsiy qulaylik va erkinlikni ta'minlasa-da,avtobuslarda yurishning ijtimoiy va iqtisodiy foydalari ko'proq.Menimcha, avtobusda yurish nafaqat tejamkor,balki atrof-muhitga foydali va xavfsizroqdir.

57.Ba'zilar qo'riqxonalarni tashkil qilish faqat hayvonlar uchun foydali deb hisoblashadi, boshqalar uning boshqa afzalliklari ham borligini aytishadi

Barchamizga ma'lumki, bugungi kun ekosistemasining buzilishi natijasida ko'plab hayvonlarning qirilib ketishi barcha mintaqalar uchun xavfli omil sanalib kelmoqda. Buning oldini olish va yo'qolib borayotgan hayvon turlarini asrab qolish maqsadida bir qator qo'riqxonalar tashkil etilmoqda. Jamiyatimizdagi bir guruh shaxslar qo'riqxonalarning faqat hayvonlar muhofazasi uchun muhim deb bilsa, boshqa toifa vakillari ularning yanada ko'plab foydali qirralari mavjudligini ta'kidlashadi. Aslicha-chi, qo'riqxonalarning jamiyatimizda tutgan o'rne qanday?

Bir tomondan olib qaraganda, birinchi tarafning fikrlari ham anchayin salmoqlidir. Bugungi kunda iqlim o'zgarishi, xossatan, global isish va global sovish muammolari, turli zavod va fabrikalardan chiqayotgan zaharli moddalar hisobiga ekosistemaning buzilishi, buning natijasida esa hayvonlarning turlari qirilib ketayotgan bir paytda qo'riqxonalarning ko'plab tashkil etilayotgani yuqoridagi muammolarning bir qadar yechimi bo'lishi mumkin. Darhaqiqat, ko'pchilik insonlar qo'riqxonalarning tashkil etilishini faqat hayvonlar salomatligi, qirilib ketmasligi va ko'paytirilishi uchun zarur deb o'ylashadi. Haqiqatan, qo'riq va bo'z yerlarni obodonlashtirib, qo'riqxonalariga aylantirishdan maqsad hayvonlarni turli "iqlimiy hujum"lardan va brakonerlardan asrash, boy tabiatimizni kelajak avlod uchun shikastsiz yetkazib berishni ko'zda tutadi.

Boshqa tomondan olib qaraganda, qo'riqxonalar biz insoniyatga nafaqat hayvonlarni asrash, balki bir qator boshqa afzalliklarni ham bera oladi. Jumladan, qo'riqxonalar olimlar uchun ilmiy tadqiqotlar eshigini ochadi. Bu esa hayvon, parranda, o'simliklarning biologik xilma-xilligining ortishiga, tabiatimizning boyishiga sabab bo'ladi. Ikkinchidan, qo'riqxonalar akoturizm sohasining rivojlanishiga olib keladi va shu bilan birga turistlar oqimi mahalliy iqtisodiyotning o'sishiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Turistlarga xizmat ko'rsatgan mahalliy aholi ham ish bilan ta'minlanadi.

Uchinchidan, qo'riqxonalariga berilayotgan e'tiborni, g'amxo'rlikni ko'rayotgan mahalliy aholi va yosh avlodning ongida "Qush uyasida ko'rganini qilar", -deganlariday, tabiatga va hayvonot, nabotot olamini asrashga nisbatan mehr-muhabbat, mas'uliyat hissi rivojlanadi.

Mening fikrimcha, qo'riqxonalar tashkil etishning har taraflama foydalari bisyor. Qo'riqxona nafaqat hayvon, balki o'simliklar, parrandalarning ham

yōqolib borayotgan turlarining himoya qilinishi va sun'iy kōpaytirilib ommaga taqdim etilishi uchun qulay bir maskan sanaladi. Qolaversa,"Tabiatning ōzi tabib", - deya ta'kidlashganiday, qōriqxonada muhofaza etilayotgan har turli dorivor ōsimliklarning va ayrim hayvon turlarining (jumladan,ilonlar) kōpchiligi meditsinada ,xususan, tabobat sohasida keng kōlamli ravishda foydalanilib kelinmoqda. Bu esa xalqimizning salomatligi uchun ōz xissasini qōshayotgani bilan ahamiyatlidir. Tabiat va insoniyat bir-biriga chambarchas bog'liq deb shuni aytsalar kerak-da! Sen ularning yōqolib ketmasligi uchun ularni muhofaza etasan, ular sening salomatligingni saqlash uchun xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni ayta olamanki, tabiatni va undagi bor mavjudotlarni faqatgina qōriqxonalar emas,balki siz-u bizga ōxshagan oddiy insonlar ham himoya qilmog'i lozim. Zero tabiatni asrash bu bir inson, yoki mintaqa uchun emas,balki global muammolardan biri desak xato bōlmaydi.

58.Ba'zilar qo'riqxonalarni tashkil qilish faqat hayvonlar uchun foydali deb hisoblashadi, boshqalar uning boshqa afzalliklari ham borligini aytishadi

Barchaga ma' lumki, bugungi tez rivojlanib borayotgan zamonda ba' zilar xilma-xil o' simlik, hayvon kabi mavjudot va biologik tabiiy resurslarni saqlab qolishda qo' riqxonalarning o' rni katta ekaniniaytishsa, boshqalar uning insonlar uchun yana foydali tomonlari borligini ta' kidlashadi. Aslida, qo' riqxonalarning tabiat va inson uchun qanday naf keltiradigan tomonlari bor?

Bir tomondan olib qaraganda, qo' riqxonalarning tabiat va qolaversa, bizlar uchun ko' plab manfaat keltiradigan tomonlariga guvoh bo' lishimiz mumkin. Hozirda ba' zi o' simliklar, bundan tashqari, kamyob bo' lgan hayvon va qushlarning turlari borgan sari yo' qolib bormoqda. Buning asosiy sababchilaridan biri - o' zimizdan chiqayotgan "savdogarlar" . Chet mamlakatlarda hayvonlar ba' zi bir qo' shtirnoq ichidagi insonlarning chiroyli hayot kechirishi uchun yaxshigina daromad manbayiga aylanib ulgurgan. Ular o' zlarining shohona hayot

kechirishida hayvonlarni ovlab pullashni kundalik odatiga aylantirishgan. Shundoq ham ekologik va boshqa muammolar sabab qirilayotgan mavjudotlarning “O’lganning ustiga tepgan”, – qilgandek, insonlarning mana bu ishi umuman ortiqcha. Albatta, bunday vaziyatda qo’riqxonalar – ular uchun yaxshiroq yechim.

Boshqa tomondan olib qaraganda, qo’riqxonalarning jamiyat rivoji uchun ham foydasi katta, negaki qo’riqxonalarda saqlanayotgan tabiiy resurslar, biologik xilma-xillik boshqa insonlarning qiziqishiga sabab bo’ladi va bu davlatda ekoturizmning yanada rivoj topishiga yordam beradi desak, adashmaymiz. Bundan tashqari, qo’riqxonalardagi muhitdan kelib chiqqan holatda turli fanlar, masalan, biologiya, ekologiya kabilar bo’yicha tadqiqotlar o’tkazib yoshlar uchun foydali ma’lumotlarni berish mumkin. Bu ilmiy ma’lumotlar asosida yoshlarda tabiatni asragan holatda uni yanada samarali boshqarish, muhofaza etish, turli hayvon va o’simliklar haqida bilim hosil qilish mumkin.

Mening fikrimcha, har bir davlat o’z oldiga tabiiy boyliklari va mavjudotlarini saqlab qolishni ko’ndalang vazifa qilib qo’yimoq’i va yashirincha qilinayotgan savdo-sotiq, ov kabi holatlarga qarshi turishi zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, har bir davlatda qo’riqxonalarning yanada ko’proq tashkil etilishi va muhofaza qilinishi nafaqat insonlarning tabiat haqidagi qarashlari, balki davlatning yanada rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

59. Ba’zilar yangiliklardan internet orqali xabardor bo’lish gazetaga qaraganda yaxshiroq deb hisoblashadi. Sizning fikringiz qanday?

Hech kimga sir emaski, bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda hayotimizni atrofimizda nimalar sodir bo’layotganligi haqidagi bir-biridan qiziqarli bo’lgan yangiliklardan bexabar holda tasavvur eta olmaymiz. Davr taqozosidan kelib chiqqan holda ayrim insonlar axborotlarni internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali qabul qilish gazetalarni o’qishdan ko’ra afzalroq deb fikr bildirmoqdalar. Xo’sh, qay bir manba bizni yangiliklardan tezroq va samarali tarzda boxabar qila oladi?

Bir tomondan olib qaraganda, internet orqali axborot qabul qiluvchilarning ham yetarli darajada asoslari mavjud. Birinchidan, vaqt

masalasi: axborot gazetalarga nisbatan foydalanuvchilarga tezroq yetib boradi va qisqa vaqt ichida ko'plab axborotlarni yetkazish mumkin. Ikkinchi – masofa masalasi. Gazeta va jurnallarga nisbatan internet masofa tanlamaydi, tarmoq yaxshi bo'lsa bo'lgani, dunyoning eng chekka joyigacha yetkazish mumkin. Uchinchi, foydalanuvchilarning son jihatdan qamrovi ham internetni yoqlaydiganlarga ustunlik beradi. Chunki bugungi texnika asrida internetdan foydalanmaydigan insonlar deyarli topilmaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023–yilga kelib dunyo aholisining 72 foizdan ko'p qismi ijtimoiy tarmoqlarda juda faol hisoblanadi. Shunday ekan internet orqali yangiliklardan bir vaqtning o'zida juda ko'plab insonlar xabardor bo'la oladi. Gazeta va jurnallarda esa ma'lumotlarni yig'ish, bosib chiqarish va obunachilar qo'lga yetkazish uchun internetga nisbatan vaqt va mablag' ko'proq sarflanishi mumkin.

Boshqa tomondan olib qaraganda, yangiliklardan gazeta va jurnallar orqali xabardor bo'lish ham ancha foydalidir. "Bir sinalgan tajriba yetti kitobdan afzal" deganlaridek, gazetalardagi ma'lumotlar ishonchliligi va aniqligi bilan, sifati hamda kim tomonidan berilayotgani bilan ustunlikka egadir. Chunki gazetaga bosilishidan avval ma'lumotlar ishonchli, professional jurnalistlar tomonidan qayta-qayta tahlil qilinib tayyorlanadi. Bu esa axborotning sifatligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, yangiliklarni qog'oz shaklida o'qish unsonlar uchun ancha osonroq bo'lib, ma'lumotlarni yaxshi tahlil qilish uchun yordam beradi. Internet orqali axborot olganda esa diqqatni jamlash qiyin masala bo'lib, turli xil saytlardan yangiliklar chiqib kelaveradi, natijada xabarlarni tahlil qilish jarayoni sekinlashadi.

Menimcha, har ikkala manbaning ham o'ziga xos afzalliklari yetarlicha. Ammo bugungi rivojlangan zamon taqozosidan kelib chiqqan holda yangiliklarni internet tarmoqlaridan olish ancha samaraliroq. Chunki, birinchi navbatda, vaqtimizni tejaymiz, oz fursat ichida ko'plab sohalarga oid bo'lgan tegishli bo'lgan axborotlarni olishimiz mumkin. Shuningdek, eng tezkor, eng ommaviy, eng dolzarb mavzudagi yangiliklardan xabardor holda zamon bilan hamnafas tarzda yashaymiz. Bundan tashqari, yangiliklarni turli tillarda ham o'qishimiz mumkin bo'ladi, bu esa chet tillarini o'rganuvchilar uchun ayni muddaodir.

Umuman olganda, yangiliklardan xabardor bo'lish uchun har ikkala manbani birlashtirish eng yaxshi yechim bo'la oladi. Internetdan tezkor yangiliklar uchun foydalanish, gazetalardan esa ishonchli hamda keng qamrovli ma'lumotlarni olish samaralidir.

60. Ba'zilar ishsizlarga nafaqa berilishi kerak deb hisoblashsa, boshqalar ularga hunar o'rgatib ish bilan ta'minlagan afzal deb hisoblashadi

Barchamizga ma'lumki, hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ishsizlar soni ortib borishi dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Ayrim insonlar davlat ishsizlarga nafaqa tayinlashi ma'qul chora deb ta'kidlashsa, boshqa toifa kishilari ularni nafaqaga bog'lab qo'ymasdan kasb-hunarli bo'lishlarida yordamchi bo'lmoq eng o'rinli usul deya e'tirof etadilar. Aslida-chi, qaysi bir fikr to'g'riroq?

Bir tomondan olib qaraganda, hukumat ishsizlarni nafaqa bilan ta'minlashi kerak deb hisoblovchilarning o'ziga yarasha sabablari mavjud. Avvalambor, hayotda ish o'rniga ega bo'lmagan shaxslarga yordam puli berilishi ularning oilaviy muhitini yaxshilashga ko'mak beradi. Chunki "Yotib yeganga tog' ham chidamas",—deyilganidek, uchtdan ortiq farzandi bor kimsalar, albatta, bolalarini boqish uchun mablag' yetkaza olmasligi tabiiy hol. Ikkinchidan, mehnatga layoqatsiz bo'lgan insonlarga nafaqa to'lanishi o'rinli. Bunday insonlar o'zlarining ijtimoiy holatlaridan kelib chiqib, yordam pulini o'zining dori-darmoniga sarf etishi mumkin. Misol uchun, bir qo'shnim nogironlik nafaqasini oladi va shu bilan o'zining ehtiyojlarini qondiradi.

Boshqa tomondan olib qaraganda, ishsizlarga nafaqa bermasdan ularni kerakli hunarlar bilan band qilmoq joiz deguvchilarning ham o'rinli sabablari bor. Birinchidan, yordam pulini oladigan bu shaxslar "tayyorga ayyor" bo'lib yashashni o'zlariga ma'qul ko'radilar. Bu esa jamiyatda ishsizlik sonining oshishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, bunday jarayon davlat byudjetiga ham katta zarar bo'lishi tabiiy. Zero nafaqa uchun to'lanadigan pullar anchagina mablag'ni tashkil etadi. Qolaversa, ishsizlarni ish bilan ta'minlash hukumat uchun ham foydalidir. Masalan, fuqarolar mehnat qilishga jalb etilsa, maoshlaridan ushlangan ushlanmalar davlat byudjetiga tushadi.

Mening fikrimcha, ishsizlar yordam pullari bilan "aldanib" qolmasdan kasb-hunar o'rganib, biror bir ishning egasi bolganlari ma'qul. Chunki davlatning puli butun xalqning pulidir. Uni hech qanday yumush

bajarmay turib o'zlashtirish noo'rin, nazdimda. Halollik bilan daromad qilinsa, insonlarning o'zlari uchun ham yaxshi bo'lar edi. Axir dono xalqimiz:"Halol mehnat mo'l daromad",— deb bejiz aytmagan.

Xulosam shundan iboratki, inson hamisha har qanday holatda ham harakatda ish tutmog'i va to'xtamasdan mehnat qilmog'i, o'zi uchun mansub bo'lgan kasbni egallab, xalq uchun, yurt uchun kerakli shaxs bo'lmog'i lozim. Shundagina oilalar tinch va farovon bo'ladi.

61.Globallashuvning tillar taraqqiyotiga va tanazzuliga qay darajada ta'siri bor?

Globallashuv bugungi kunda dunyodagi madaniyatlار,tillar va xalqlar ortasidagi aloqa va ozaro ta'sirini kuchaytirib,ularni yaqinlashtirmoqda.Biroq,bu jarayon tillarning rivojlanishiga ham,ularning yo'qolishiga ham ta'sir qilmoqda.Xosh, globallashuv tillar uchun qay yo'sinda ta'sir qiladi?

Bir tomondan olib qaralganda, globallashuv tillarning organilishi va ommalashuviga yordam beradi.Masalan,ingliz tili xalqaro aloqa va biznes tili sifatida dunyo bo'ylab keng tarqalmoqda.Bu,oz navbatida, ko'plab davlatlarda ingliz tilining organilishi va rivojlanishiga olib keladi.Bekorga xalqimiz:"Til bilgan-el biladi",-deb aytmagan,chunki globallashuv orqali yangi tillarni organish insonlar uchun katta imkoniyatlar kalitidir.

Boshqa tomondan nazar tashlaydigan bo'lsak, globallashuv ba'zi tillarning tanazzuliga ham olib keladi.Negaki yirik tillar , masalan,ingliz yoki rus tillari boshqa tillarni siqib chiqara boshlaydi.Natijada,kichik xalqlar tillari va ularning madaniyatlari yo'qolib ketish xavfiga uchraydi.Statistik ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak,har yili 10dan ortiq kichik tillar yo'qolib bormoqda,chunki yosh avlodlar zamonaviy tillarni organishga intilib,oz ona tillarini unutishmoqda.

Mening nazarimda, globallashuv tillar taraqqiyoti uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi.Masalan,internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tillar global miqyosda tarqalib, ko'proq odamlar tomonidan organilmoqda.Bu

esa tillarning yangi sózlar va iboralar bilan boyishiga, zamonaviylashishiga yordam beradi. Shuningdek, kóplab davlatlar globallashuvning ijobiy tomonlarini qo'llab-quvvatlab, óz milliy tillarini rivojlantirish va himoya qilish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqmoqdalar.

Muxtasar qilib aytadigan bólsak, globallashuv natijasida ba'zi tillar rivojlanar ekan, kichik tillar yóqolib ketmasligi uchun har bir xalq óz til merosini saqlash uchun harakat qilishi lozim. Faqat shu yól bilan biz globallashuvning ijobiy tomonlaridan foyda olib, salbiy oqibatlaridan himoyalana olamiz.

62. Ayrimlar a'lochi óquvchilarni saralab alohida qilib óqitish kerakligini aytsa, boshqa toifa vakillari har xil bilimga ega óquvchilar bitta sinfda óqishi kerakligini ma'qullaydilar.

Barchaga ma'lumki, bugungi globallashib borayotgan zamonda dunyodagi ilg'or davlatlarga hamnafas bólish ilinjida bizning yurtida ham ta'lim tizimini tubdan rekonstruksiya qilish kerakligi bot-bot takrorlanib kelinmoqda. Bu xususda ayrim kimsalar a'lochi óquvchilarni saralab alohida qilib óqitish kerakligini aytsa, boshqa toifa vakillari har xil bilimga ega óquvchilar bitta sinfda óqishi kerakligini ma'qullaydilar. Aslida-chi, qaysi tarafning fikrlari órinliroq?

Darhaqiqat , bugungi yoshlarning ongini turli smartfon va gadjetlar órgimchak tóriday óz domiga tortib olayotgan bir paytda óqitish tarmog'i global muammoga aylanib ulgurgani shubhasiz. Bu masalada , xususan, birinchi taraf vakillarining fikrlari ham bir qadar órinli. Jumladan, bunda vaqt samarali taqsimlanadi, ya'ni "Bir kishi hamma uchun – hamma bir kishi uchun" , – deganlariday, ustozlar bilim olishi sustroq óquvchilarga yana qayta mavzu tushuntiradi. Zukko óquvchilar esa zerikib qoladilar. Natijada, bir mavzuni ikki bor takrorlaganda vaqt taqsimotida chalkashlik

kelib chiqadi. Bilim darajasi yuqori bōlgan o'quvchilarni bitta sinfga jamlash esa bu muammoni bartaraf etadi.

Ikkinchidan, yuqori bilim va salohiyatga ega bōlgan o'quvchilarni bir sinfga jamlaganda eng qiyin ma'lumotlarni ham qiyinchiliksiz o'zlashtira oladilar, bu o'zaro ijobiy raqobat muhitini yaratadi. Bunda esa o'qishga bōlgan motivatsiyalari yanada ortadi.

Boshqa tomondan olib qaraganda, bilim darajasi har xil bōlgan o'quvchilarni bir sinfdan o'qitish jarayonining ham qator ijobiy taraflari bor. Jumladan, o'quvchilar o'rtasida hamkorlik rivojlanadi. Ya'ni o'zlashtirishi sustroq o'quvchi boshqa bir sinfdoshidan tushunmaganini s'orashi mumkin. Natijada ular o'rtasida hamjihatlik ruhi rivojlanadi bu esa yoshlikdan "insoniylik kurtaklarining" shakllanishiga olib keladi. Ikkinchidan, raqobat muhiti shakllanadi. Ya'ni "Odam qilgan ishni odam qila oladi", - deya ta'kidlashganiday, sinfdan o'zib ketayotgan o'quvchini kuzatib turgan qoloq o'quvchi ham asta-sekin o'zini isloh qilishni boshlaydi. Bu esa yoshlarning sog'lom raqobat ruhida ulg'ayib o'z ustida ishlashiga samarali ta'sir etadi.

Mening fikrimcha, shusiz ham zamon ikkiga bōlinib qolgan bir pallada, (boylar-kambag'allar, o'qiganlar-o'qimaganlar, davlat ishchilari-qora ishchilar) yosh avlodni ikki guruhga bōlmasdan bir sinfdan ta'lim bermoq darkor. Chunki o'zbek mintalitetiga xos bōlgan xususiyatlarni saqlagan holda bir-biriga yordam berish kōniklamalarini shakllantirish lozim. O'zi yaxshi o'qimayotgan bolani "O'lganning ustiga tepganday", - qilib ajratib qōyish mutlaqo xatodir. Negaki, siz-u bizga oddiy kōringan bu masala kelajakda katta kamchilikka aylanib boradi. Sababi: yaxshi o'qiganlar yaxshi o'qishlarga kiradi, yaxshi ishlarda ishlaydi, katta lavozimlarni egallaydi. Qoloq bolalar esa qoloqligicha qolib ketib jamiyat tubdan ikkiga ajralib ketadi. Undan kōra bitta sinfdan ahil-inoq jamoa bōlib o'qigan yaxshiroqdir.

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimanki, o'quvchilarni alohida o'qitadimi, yoki qōshib o'qitadimi, muhimi har bir o'quvchining individual xususiyatlaridan kelib chiqib yondashmoq darkor. Zero yoshlarning bilimli bōlgani, millatning boy bōlganidir.

64. Ayrimlar a'lochi o'quvchilarni saralab alohida qilib o'qitish kerakligini aytsa, boshqa toifa vakillari har xil bilimga ega o'quvchilar bitta sinfda o'qishi kerakligini ma'qullaydilar.

Barchamizga ma'lumki, ta'lim tizimida ko'plab islohotlar olib borilayotgan hozirgi davrda umumta'lim maktablaridagi o'quvchilarning fanlarni qay tarzda o'zlashtirishlari muhim masala bo'lib kelmoqda. Ayrim shaxslar yaxshi o'zlashtiradigan bolalarga bo'lak holatda ta'lim berish zarur deb hisoblashsa, boshqa toifa kishilari esa har xil o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ajratmasdan birgalikda o'quv jarayonini olib borish ma'qulroq deya e'tirof etadilar. Aslida-chi, qaysi bir fikrni qo'llab-quvvatlash muhimroq?

Bir tomondan olib qaraganda, a'lochilarni alohida guruh qilib o'qitgan yaxshiroq deydigan ba'zi insonlarning o'rinli sabablari mavjud. Birinchidan, iqtidorlilar bir guruhga va o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilarni boshqa guruhga ajratish, har bir guruh uchun individual o'qitish usullarini

qo'llash imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarning qobiliyatlariga mos ravishda o'qitishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, a'lochilar ko'proq qiyin vazifalar va yangi bilimlar bilan

shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday jarayon ularning rivojlanishiga yordam beradi. Yaxshi o'qimaydigan o'quvchilar esa o'zlashtirish darajasini oshirishga ko'proq e'tibor qaratishlari mumkin. Uchinchidan, "Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r — mingni", — deyilganidek, guruh ichida o'xshash bilim darajasiga ega bo'lgan bolalar bir-birlarini qo'llab-quvvatlab, motivatsiya va raqobat yaratishlari mumkin. Bu ijobiy muhitni yuzaga keltiradi.

Boshqa tarafdin olib qaralganda, darajasi xilma xil bo'lgan yoshlar bitta sinfda ta'lim olganlari afzalroq deb e'tirof etuvchilarning ham o'ziga yarasha fikrlari bor. Avvalambor, past o'zlashtiruvchi o'quvchilar alohida guruhda o'qitilganda, ular o'zlarini kamroq qadrli his qilishlari mumkin. Bu esa o'ziga bo'lgan ishonchni pasaytirishi va motivatsiyani kamaytirishi tabiiy. Ikkinchidan, o'quvchilarni bilim darajasiga qarab guruhlarga ajratish sinflar o'rtasida raqobatni kuchaytirishi mumkin. Natijada esa o'quvchilarning o'zaro aloqalarini kamaytirishi va bir-biridan uzoqlashishiga olib kelishi kuzatiladi. Shuningdek, iqtidorli bolalar va

baholari qoniqarsiz bo'lgan tengdoshlari bir-biridan o'rganish imkoniyatidan mahrum bo'ladilar. A'lochilar o'z bilimlarini boshqalarga o'rgatish orqali ko'proq rivojlanishlari mumkin.

Mening fikrimcha, maktabdagi qorako'zlarni darajasiga qarab bir-biridan ayro etmasdan bahamjihatlikda darslarni olib borgan ma'qulroq. Chunki past o'zlashtiradigan o'quvchilar, avvalo, o'zidan o'zi bunday holatga tushib qolmaydi. Buning asosiy sababi ota-onalari yoki oilaviy ahvolidan yaxshi emasligidan dalolat bo'lishi mumkin. Agar o'qituvchilar bu turdagi bolalar bilan boshqalaridan ajratmagan holda shug'ullansa, yana-da ko'proq ilm ziyosini taratsa, ular ham tengdoshlari kabi iqtidorlarini namoyon qila oladilar. Axir "Ustoz bilimli—shogird ilmi",—deya bejizga ta'kidlanmagan.

Muxtasar qilib aytganda, qanday darajada ta'lim olishmasin bolalar bizning kelajagimizdir. Ularga kerakli shart-sharoitlar yaratib bermog'imiz, o'zlari uchun kerakli bo'lgan kitoblar bilan ta'minlamog'imiz, kelajakda yetuk shaxs bo'lib yetishishlarida qo'ldan kelgan barcha ko'maklarni bermog'imiz darkor. Ana shundagina yurtimiz yoshlari dunyo miqyosida buyuk insonga aylana oladilar.

65.Chet tilini o'rganishning bugungi kundagi ahamiyati qanday?

Barchamizga ma'lumki, bugungi rivojlanib borayotgan zamonda odamlar bilan o'zaro aloqa almashinuvda til bilishning ahamiyati katta bo'lib kelmoqda. Juda ko'p kishilar xalqaro tillarni o'rganishga bel bog'lagan. Aslida, chet tillarini bilish insonlar uchun qanchalik naf keltiradi?

Bir tomondan olib qaraganda, bugungi kunda chet tilini o'rganish hamma uchun foydali, deyayotganlarning o'ziga yarasha bir qancha sabablari bor. Avvalo, chet tilini bilish biz uchun boshqa davlat insonlari bilan bimalol hamsuhbat bo'lish imkonini beradi. Ular bilan suhbatlashish davomida o'zaro tajriba, ko'nikma almashish, fikr-mulohazalarni bo'lishish orqali inson o'zini yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qaysidir davlatga o'sha yerning tilini bilmay tashrif buyurish – o'zaro o'tkazilgan gap marosimiga soqov bo'lib

borishdek gap. Shunday tarzda borgan kishining atrofni tomosha qilishdan boshqa qiladigan ishi yo' q. "Til bilgan el biladi", - deganlaridek, odamlar bilan muloqot qilish bizga juda katta foydali ma'lumotlarni olib keladi.

Yuqoridagilarga qo' shimcha qilib ayta olamanki, til bilgan inson, albatta, biror joyda xor bo' lishi - qiyin masala. Ish o' rinlari nihoyatda kamaygan bir zamonda bir necha chet tillarida o' z ona tilidek so' zlasha oladigan kadrga ko' p firmalarda talab yuqori. Bundan tashqari, boshqa tillarda yozilgan kitoblarni o' qib tushunish orqali o' zimizda ko' proq bilim hosil qilishimiz, shaxsiy rivojlanishni yanada oshirishimiz mumkin.

Mening fikrimcha, boshqa tillarni bilish insonning nafaqat ish faoliyatida, balki o' z saviyasini oshirishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. O' zga tillarda mukammal so' zlasha oladigan inson ayni shu til ommalashgan hududlarda o' z nonini topib yeb keta oladi, desak, mubolag' a bo' lmaydi. Bundan tashqari, o' quv muassasalarida xalqaro sertifikat sohiblari uchun qo' shimcha haqlar ham belgilangan.

Xulosa qilib aytganda, har bir inson g' ayri tillarini o' rganishga harakat qilishi o' zi, qolaversa, jamiyat uchun ham manfaatli bo' ladi. Buning uchun davlat til o' rgatish markazlariga alohida e' tibor qaratishi va odamlarni til bilishga da' vat etmog' i lozim. Siz dunyo va undagi jarayonlar haqida ko' proq bilimga ega bo' lishni istasangiz, albatta, til o' rganing.

66.Chet tilini o'rganishning bugungi kundagi ahamiyati qanday?

Hechkimga sir emaski, bugungi globallashib borayotgan zamonda zamonaviy davlatlar qatoriga kirish ilinjida dunyo tili bōlmish ingliz tilini o'rganish barcha xalqlar uchun dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Xōsh, chet tillarining o'rganishning bugungi kundagi ahamiyati qanday va u jamiyatimizga qanday foyda keltiradi?

Darhaqiqat, ingliz tilini o'rganishning bir qator afzalliklari mavjud. Jumladan, bugungi dunyo bir-biri bilan yanada bog'liq bōlib

bormoqda, chet tilini bilish xalqaro aloqalarni osonlashtiradi. Bu esa boshqa davlatlarning madaniyatini yanada chuqurroq bilish imkonini beradi. Ikkinchidan, ko'plab katta kompaniya va tashkilotlar chet tilini biladigan mutaxassislariga ehtiyoji oshib bormoqda, g'ayri tilini bilish ishga kirish imkoniyatlarini oshiradi. Natijada esa karyerangizni rivojlantirishingiz mumkin bo'ladi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib shuni aytolamanki, dunyo tilini bilish chet davlatlarda ta'lim olish imkonini beradi. Natijada nufuzli universitetlarda oliy ta'lim olgan shaxslarga yaxshi joylarda ishlash, tezroq karyera qilish imkoni tug'iladi. Ikkinchidan, o'zga tillarni bilish ko'plab davlatlarga sayohat qilish imkonini beradi. Bu esa barcha davlatlarda o'zini erkin va qulay his qilish tuyg'usini shakllantiradi. Natijada har qanday yurtning madaniyatini chuqurroq tushunishiga olib keladi va sayohatni yanada qiziqarliroq qiladi. "Ham sayohat, ham tijorat", - deyishganidek, savdo-sotiq aloqalarini ham yo'lga qo'yish mumkin. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda logistika sohasi bilan shug'ullanib katta daromadga erishayotganlarning aksari ingliz tili o'qituvchilari ekanligi isbotlangan i so'zimizning dalilidir.

Mening fikrimcha, chet tillarini bilish nafaqat sayohat va karyera, balki shaxsiy rivojlanish uchun imkon beradi. Shaxsiy rivojlanish esa insonning unib-o'sishiga, fikrlashning tezkorlashuviga, har qanday davrada o'zining erkin fikr bildirish olishiga olib keladi. Ikkinchidan, "O'rganganing ilm emas, o'rgatganing ilm", - deganlariday, yosh avlodga ushbu til konikmalaridan saboq berib millatning kelajagi uchun ham munosib hissa qo'shadi. Tog'ri, ayrim shaxslar chet tilini o'rganishi natijasida butunlay g'aribona va "g'aribona" hayotga oshufta bo'lib o'z yurti, millati, milliyligini unutib borayotganlar yo'q emas.

Xulosa o'rnida shuni ayta olamanki, chet tilini bilgan, xususan, ingliz tilini biladigan shaxslarning bugungi kunda "noni butun"dir. Umuman olganda, qaysi tilni o'rganishdan qat'i nazar o'z millati, shaxsiyati, kelib chiqishini unutmagan holda boshqa chet tillarini ham o'rganib qo'ymoq foydadan holi bo'lmaydi.

67.Ba' zilar reklama faqat tadbirkorlarga naf keltirishiga ishonishsa, boshqalar xaridorlarga ham foydali ekanligini aytishadi.

Barchamizga ma'lumki, zamonaviy jamiyatda hamma joyda mavjud bòlgan reklama òzining haqiqiy manfaatdorlarini aniqlash bòyicha bahs-munozaralarga sabab bòlmoqda. Ba'zilarning fikricha, reklama faqat biznes egalariga foyda keltiradi. Boshqalari esa aslida iste'molchilar gòlib chiqadi deb hisoblashadi.

Bir tarafdin olib qarasak, biznes vakillari uchun reklama mijozlarga yetib borishiga muhim vositadir. Eng avvalo, u bizneslarga brend haqida xabardorlikni oshirishga, mahsulotga bòlgan talabni kuchaytirishga va sotuvni kòpaytirishga yordam beradi. „21-asrda sizning biznesingiz internetda yòqmi, demak siz biznesda yòqsiz“, – deganlaridek, biznesning internetda bo'lishi uchun reklama zarur. Raqobatbardosh bozorda samarali reklama bizneslarni raqobatchilardan ajratib turishi va sodiq mijozlarni shakllantirishi mumkin.

Boshqa tomondan olib qaralsa, reklamani faqat biznes foyda kòrish vositasi sifatida kòrish, uning iste'molchilarga foydasi borligini e'tiborsiz qoldiradi. Birlamchi sabablardan biri xaridorlarga mahsulotlar va xizmatlar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi, bu esa ularga bebaho xarid qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Reklama iste'molchilarni bilim va tanlov bilan quvvatlantiradi. Ikkinchidan, reklama bizneslar orasida raqobatni kuchaytiradi, natijada iste'molchilarga pastroq narxlar, yaxshilangan sifati bilan foyda keltiradi.

Mening fikrimcha, reklama bizneslarga ham, iste'molchilarga ham foyda keltirishi mumkin bòlsa-da, uning salbiy tomonlarini ham e'tirof etish muhim. Ba'zi tanqidchilarning fikricha, reklama iste'molchilarning zaif tomonlaridan foydalanib, haddan tashqari oste'molni rag'batlantirib, manipulyativ bo'lishi mumkin. Boshqalar esa reklamanning ijtimoiy qadriyatlarga salbiy ta'sirini ta'kidlaydilar.

Oxir-oqibat, reklamanning foydalari biznes vakillarining daromadidan tashqariga chiqadi va iste'molchilarga turli yo'llar bilan yetadi. Ma'lumot berishdan va raqobatni kuchaytirishdan tortib, iste'molchilarni yangi

goyalar bilan tanishtirishgacha, reklama zamonaviy jamiyatda kop qirrali rol o'ynaydi.

68.Ba'zilar shaharda yashash tarafdori bo'lsa, boshqalar qishloqni afzal ko'rishadi.

Barchamizga ma'lumki, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda deyarli har bir shaxs yashash joyiga e'tibor qaratmoqda. Ba'zilar shaharda istiqomat qilishni afzal bilishsa, yana ayrimlar qishloqda umrguzaronlik qilishni ustun ko'rishadi. Aslida-chi, qaysi fikr o'rinliroq?

Bir tarafdin olib qarasak, rag'batlantiruvchi va rivojlantiruvchi muhitni izlayotganlar uchun shahar o'ziga jalb qiladigan jozibaga ega. Eng avvalo, u energiya bilan to'lib toshgan, turli xil odamlarni jalb qiladi va madaniyatlar, goyalar va tajribalar aralashmasini yaratadi. Statistikaqa qaraganda, eng ko'p odam Xitoyning Shanxay shahrida yashaydi-taxminan 25million kishi. Ushbu statistikadan ko'rish mumkinki, rivojlanishni istagan har bir inson shahar sari odimlaydi. Ikkinchidan, shahar iqtisodiy motor, ya'ni dvigatel vazifasini o'taydi. Ko'proq ish o'rinlari, yuqori maosh va yuqori darajadagi martabalarni taqdim etadi.bizneslar raqobatbardosh muhitni yaratadi, bu esa odamlarni mukammalikka intilishga va to'liq iste'dodlarini va salohiyatlarini namoyon etishga undaydi.

Boshqa tarafdin olib qaralsa, qishloq tinchlik, hotirjamlik va tabiat bilan aloqani izlayotganlarni o'ziga tortadi. Eng avvalo, qishloq mustahkam jamoatchilik hissiyotini rivojlantiradi, bu yerda yaqin munosabatlar umumiy qadriyatlar va tajribalarga asoslangan holda quriladi. Faktlarda keltirilishicha, hozirda qishloq aholisi jahon aholisining qariyb 53 foizini tashkil etadi. Hayotning sekinroq sur'ati oila va do'stlar bilan ko'proq vaqt o'tkazishga, chuqurroq bog'lanishlarni rivojlantirishga imkon beradi. Bundan tashqari, pastroq turmush darajasi va toza havo hamda tabiiy gozallikning mo'l-kolligi qishloqni sodda, barqaror turmush tarzini izlayotganlarga jozibador tanlovga aylantiradi.

Mening fikrimcha, tanlayotgan joyimiz bizning shaxsiy qadriyatlarimiz va intilishlarimiz bilan mos tushmoʻgi kerak. Men shahar hayotini afzal koʻrardim, negaki u yerda har tomonlama rivojlanish uchun imkoniyatlar talaygina.

Xulosa oʻrnida shuni aytmoqchimanki, shahar va qishloq oʻrtasidagi ideal tanlov insonning shaxsiy dunyoqarashiga bogʻliq. Shahar va qishloq ikkalasi ham insonga oʻzlari xohlagandek hayot kechirishlariga noyob yoʻllarni taklif qiladi.

69. Bugungi kunda turli xildagi tarjima qiladigan dasturlar koʻpaygani uchun chet tillarini oʻrganish shart emas. Ushbu fikrga qoʻshilasizmi?

Barchamizga maʼlumki, bugungi kunda aksariyat insonlardagi muhim muammolardan biri bu til oʻrganishga boʻlgan ehtiyojdir. Hozirda bir soʻzni boshqa tilga tarjima qilib beruvchi turli dasturlar koʻpayganligi sababli insonlar chet tilini oʻrganishni ortga surmoqda. Aslida, oʻzga tillarni oʻrganishning hozirgi kun kishilari uchun qanday muhim tomonlari mavjud?

Mening fikrimcha, tez rivojlanayotgan zamonimizda davr taqozosi tufayli odamlarda borgan sari til oʻrganishga boʻlgan talab ortib bormoqda. Chet tillarini oʻrganish insonlar uchun ish faoliyatida ham, maʼnaviy rivojlanishda ham koʻplab foydali imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Ayni kunda boshqa tillarda bemaʼlum soʻzlasha oladigan insonga

nisbatan odamlarda hurmat yanada ortadi va unga bo'lgan qarashlar ham ijobiy tomonga o'zgaradi. "Til bilgan el biladi", - deganlaridek, chet tillarini mukammal bilish bizga boshqa millatning urf-odatlarini, an'analari bilan yaqinroq tanishish va ana shu millat kishilari bilan o'zaro fikr almashish imkonini beradi. Masalan, yaqin bir do'stim dunyo ko'rish ilinjida Portugaliyaga safar uyushtirdi. U yerdagi kishilarning xatti-harakatlari, odatlarini ko'ra turib til bilmagani sababli ular bilan so'zlasha olmaganidan nolib qaytdi.

Boshqa tomondan olib qaraganda, so'zlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qiluvchi dasturlarning ham bizlar uchun foydali tomonlari mavjud. Xususan, biz ma'nosi tushunmay qiynalayotgan kamunum so'zlarni tarjima qilib berishda ushbu dasturlar juda qulaydir. Bundan tashqari, bizlar uchun dunyodagi barcha tillarni o'rganish imkonsiz, shu tomondan ushbu tarjima lug'atlar bizlar uchun juda qo'l keladi.

To'g'ri, kundalik hayotimiz va ish faoliyatimiz davomida ushbu dasturlar bizga qo'l kelar, ammo "Har to'kisda bir ayb", - deganlaridek, dastur va saytlar gaplarni, iboralarni tarjima qilayotganda bir qancha muammolarga yo'liqamiz. Google translate, Baidu translate, MyDefault translate va shu kabi dasturlar jummalarni aynan qolip asosida tarjima qilib bera olmaydi. Misol uchun, "A bird acts according to what it see in its nest", - maqoli o'zbek tilida "Qush uyasida ko'rganini qiladi", - tarzida tarjima qilishi kerak edi, ammo lug'at uni "Qush uyasida ko'rgan narsasiga qarab harakat qiladi", - tarzida tarjima qilib qo'ygan. Mana shunday paytda bizlar uchun til o'rganimiz, albatta, manfaatli bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bizlar uchun hozirda bir nechta o'zga tillarni yaxshi bilish juda foydali, shuning uchun barcha bunga astoydil kirishmog'i zarur. Zero, "Harakatda - barakat". Ba'zilar tarjimon lug'atlardan foydalanishni afzal deb bilishar, to'g'ri, kezi kelganda

ushbu dasturlarning ham bizlar uchun nafi tegar, ammo men ko'proq xalqaro tillarni o'rganishni yoqlayman.

70. Ba'zilar davlat maktablarini yaxshi deb hisoblashsa, boshqalar xususiy maktablarni yoqlashadi.

Hech kimga sir emaski, bugungi bugungi ilm-fan rivojlangan davrda xususiy tashkilotlar insonlarning e'tiborini zabt etmoqda. Ba'zilar nodavlat ta'lim muassasalarini afzal bilishsa, ayrimlar davlat maktablarini ma'qul ko'rishadi. Xòsh, aslida-chi, qaysi ta'lim makoni òz afzalliklarini kòproq namoyon etadi?

Bir tomondan olib qarasak, xususiy maktabning ustunliklari kòp deb hisoblaydiganlar uning quyidagi afzalliklarini yoqtirishgan. Eng avvalo, nodavlat umumiy ta'lim muassasalarida kòpincha kichik sinflar, kòproq shaxsiy e'tibor, yuqori malakali òqituvchilar va qòshimcha òquv dasturlarini taklif qilishadi. Oxirgi yillarda ushbu ta'lim maktablariga bo'lgan qiziqish ortmoqda. Statistika shuni kòrsatadiki, yurtimizda 2020-yil 140ta, 2023-yil esa 383ta nodavlat maktablar faoliyat kòrsatadi. Ikkinchidan, xususiy maktablarda kòpincha tartib-intizom qoidalariga qattiqroq bòlishadi, bu esa ba'zi òquvchilar uchun ijobiy omil bòlishi mumkin. Natijada òquvchilar aqlli va odobli bòlib yetishadi.

Boshqa tomondan olib qaralsa, davlat maktablari ishonchli deb qaraydiganlar uning uzoq vaqt faoliyat kòrsatishini hamda bepulligini afzal bilishadi. Eng avvalo, davlat maktablari bepul va barcha bolalar uchun ochiqdir. „Ilmning oshigi bòlgan òquvchi òqish uchun manzil tanlamaydi“, deganlaridek, sharoiti yetarli bòlmagan, ammo òqishni istovchilar uchun davlat maktablari quvonarli tanlov desak yanglishmaymiz. Ikkinchidan, u yerda kòpincha xususiy maktablarda topilmaydigan qòshimcha dasturlarni taklif qilishadi, masalan, tekin ovqatlanish dasturlari va boshqa ijtimoiy xizmatlar.

Mening fikrimcha, qaysi maktab turini tanlash- xususiy yoki davlat-òquvchining shaxsiy ehtiyojlari va ota-onalarning imkoniyatlariga bo'g'liq.

Men imkoniyat бўlsa xususiy ta'lim tarafdoriman. Negaki sifatli ta'lim–kelajagimiz poydevoridir.

Xulosa órnida shuni ta'kidlash joizki, ham xususiy, ham davlat maktablarining óziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor . Ota-onalar har ikki turdagi maktablar haqida batafsil ma'lumotga ega бўlib, óz farzandlarining ta'limi uchun eng yaxshi tanlovni qilishlari kerak .

71.Bugungi kunda elektromobillarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shunga qaramay, yonilg'i bilan harakatlanuvchi avtomobillarga bo'lgan qiziqish ham kamaygani yo'q.

Barchamizga ma'lumki, aholi orasida uzog'ini yaqin qilishda qanday turdagi avtomashinalardan foydalanish kerakligi haqidagi bahs-munozaralar dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Ayrimlar ovozsiz rejimdagi avtomobillarning afzalliklari ko'pligini ta'kidlashsa, boshqalar esa yonilg'i bilan harakatlanuvchi mashinalarni afzal deb hisoblashmoqda. Aslida-chi, qaysi tomon egalarining fikri jamiyatimizning nurli hayoti uchun manfaatliroq?

Bir tomondan olib qaraganda, "Sog' tanda – sog'lom aql" degan naqlga amal qilayotgan insonlarning ham asoslari mavjud. Birinchidan, elektromobillar ekologik jihatdan zararsiz hisoblanadi, chunki ular tabiatga juda kam miqdorda chiqindi chiqarishi tufayli atrof-muhitga zarar yetkazmaydi. Fransiya hukumati bu omillarni e'tiborga olgan holda 2030-yilgacha benzin, dizel singari yoqilg'ilardan foydalanuvchi transportlardan to'liq voz kechish strategiyasini ishlab chiqqan. Ikkinchidan, an'anaviy dvigatellarga qaraganda energiyani samarali ishlatadi va yuqori samaradorlikka ega, chunki bunday turdagi mashinalarda ichki yonuv jarayoni kuzatilmaydi. Natijada texnik xizmatdan doimiy foydalanishga hojat qolmaydi.

Boshqa tomondan olib qaraganda, "Vaqting ketdi – naqting ketdi" degan naqlga rioya qilgan holda an'anaviy avtomobillarni tanlayotganlar ham yo'q emas, albatta. Avvalo, bunday turdagi mashinalarga istalgan joyda tez yonilg'i quyish imkoniyati mavjud. Elektr orqali harakatlanuvchi

transportlarni quvvatlash uzoq vaqt talab etadi va quvvatlovchi shaxobchalar ko'p mamlakatlarda hali ommalashmagan. Benzin va gaz quyish bekatlarini esa dunyoning istalgan burchagidan topish mumkin. Shuningdek, keng turdagi xizmat tarmog'i borligi tufayli sizga yoqqan mexanikka mashinangizni ko'rsata olasiz va ehtiyot qismlar topishda qiynalmaysiz. Natijada sizga qo'yilgan ehtiyot qismlarning haqiqiyliigi va xizmatning yaxshi ko'rsatilganiga shubha qolmaydi.

Mening nazarimda, zamon bilan hamnafas bo'lgan holda elektron turdagi transportlarni tanlaganimiz ham o'zimizga, ham tabiatga foydalidir. Negaki bular o'zidan karbonat angidrid kabi zaharli gazlarni atrofga chiqarmaydi. To'g'ri, an'anaviy mashinalarda uzoq masofaga harakatlana olasiz, lekin yonilg'i narxi doimiy ravishda o'zgarib turadi. Bu esa xarajatlar oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

"Yaxshi so'z mo'tabar – so'nggi so'z muxtasar" deganlaridek, global isish miqdorini kamaytirish uchun an'anaviy avtomobillardan voz kechish barchamiz uchun foydali tanlov hisoblanadi. Elektromobillar esa bunday omillarga sabab bo'lmaydi va mutlaqo xavfsizlik qoidalariga javob beradi. Ko'p rivojlangan mamlakatlarda bu omillarni inobatga olgan holda "Yashil makon" kabi loyihalar yo'lga qo'yilgan.

72. Ayrimlar ta'lim hamma uchun bepul bo'lishi kerak deb hisoblaydi, ba'zilar esa ta'limga tikiladigan mablag' muvaffaqiyat uchun xizmat qiladi deb o'ylaydi.

Fan-texnika borgan sari rivojlanib borayotgan zamonimizda aksariyat insonlar orasida ilmga bo'lgan talab yanada o'smoqda. Ular ta'limning hamma uchun bepul bo'lishi va hamma birdek ilm olishi kerak deb hisoblashsa, ba'zi kishilar yoshlarning bilim olishini yanada takomillashtirish maqsadida sarmoya kiritishni xohlashadi. Aslida, bugungi zamon avlodlarini o'qitishda qaysi uslub foydali bo'ladi.

Jamiyatimizda turli sohalar yuksalib ular tufayli insonlarning hayoti birmuncha yaxshilanar ekan, avvalo, shu kasb egalarining maydonga kirib kelishiga sababchi bo'lgan maktablarning o'rni beqiyosdir. Barcha yoshlarning bepul ta'lim olishi tarafdori bo'lgan kishilarning ushbu qarorga kelishiga bir qancha sabablar mavjud. Jumladan,

maktablarning bu usulda o'qitish tizimi Respublikamiz bo'yicha jamiki bolalarni ilimli qilishga zamin yaratadi. "Besh qo'l barobar emas" deganlaridek, ta'lim uchun hammaning ham sarmoya kiritishga qurbi yetmasligi mumkin. Shunday vaziyatda bilim berishning bepul bo'lishi iqtidorli, lekin kam ta'minlangan bolaning o'zini ko'rsatishiga imkon yaratadi. Xususan, Vatanimizning ayrim ziyoli mashhur kishilaridan E. Vohidov, M. Yusuf, A. Qodiriylar ham oddiy qishloq oilasidan chiqqan bo'lsa-da, ularda adabiyotga bo'lgan qiziqish va muhabbat tufayli ardoqli siymolarimizdan biriga aylanishgan.

"Har yaxshining bir yomoni bor" deganlaridek, bugungi kunda davlatimizning har bir maktabida o'qitish tizimini yaxshi deya olmaymiz. Ba'zi maktablar shart-sharot jihatdan, boshqalarida esa pedagoglar tomondan kamchiliklar ko'zga tashlanishi va bunday vaziyatda salohiyatli bolalar o'smay qolib ketishi mumkin. Ushbu holatning oldini olish va iste'dodli yoshlarni to'g'ri sohalarga yo'naltira olish uchun ota-onalar ta'limga sarmoya kiritishni ma'qullashmoqda. Ushbu tizim o'quvchilarning zamonaviy texnologiyalar va saralab olingan ilg'or kadrlardan bilim olishiga yordam beradi.

Fikrimcha, davlat faqatgina boy yoki o'rta hol oila holatidan kelib chiqib emas, balki barchaning manfaatini ko'zlagan holda qaror chiqargani ma'qul. Darhaqiqat, hukumatimiz vakillari bunday vaziyatga oldinroq to'xtalib hamma uchun 11 yillik majburiy bepul ta'lim olishni belgilab qo'ygan. Mana shu bosqichdan so'ng yoshlar uchun pulli zamonaviy ta'lim ham joriy etilgan. Shunday bo'lsa-da, farzandining kelajagi uchun ko'proq ini istayotgan ota-onalarga xususiy maktablarda o'qitishga ruxsat etilgan. Bunday xususiy maktablarda ta'lim pulli va shunga monand o'qitish uslubi ham samarali. Xususan, bizning hududda "Turon", "Eljas", "Dream life" kabi xususiy maktablar o'z faoliyatini olib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni ilimli, ilg'or va o'z kasbining mutaxassisi qilib tayyorlash siz-u bizning muhim burchimizdir. Davlatimiz ham 11 yillik majburiy ta'limda asosiy e'tiborni ustozlarning malakasini yanada oshirishga, ularni harakatga undashga va maktab shart-sharotlarini yanada yaxshilashga qaratishi lozim. Shunday ekan, men yoshlarning dastlabki majburiy ta'limda o'qishi va

o'z mehnati bilan erishib oliy o'quv yurtlarida tahsil olishi tarafdoriman. Hozirgi kunda yoshlarning ta'limda ortda qolayotganiga guvoh bo'ladigan bo'lsak, bu - davlatimizning ta'limda oqsayotganining belgisi.

73. Yonilg'i narxini ko'tarish muammolarga yechim bo'la oladimi?

Hozirgi kunda atrof-muhit muammolari jahon miqyosida dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Havo ifloslanishi, global isish va tabiatga zarar yetkazuvchi omillar insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolar qatoriga kiradi. Ayrim mutaxassislar va siyosatchilar ushbu muammolarni hal qilish uchun yonilg'i narxini oshirish eng samarali yechimlardan biri deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, yoqilg'i qimmatlashishi natijasida avtomobillardan foydalanish kamayadi, muqobil energiya manbalariga talab ortadi va ekologik muammolar yumshatiladi. Biroq, bu g'oya ko'plab e'tirozlarga sabab bo'lib qolmoqda.

Bir tomondan olib qaraganda, yonilg'i narxining oshishi tarafdorilarning ham qarashlari o'rinli aslida. Birinchidan, yonilg'i narxining oshishi odamlarning transport vositalaridan foydalanishiga bevosita ta'sir qiladi. Masalan, benzin va dizel narxining yuqorilashi odamlarni shaxsiy avtomobillarni kamroq ishlatishga majbur qiladi va ommaviy transportga bo'lgan talabni oshiradi. Natijada, atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdori kamayishi mumkin. Bundan tashqari, elektr va gibrid avtomobillarga bo'lgan qiziqish ortib, ekologik toza transport vositalarining keng tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, yonilg'i narxini oshirish atrof-muhit muammolariga qarshi samarali chora bo'lishi ehtimoli yuqori.

Tanganing ikki tomoni bo'lganidek, bu usulning salbiy tomonlari ham yo'q emas. Yonilg'i narxining oshishi iqtisodiy jihatdan og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, kam ta'minlangan aholi qatlamlari bundan eng ko'p aziyat chekadi. Ko'plab ishchilar transport xarajatlarning oshishi tufayli qiyinchiliklarga duch keladi. Bundan tashqari, yonilg'i narxi oshishi boshqa mahsulot va xizmatlarning narxlariga ham ta'sir qilishi mumkin, chunki transport xarajatlari har

qanday iqtisodiyotning ajralmas qismidir. Shuningdek, yonilg'i narxining oshishi ekologik muammolarni hal qilish uchun yetarli chora bo'la olmaydi. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha kompleks yondashuv talab etiladi. Masalan, muqobil energiya manbalarini rivojlantirish, ommaviy transport tizimini takomillashtirish, sanoat korxonalarining chiqindilarini kamaytirish va ekologik ta'limni kuchaytirish yanada samarali usullar bo'lishi mumkin. Agar faqat yonilg'i narxini oshirishga e'tibor qaratilsa, bu jamiyatda norozilikni kuchaytirib, iqtisodiy muammolarga olib kelishi mumkin.

Mening fikrimcha, yoqilg'i narxi oshishi odamlar kamroq yoqilg'i sarflashga harakat qilishiga sabab bo'ladi. Bu esa atrof-muhitga foydali. Shuningdek, muqobil energiya manbalariga qiziqish ham ortadi. Bu esa yangi texnologiyalarning rivojlanishiga turtki bo'ladi. Yana bir tomoni, yoqilg'i narxi oshganda, jamoat transportidan foydalanish ko'payadi. Bu esa tirbandlik va havoning ifloslanishini kamaytiradi. Shuni ham aytish joizki, yoqilg'i sotuvchilarning daromadi oshib, yangi ish o'rinlari yaratishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, yonilg'i narxining oshishi atrof-muhit muammolarini hal qilishda muhim vosita bo'lishi mumkin. Ushbu strategiya orqali odamlar shaxsiy avtomobillarni kamroq ishlatishga intiladi, ekologik toza transport vositalariga talab ortadi va zararli gazlar chiqindilari kamayadi. Shu sababli, ekologik muammolarni kamaytirishda bu usul ma'lum darajada samarali deb hisoblanishi mumkin. Ammo uning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini yumshatish uchun muqobil energiya manbalarini rivojlantirish, ommaviy transportni yaxshilash va ekologik ta'limni kuchaytirish kabi qo'shimcha chora-tadbirlarni ham ko'rish lozim. Shu tariqa, yanada samarali va barqaror yechimga erishish mumkin.

74. Ba'zilar yonilg'i narxini ko'rsatish kerak desa, boshqalar bu fikrga qarshi bo'lishadi.

Hech kimga sir emaski, aholi sonining oshishi, fan va texnika taraqqiyoti, inson ehtiyojlarining ortishi oqibatida dunyo hamjamiyatida qator ekologik muammolar yuzaga kelmoqda. Ayrimlar yonilg'i narxining oshishi bu muammolarning oldini olishini ta'kidlasa, boshqalar bu qarashlar to'la yechim bo'la olmasligini aytishadi. Xo'sh, qaysi tarafning mulohazasi o'rinli?

Darhaqiqat, bugungi kunda global ekologik muammolar barchani birdek tashvishga solmoqda. Uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Shu bilan bir qatorda, yonilg'i narxining oshirilishi muammoga yechim bo'lishini aytuvchilarning ham asosli sabablari bor. Avvalo, narxning oshishi transport vositalari qatnovini sezilarli darajada kamaytiradi. Bilamizki, avtomobillardan chiqayotgan zaharli moddalar inson salomatligi uchun juda xavflidir. Masalan, Jahon sog'liqni saqlash vazirligi Yevropada zaharli gazlar natijasida yiliga 225000 odam bevaqt vafot etishi, shahar aholisi turli kasalliklar, jumladan, ateroskleroz, yurak qon-tomir sistemasining buzilishlari, o'pka raki kabilarga duchor bo'layotganini ta'kidlamogda. Mashinalar qatnovini kamaytirish orqali atmosferaning tozalanishiga erishish mumkin. Shuningdek, odamlar shaxsiy mashinadan kamroq foydalanib, asosan, kamxarj bo'lgan jamoat transportlarida harakatlanadilar. Bu esa tirbandlikning oldini oladi. Misol uchun, Yaponiyada yuqori narxlar tufayli temiryo'l va metrolardan aholi ko'proq foydalanadi. Bu kunchiqar mamlakatda boshqa davlatlarga qaraganda tirbandlik darajasi pastroq.

"Tanganing ikki tarafi bor", - deganlaridek, yonilg'i narxi oshirilishining salbiy oqibatlari ko'pligini ta'kidlovchilarning ham yetarli sabablari bor. Birinchidan, iqtisodiy tengsizlikni vujudga keltirishi mumkin. Ma'lumki, mamlakatimizda daromadi kam oilalar aholining 40-50 foizini tashkil qiladi. Narxning o'sishi bunday oilalarda moliyaviy muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, qishloq joylarda yashovchi aholi uchun shaharga ishga, o'qishga har kuni qatnash qimmatga tushib ketadi. Ikkinchidan, ishsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Mamlakatimizda mashina haydovchilar ko'pchilikni tashkil qiladi. Yonilg'i narxining oshishi tufayli aholi ko'proq jamoat transportidan foydalanadi. Natijada taksi haydovchilarining daromadi tushib ketadi va ular ishini tashlashga majbur bo'ladi. Masalan, Afg'onistonda bu muammo sababli 30-40 foiz haydovchi ishsiz qolgan.

Mening fikrimcha, yonilg'i narxini oshirish global ekologik muammolarni hal qilishning yagona va eng yaxshi usuli emas. To'g'ri, uning afzallik taraflari bo'lishi mumkin. Binobarin, narxning qimmatlashishi oqibatida avtomobil narxlari tushib bormoqda. Masalan, Afg'onistonda mashinalar narxi 50 foizga kamayganini misol qilish mumkin. Ammo bular muammoga yechim bo'la olmaydi. Muammoni hal qilishda ko'p qirrali yondashuv zarur bo'lib, u qayta tiklanuvchi

elektr manbalariga investitsiyalar kiritish, energiya samaradorligini oshirish, ekologik toza texnologiyalarni, jumladan, quyosh panellari, shamol tegirmonlarini rivojlantirish kabi boshqa chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Masalan, Norvegiyada oddiy mashinalardan ko'ra elektromobillar bozori rivojlanmoqda.

Xulosa qiladigan bo'lsam, masalaga har taraflama yondashib, samarali usulni tanlagan foydaliroqdir. O'zbekistonda ham elektromobillardan foydalanishni keng targ'ib qilish, tabiiy texnikalarni ko'proq qo'llash va uni takomillashtirish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin. Hamma bir yoqadan bosh chiqarib bu ishga hissa qo'shsa, barcha uchun manfaatli bo'ladi.

74. Ba'zi odamlar yonilg'i narxini oshirish global ekologik muammolarni hal qilishning eng yaxshi usuli deb hisoblaydi. Ayrimlar esa bu masalaga jiddiy e'tiroz bildirishadi.

Barchamizga ma'lumki, global ekologik muammolar, ayniqsa iqlim o'zgarishi, dunyo miqyosida jiddiy muhokama qilinmoqda. Ushbu muammoni hal qilish uchun turli xil choralar taklif etilmoqda, ulardan biri yonilg'i narxini oshirish haqidagi bahs-munozaralar dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Ba'zi odamlar bu chorani global ekologik muammolarni hal qilishning eng yaxshi usuli deb hisoblaydilar, ayrimlar esa unga jiddiy e'tiroz bildirishadi.

Bir tomondan olib qaraganda yonilg'i narxini oshirishning ekologiyaga foydasi ko'proq deb hisoblovchilarning ham o'ziga yarasha sabablari bor. Yuqori narx odamlarni yoqilg'i sarfini kamaytirishga, kamroq avtomobil ishlatishga, jamoat transportidan foydalanishga, energiya tejaydigan texnologiyalarni qo'llashga va umuman ekologik toza turmush tarzini olib borishga undaydi. Shuningdek, avtomobillar kamroq harakatlanishi uchun metan narxining oshishi inson salomatligiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Bu esa, o'z navbatida, karbonat angdrid, gazining chiqindisini kamaytirishga va iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini yumshatishga yordam beradi.

Besh qo'l barobar bo'lmaganidek, yonilg'i narxini oshirishning jamiyatga salbiy ta'siri bor deb aytuvchilarning ham o'z haqiqatlari bor. Avvalo, bu narxlarning oshishi odamlarning hamyoniga jiddiy ta'sir qiladi, ayniqsa

kam daromadli oilalar uchun. Ularning transport xarajatlari oshishi, oziq-ovqat va boshqa tovarlarning narxi ko'tarilishi natijasida hayot darajasi pasayishi mumkin. Bundan tashqari, bu choralar iqtisodiyotga ham salbiy ta'sir qilishi mumkin, chunki ishlab chiqarish xarajatlari oshishi natijasida narxlar ko'tariladi va ish o'rinlari yo'qoladi. Buning oqibatida ishsizlik va kambag'alchilik yuzaga keladi.

Mening fikrimcha, yonilg'i narxini oshirishning boshqa muammolarga olib kelish xavfi ham mavjud. Masalan, bu choralar noqonuniy yoqilg'i savdosini kuchaytirishi va atrof muhitga zarar yetkazuvchi texnologiyalarni rivojlantirishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun metanlar narxi oshmagani maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, yonilg'i narxini oshirishning ekologik foydalari va jamiyatga salbiy ta'siri o'rtasida muvozanatni saqlash muhimdir. Yonilg'i narxini oshirish eng so'nggi chora bo'lmasligi kerak. Bu chorani qo'llashda boshqa ekologik toza energiya manbalarini rivojlantirish, jamoat transporti tizimlarini yaxshilash, energiya tejaydigan texnologiyalarni qo'llash va kam daromadli oilalarga yordam berish kabi boshqa choralarni ham hisobga olish kerak.

75. Ta'lim bepul bo'lishi kerakmi yoki pulli?

Ta'lim har bir jamiyatning rivojlanishi, inson huquqlari va tenglikni ta'minlash uchun muhim asosdir. Yaratilishidan boshlab, ta'lim har bir shaxsning potentsialini ochishga, jamiyatni yaxshilashga, va dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishga yordam beradi. Bugungi kunda, ba'zi odamlar ta'limni bepul qilish zarurligini ta'kidlasalar, boshqalar esa ta'limga sarflangan mablag'ning jamiyat rivojiga xizmat qilishiga ishonishadi. Aslida, jamiyatimiz a'zolarining qaysi qarashlari o'rinli?

Bir tomondan olib qaraganda, ta'limning bepul bo'lishi taraftdorlarining ham qarashlari o'rinli aslida. Tölovsiz ta'lim g'oyasi ko'plab mamlakatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bepul bilim berish jamiyatda tenglikni ta'minlash, ijtimoiy adolatni oshirish va har bir insonni o'z potentsialiga erishish imkoniyatlari bilan ta'minlashga yordam beradi. Agar ta'limda pullik to'lovlar bo'lsa, kambag'al oilalar uchun

bolalarining ta'lim olishi qiyinlashadi, bu esa ijtimoiy stratifikatsiya va tengsizlikni kuchaytiradi. Bepul ta'lim tizimi barcha qatlamlardagi fuqarolarga bir xil imkoniyatlar yaratadi va bu, o'z navbatida, iqtisodiy taraqqiyot va barqaror jamiyat qurishga xizmat qiladi. Misol uchun, Skandinaviya davlatlari, xususan, Shvetsiya, Norvegiya va Daniyada ta'lim tizimi keng tarqalgan va barcha uchun bepul. Bu mamlakatlar o'zining ta'limga bo'lgan yondashuvi bilan dunyo miqyosida yuqori darajada rivojlangan davlatlar sifatida tanilgan. Ularning ta'lim tizimi sifatli va hamma uchun ochiq, natijada iqtisodiyot va ijtimoiy farovonlikda katta yutuqlarga erishganlar. Bepul ta'limning ahamiyatini tan olish, odamlarning o'z bilimlarini oshirish va dunyoqarashini kengaytirish uchun zarurdir.

Boshqa tomondan, ta'limga tikiladigan mablag'lar faqat shaxsiy rivojlanish uchun emas, balki butun jamiyat uchun foydali bo'lishi kerak. Ta'lim tizimiga investitsiya qilish orqali davlatlar o'z iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan malakali va bilimdon ishchi kuchini tayyorlaydilar. Biror mamlakatda ta'lim tizimi mustahkam bo'lsa, uning raqobatbardoshligi va innovatsion salohiyati yuqori bo'ladi. Shuningdek, ta'limda sarflanadigan mablag'lar milliy iqtisodiyotning o'sishiga xizmat qiladi, chunki ta'limli fuqaro nafaqat iqtisodiy muvaffaqiyatga erishadi, balki jamiyatda yaxshiroq muammolarni hal qilishga qodir bo'ladi. Yuqori sifatli ta'lim tizimi yaratish uchun resurslar zarur. Bunday tizimni yaratish va uni saqlab qolish uchun mablag'ni jamiyatning barcha qatlamlaridan olish lozim. Ta'limga sarmoya kiritish o'quv dasturlarini yangilash, o'qituvchilarning malakasini oshirish va innovatsion texnologiyalarni ta'limga qo'shish imkonini beradi. O'z navbatida, ta'limga sarflangan mablag' uzoq muddatda jamiyatni rivojlantiradigan, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan va iqtisodiy o'sishning asosiy poydevori bo'ladi.

Mening fikrimcha, bepul ta'lim va ta'limga investitsiya qilish o'rtasida muvozanatni topish muhimdir. Bepul ta'lim tizimi mavjud bo'lsa-da, bu tizimning samarali ishlashi uchun davlatning sarmoyasi zarur. Shunday qilib, ta'lim jamiyat uchun bepul bo'lishi kerak, ammo bu tizimni mukammal ishlatish va rivojlantirish uchun zarur resurslar va investitsiyalar ham bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, ta'limni bepul qilishning ijtimoiy adolatga va tenglikka xizmat qilishdagi o'rni beqiyosdir. Bepul ta'lim berish, umuman olganda, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va jamiyatni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Biroq, bu tizimni samarali amalga oshirish uchun

sifatli ta'lim resurslari va to'g'ri boshqaruv zarur. Resurslar va o'qituvchilarni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

76. Test tizimimi yoki an'anaviy baholash?

Zamonaviy texnologiyalar asrida yashar ekanmiz, ta'lim sifatini oshirish maqsadiga qaratilgan yosh o'quvchilarning bilimini baholash uchun turli yondashuvlar mavjud. Bir paytning o'zida jamiyatimiz a'zolarining aksariyati test tizimi baholash uchun afzal deb hisoblashsa, qolganlar an'anaviy usul qulay deb ta'kidlashmoqda. Xo'sh, qaysi tizim samarador hisoblanadi?

Bir tomondan olib qaraganda, test sinovlarini ma'qullovchilarning ham yetarli asoslari mavjud. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yildan boshlab test sinovlari natijalari hisoblanganda 70% samarador tamoyil ekanligi aniqlandi. Bu keng hajmdagi mavzular bo'yicha qisqa vaqt ichida bilimni tekshirish imkonini beradi. Natijada talabalarda mavzular yuzasidan tezkor xotira va esda saqlab qolish qobiliyati shakllanadi. Ikkinchidan, test javoblarini avtomatlashtirilgan texnikalar orqali aniq va tez tekshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Shuningdek, bu o'qituvchilarning ish faoliyat jaroyoni uchun qisqalik yaratadi. Ko'plab yozma ishlarni birma-bir o'qib tekshirish kabi masalalarga bir karra yechim topiladi.

Boshqa tomondan olib qaraganda, an'anaviy tarzda tashkil etiladigan baholashni afzal deyuvchilarning ham asoslari yetarlicha. Azaliy usuldagi baholash tizimida har bir o'quvchilari uchun yakka tartibda vaqt ajratiladi. Shu bois, individual tartibda o'quvchi barcha mavzularni birma-bir takrorlaydi. Dono xalqimiz ta'kidlaganidek, "Bilimlarning onasi takrorlash." Shuningdek, o'quvchilarga o'z fikrlarini to'liq va mazmunli ifodalashga zamin yaratadi. Bunda tolibi ilmlarda shaxsiy fikrlash va ma'suliyat hissi shakllana boradi. Natijada, talabgorning bilimiga xolisona baho qo'yish ham yengillashadi.

Mening nazarimda, DTS talablari asosida shakllangan test tizimida bir qancha kamchiliklar mavjud. Bu o'quvchilar orasida ko'chirmachiliklar soni ko'payishiga sabab bo'la oladi. Shu tufayli, an'anaviy baho tartibi bir qancha samarador. Avvalo, o'quvchilar fikrlarini dalillab, asoslab berishga majbur bo'lgan holda, yakdil baholanadi. Natijada, mantiqiy va tanqidiy

tahlil o'sib boradi. Ikkinchidan, bu tizim reallik kasb etadi. Negaki, o'qituvchi hayotiy vaziyatlarga mos keluvchi topshiriqlar asosida bilimlarni sinovdan o'tkazadi. Shu bois, ilm toliblari hayotda nutqiy kompetentsiyaga va turli vaziyatlarga moslashuvchanlikka ega bo'ladi.

Muxtasar qilib aytganda, o'quvchilar bilimini baholash xolislik va samaradorlikka bog'liq. An'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan baho dasturlari bunday imkoniyatni yaratib beradi. Bu tizimda analitik fikrlash, amaliy ko'nikmalarni sinash uchun qulaylik beradi.

77. Ta'lim bepul bo'lishi kerakmi yoki pulli?

Hech kimga sir emaski, rivojlanib borayotgan davrda ta'lim sohasi bahs-munozarali mavzuga aylanmoqda. Ba'zilar bilim berish manzilgohlari bepul bo'lishi kerakligini ta'kidlashsa, boshqalar esa qarama-qarshi fikrda. Aslida-chi, qaysi tomon egalarining fikri kelajak davomchilarining hayotida muhim rol o'ynaydi?

Jamiyatimizning ayrim toifa vakillari ta'limni uzviy moddiyat bilan bog'laydi. Albatta bu tashabbus uchun ham yetarlicha sabablar bor. Misol uchun, zamonaviy texnologiyalar, sport anjomlari, tajribali ustozlar-barchasi moddiy shakillangan, ya'ni xususiy maktablarda bor. Chunki, bunday maktablar asosiy sarmoyani bilim berish va sifat bilan ta'minlashga yo'naltiradi. Shu sababli, bunday dargoh bitiruvchilarining natijalari, boshqa bepul maktablarinikidan ko'ra balandroq. Shuningdek, ushbu o'quv markazlarining yana bir ustun tomoni shundaki, sinf xonalarida bolalar soni cheklangan. O'qituvchi har bir o'quvchi bilan individual shug'ullana oladi. Ota-onalar o'z farzandlarida mavzu yuzasidan ortiqcha savollar tug'ilmasligi uchun bu ta'lim tizimini tanlaydilar. Yaqqol misol qilib Olmaliq shahridagi "Buxoro maktabi"ni olsak, bilim beradiganlar bilim oladiganlarga alohida e'tibor qaratadi.

"Haqiqat bahs-munozaralarda aks etgan"- deganlaridek, bepul ta'limni xohlaydiganlar ham topiladi. Ularning ham bunday fikr uchun asosli dalillari bor. Birinchidan, jamiyatda moddiy tabaqalanishga chek qo'yiladi. "Besh qo'l barobar emas"- deb aytganlaridek, ba'zi vaqtlarda ota-onalarni farzandlarining o'qishi uchun ortiqcha mablag'i bo'lmaydi. Bunday vaqtlarda davlat tomonidan bepul ta'lim beradigan maktablar muommoga yechim bo'ladi. Davlat o'quv maskanlari bolalarni teng va

sifatli o'qitishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, hukumat maktablari o'quvchilarining tartibli va intizomli bo'lishiga katta yordam beradi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, Rossiya, Germaniya va bir qancha moliyaviy barqaror bo'lgan davlatlar an'anaviy, ya'ni bepul maktablarni ustun ko'radi, chunki eng boy insonlar ham bepul maktablarda tahsil olgan.

Mening fikrimcha, ota-onalar o'zlaring birinchi investitsiyasini farzandlarining o'qishiga sarf qilgani ancha foydaliroq va savobliroqdir. To'g'ri, doimiy o'quv dargohlari ham qulay, ammo kelajak qo'lida bolgan insonlar uchun alohida e'tibor asosiy o'rinda. Mashhur trader Andrew Tate ham shunday fikr bildirgan: "Eng yaxshi pul tikish uchun biznes bu-bolalar maktabi". Haqiqatdan ham o'quvchilarni yoshligidan oq mas'uliyatni his qildirish uchun xususiy maktablar, ayni muddao.

Xulosa qilib aytganda, kelajak davomchilarini aqilli va iqtidorli bo'lib o'sishi uchun qancha pul sarflansa, shuncha oz. Bilim uchun sarflangan mablag' muvaffaqiyat uchun to'langan puldir.

78. Testmi yoki an'anaviy baholash?

Barchamizga ma'lumki, har qanday ta'lim tizimida baholash alohida o'rin egallaydi. U o'quvchilarning darajasini aniqlash, rag'batlantirish va o'qish jarayonini yaxshilash uchun xizmat qiladi. Ayrimlar test orqali baholash yaxshi samara berishini aytsa, qolganlar esa an'anaviy baholash shakli tarafdori. Aslida-chi, o'quvchilarning bilimni baholashda qaysi tanlov samaraliroq?

Bir tomondan olib qaraganda, test orqali baholash kerakligini aytuvchilarning ham o'ziga yarasha sabablari bor. Bu orqali o'quvchilar bilimni tez va aniq baholash imkoni vujudga keladi. Tanlangan javoblar asosida natijalarni avtomatlashtirilgan holda hisoblash mumkin. Bu esa o'qituvchilar uchun juda qulay. Shuningdek, testlar keng miqyosda mavzularni o'z ichiga olishi mumkin, bu esa turli bilimlarni baholashga yordam beradi. Hozirgi kunda maktablarda takrorlash mavzularida testlardan keng qo'llanilmoqda. Negaki har bir o'quvchidan birma-bir so'rashga vaqt yetmay qolishi mumkin. O'tilgan mavzular yuzasidan testlar orqali o'quvchining bilimni tekshirish tez va oson baholash imkonini beradi.

Tanganing ikki tomoni bo'lganidek, an'anaviy baholash shaklini tanlovchilarning ham o'ziga yarasha sabablari bor. Bu usul yozma ishlar yoki proyektlar orqali o'quvchilarning chuqur fikrlash va mantiqiy tahlil qilish ko'nikmalarini baholashga imkon beradi. Bu bolalarning mantiqiy tahlil qilishi, mustaqil fikrlashi va ijodkorligini baholash uchun mos. Bu orqali o'quvchini jamoat atrofida o'z mustaqil fikrini bildirishga o'rgatish ham mumkin. Shuningdek, an'anaviy baholash usulida o'qituvchi har bir o'quvchining ishini individual ravishda ko'rib chiqishi va buning natijasida o'quvchini shaxsiy fikrlashga undashi mumkin. Mustaqil fikr bildiradigan inson kelajakda o'z o'rnini topishda qiynalmaydi.

Mening fikrimcha, baholash test shaklida bo'lgani ma'qul. Masalan, fanlararo bo'ladigan milliy sertifikat imtihonini olsak. Bunda o'quvchilar bilimini aniqlash uchun test tizimidan keng foydalanmoqda. Negaki shu shaklda subyektivlik kam bo'ladi, testlar esa kompyuterlarda tekshiriladi. Shunda adolat barcha uchun birdek xizmat qiladi. Amir Temur bekorga: "Kuch - adolatda", - deb aytmagan.

Xulosa qilib aytganda, og'zaki va yozma olinadigan imtihonlarga qaraganda avtomatlashtirilgan baholash usulidan foydalanish afzalroq. Test tizimi ishonchli va tez. Bu orqali anchagina vaqtni tejash mumkin. Shunday ekan, bunday baholash tizimi sifatli kadr tayyorlash uchun alohida o'rin tutadi.

79. Asarning o'zini o'qigan afzalmi yoki asar asosida yaratilgan kinoni ko'rishmi?

Barchamizga ma'lumki, aholi orasida turli xildagi romanlar va hikoyalarga asoslangan filmlar haqidagi bahs-munozaralar dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Ayrimlar bu vaqtni tejashi mumkinligini ta'kidlashsa, boshqalar esa badiiy asar mahsulini his qilib o'qish kishining ijodiy fikrlashni ko'proq rivojlantiradi degan fikrda. Xo'sh, aslida ertangi kunimizning nuri diydalari qaysi yo'ldan borgan manfaatliroq?

Bir tomondan olib qaraganda, hikoyalarga bag'ishlangan kinolarni kuzatishni ijobiy deb hisoblaydiganlarning ham asosli sabablari bor. Avvalo, rang-barang tasvirlar, aktyorlarning ijodi va musiqa asarga chuqurroq kirib borishga yordam beradi, chunki vizual va ideal taassurot

kabilarning barchasi zamonaviy kino sanoatida mujassamdir. Shu sababli ham ko'pchilik insonlar kitob o'qishdan ko'ra bu yo'lni afzal ko'rmoqdalar. Shuningdek, ba'zi qadimda yozib qoldirilgan asarlarni tushunish kishiga og'irlik qilishi mumkin. Buning yechimi sifatida ekranda asarlarni qahramonlar bilan birga jonli holatda tomosha qilish tomoshabinga o'ziga hos hissiyot bag'ishlaydi va ayrim sahnalar ko'proq ta'sirli, qayg'uli bo'lishi ehtimoldan holi emas. Natijada murakkab syudjetlar yoki tarixiy davrlarni aks ettirish orqali badiiy maqsadni tushunish osonlashtiriladi.

Boshqa tomondan olib qaraganda, film tomosha qilishdan ko'ra kitob o'qishni afzal hisoblovchilarning ham o'ziga yarasha o'rinli asoslari mavjud. Birinchidan, kitob voqealarni batafsil tasvirlab, o'quvchiga badiiy tasvir maqsadni chuqur anglash imkoniyatini beradi. Bu o'z navbatida so'z boyligini ko'paytirib, yozma va og'zaki nutqni rivojlantiradi. Buning mevasi o'laroq yoshlarimiz tiniq fikrlaydigan bo'lishadi va yozuvchining to'liq nima demoqchi ekanligini tushunishadi. Ikkinchidan, kitob mutolaa qiluvchilarning o'z tasavvuridan foydalanishga majbur qilishi sababli tasavvur va ijodiy fikrlash rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida ularning har bir kichik detalni tushunishi bilan birgalikda hozirgi vaqtda ko'plab muammolarga sabab bo'layotgan fikrlash doirasi cheklanishi kabi yana bir salbiy illatlarning oldi olinadi.

Mening nazarimda, Imom Buxoriy bobomiz: "Kitobdan yaxshi do'st yo'q va bo'lmag'ay", – deb bejiz aytmaganlar. Chunki kitob muallif uslubini buzmasdan, asarning mohiyatini to'liq yetkazadi. To'g'ri, tez va vizual tarzda hikoyani tushunish muhim bo'lsa, film yaxshi tanlov bo'lishi mumkin. Ammo asarning har bir jihatini chuqur anglab, undagi fikrlarni tahlil qilish va tafakkur yuritib chiqishga nima yetsin.

„Yaxshi so'z mo'tabar – so'nggi so'z muxtasar", – deganlaridek, kitoblardan farqli o'laroq filmlarda tomoshabin zerikib qolmasligi uchun ssenariy o'zgartirilishi va ba'zi qismlar qisqartirilishi mumkin. Bu esa asarning asl mohiyatini buzishi ehtimolini oshiradi. Holbuki, kitob inson tafakkurini yuksaltiradi, nutq va fikrlash madaniyatini shakllantiradi. Bunday insonlar esa jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan yetuk shaxslarga aylanadilar.

80.Ba'zilar badiiy asar asosida olingan filmlarni ko'rishni afzal deb bilsa, boshqalar aynan o'sha kitobning o'zini o'qigan foydaliroq ekanini aytishadi

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanib, kinoindustriya yuksalayotgan bir paytda badiiy asarlar asosida suratga olingan filmlar ommalashmoqda. Ayrim insonlar kitob o'qishga vaqt sarflash o'rniga shu asarning ekranlashtirilgan variantini tomosha qilishni afzal bilishadi. Boshqalar esa asl manbani o'qish muhimroq ekanini ta'kidlashadi. Xo'sh, qaysi tarafning tanlovi o'rinli?

Bugungi kunda ko'plab mashhur badiiy asarlar ekranlashtirilmoqda. Odamlar vaqtini tejash uchun bu asarlarni o'qimasdan kinotalqinini tomosha qilmoqda. Film badiiy asarning o'ziga xos talqini bo'lib, uni tomosha qilish ham muhim afzalliklarga ega. Ayniqsa, tarixiy yoki fantastik janrdagi asarlar ekranga moslashtirilganda, tomoshabin o'sha davr muhitini yoki tasavvur qilib bo'lmaydigan sahnalarni aniq ko'rish imkoniga ega bo'ladi. Birinchidan, film qisqa vaqt ichida katta hajmli voqealarni yetkazib bera oladi, bu esa vaqt tejashni istaganlar uchun qulay. Masalan, "Uzuklar hukmdori" trilogiyasini olaylik. Bu asar murakkab va uzoq tasvirlangan bo'lib, har bir tafsilotni o'qib chiqish ancha vaqt talab qiladi. Filmni tomosha qilish jarayonida inson dunyoni jonli va ko'rgazmali tarzda, mohiyatini qisqa vaqt ichida tushunishga erishadi. Buning natijasi tomoshabinda kuchli taassurot qoldiradi.

Avvalo, kitob o'qish insonning tafakkurini rivojlantiradi, tasavvur doirasini kengaytiradi. Kitobxon voqealar rivojini o'z tasavvurida jonlantirib, muallif yaratgan olamni o'ziga xos tarzda qabul qiladi. Buning natijasida inson tasviriy fikrlashni rivojlantiradi va ijodiy tafakkurga ega bo'ladi. Bundan tashqari kitob o'qish til boyligini oshiradi. "Jahon adabiyoti" jurnalining yozishicha, ko'pgina dunyoga mashhur kishilar kitob o'qishning afzalliklarini ta'kidlashmoqda. Masalan, ko'pchilik "Qashqirlar makoni" serialini ko'rgan bo'lsa-da, Chingiz Aytmatovning "Bo'tako'z" qissasini o'qimagan bo'lishi mumkin. Film voqealar rivojini tez va dramatik tarzda ifodalasa-da, kitobni o'qigan odam obrazlarning ichki kechinmalarini, ularning ruhiy holatini chuqurroq his qiladi.

Mening fikrimcha, inson tasavvurini rivojlantirish, til boyligini oshirish va chuqur mushohada qilishni istasa, kitob o'qish maqsadga muvofiq. Farzandlar tarbiyasida ham kitobning o'rnini beqiyos.

Xulosa qiladigan bo'lsak, har ikkala usul ham o'ziga xos foydaga ega. Ammo kitob o'qish inson tasavvurni boyitib, uning tafakkurini chuqurlashtirishini hech qachon unutmaslik darkor. Zero o'sib kelayotgan avlod uchun asrlar davomida insoniyat boyligi bo'lmish kitoblarni mutolaa qilish, filmlarni tomosha qilishdan ko'ra ko'proq foydali ekanligini esdan chiqarmasligimiz zarur.

81. Bitta kasb egasi bo'lish kerakmi yoki bir necha kasbni egallash zarurmi?

Bugungi takomillashib borayotgan yurtimizda kasb masalasida turli xil ixtiloflar bor. Ba'zilar bu hayotda rohat-u farovonlikda yashash uchun bitta kasbning eng zo'ri bo'lish kerakligini ma'qul ko'rishsa, qolganlar bir nechta kasbning ustasi bo'lish yaxshi ekanligini ta'kidlashadi. Aslini olganda, bu fikrlar inson kelajagi uchun qay darajada manfaat keltiradi?

Darhaqiqat, bu dunyoda yaxshi yashash uchun bitta kasbning lideri bo'lish lozimligini ta'kidlaydiganlarning yetarlicha asoslari bor. Birinchidan, agar inson o'zi qiziqqan bitta sohaning eng zo'ri bo'lsa, tabiiyki, bir nechta kompaniyalar ko'proq miqdorda maosh to'lash orqali ishlashga taklif beradi. Bu esa ularning hayot davomida moliyaviy jihatdan qiyinchiliklarsiz yaxshi yashashiga sabab bo'la oladi. Ikkinchidan, hukumat ham mamlakat mavqeyi uchun bunday insonlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. Misol uchun, "The Forbes" jurnalining ma'lumotlariga qaraganda, Aqsh, Uae davlatlarida o'z kasbini mohir ustasi bo'lgan odamlarni qo'llab-quvvatlashi xabar qilingan.

"Haqiqat bahs-munozaralarda aks etadi",- deganlaridek, ikkinchi tomon fikrlarini ham inkor eta olmaymiz. Avvalo, odamlar bir nechta kasbning egasi bo'lish orqali qo'shimcha daromad topish mumkin. Shuningdek, ular ishda uchrab turadigan har qanday muammolarga yechim topa olishadi. Qolaversa, bir nechta kasbni egallaganlarning fikrlash qobiliyati yaxshi rivojlangan bo'ladi, ya'ni ular turli xil yangi g'oyalarni o'ylash orqali kompaniyalarga yordam beradi. Masalan, "The New York Times" nashriga ko'ra, 45.6 % inson turli xil kasbning egasi bo'lib, yuqori daromad qilishi aniqlangan.

Mening fikrimcha, "Yigit kishining qo'lga qirq hunar-oz",- deganlaridek, bir nechta kasbning egasi bo'lgan ma'qul, negaki ular ortib qolgan vaqtlarida daromad keltiradigan ish bilan shug'ullanishadi.

Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar rivojlanmoqda, tabiiyki, ayrim sohalar yo'qolish mumkin. Bunda ular hech qachon bitta kasbning egasi bo'lganlarga nisbatan qiynalmaydi.

Xulosa qilib aytganda, xoh insonlar bitta kasbning eng zo'ri bolishsin, xoh bir nechta kasb egasi, eng muhimi ular ishlashdan to'xtamasliklari muhim.

82. Maktabda uyga vazifa berilishi kerakmi yoki yo'q?

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda vazifa berish to'g'risida bahs-munozaralar dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Ayrimlar uy ishini ta'lim muhim qismi deb hisoblaydilar, shu sababli, bolalarga uyga vazifa berish kerakligini aytishmoqda. Boshqalar esa uni bolalarga ortiqcha bosim beruvchi omil deb hisoblaydilar va ular yuqoridagi fikrga qarshi. Aslida-chi, bolalar uchun qay biri ma'qul?

Birinchidan, uyga vazifa o'quvchilarning bilimni mustahkamlashga yordam beradi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlariga ko'ra, yangi o'rganilgan bilimni mustahkamlash uchun uni qayta takrorlash va mustaqil ravishda bajarish muhim sanaladi. Masalan, 2012-yilda AQShning NEC tashkiloti olib borgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, muntazam ravishda uyga vazifa bajargan o'quvchilar imtihonlarda yuqori natijalarga erishgan. Ikkinchidan, uyga vazifa bolalarda mustaqil ishlash va mas'uliyat hissini oshiradi. O'quvchi uyga vazifa orqali o'z vaqtini rejalashtirishni o'rganadi, muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi va o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga odatlanadi. Bu esa nafaqat maktabda, balki kelajakda ham unga foydali bo'lishi mumkin.

Biroq, uyga vazifaning ortiqcha yuk bo'lishi ham mumkin. Birinchidan, haddan tashqari ko'p uyga vazifa o'quvchilarning ruhiy va jismoniy charchashiga olib kelishi mumkin. Masalan, Finlyandiyada olib borilgan ta'lim islohotlari natijasida o'quvchilarga minimal miqdorda uyga vazifa beriladi, lekin ularning natijalari dunyoning eng yuqori ko'rsatkichlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ikkinchidan, uyga vazifa o'quvchilarning bo'sh vaqtini cheklab qo'yishi mumkin. Bolalar darsdan keyin dam olishlari, oilasi bilan vaqt o'tkazishlari, sport yoki san'at bilan shug'ullanishlari lozim. Haddan

tashqari ko'p uyga vazifa esa ularning ijodiy rivojlanishiga to'sqinlik qilishi va stress darajasini oshirishi mumkin. Keyin barcha o'quvchilar ham uyga vazifani bajarish uchun teng sharoitlarga ega emas. Ba'zi bolalar uyda tinch muhit yoki kerakli manbalarga ega bo'lmاسligi mumkin. Bu esa ularning ta'lim olish imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi va tengsizlikni kuchaytiradi.

Mening fikrimcha, bolalarga uyga vazifa o'z me'yorida berilgan ma'qul. "Yoshlikda olingan bilim, toshga chizilgan nashq", - deb bejizga aytilmagan. Qancha yosh vaqtdan bilim o'rgansa shuncha uzoq muddat esda qoladi. Bolalarni vazifalar bilan charchatib va ulardan zerikishga sabab bo'lmاسlik uchun turli ota-onalar turli mashq yoki ko'nikmalar orqali ularga yordam berishlari kerak. Hozirgi, kichik yoshdagilar juda qiziquvchan bu esa bermalol berilgan vazifalarni tayyorlashga bilimi va kuchi yetadi.

Xulosa qilib aytganda, tanganing ikki tarafi bo'lganidek, ularga o'zlariga mos holatda uy ishi berilsa, ular mukammal bilim olishadi va kelajakda o'z sohasida yetuk, bilimli mutaxassislar bo'lib yetishib chiqishadi.

83. Ba'zilar uyga vazifa berish kerak desa, boshqalar bu fikrga qarshi.

Hech kimga sir emaski, yosh avlod ilm-fan cho'qqisi tomon odimlayotgan bir paytda, ayrim ota-onalar farzandlariga uyga vazifa berilishi, bolalarni charchashga olib keladi, deb hisoblashadi. Jamiyatimizning ayrim vakillari esa yoshlarga mustaqil bajarish uchun vazifalar berish, o'z ustida ishlashga yordam beradi deb ta'kidlashadi. Xo'sh, yuqoridagi qarashlar o'quvchining maktabda bilimlarini yaxshi o'zlashtirish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Bir tomondan olib qaraganda, bolalarga uyga vazifa berilish ularning yanada rivojlanishiga olib keladi va bir qancha ijobiy taraflari ham bor. Masalan, yoshlar berilgan topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mavzuni yanada mustahkamlaydi va o'z ustida ishlaydi. Bu esa mas'uliyatni yanada oshiradi va o'z-o'zini o'rganish hamda tahlil qilish ko'nikmalarini oshiradi. Bekorga dono xalqimiz: "Takrorlash - bilimlar onasi", - deb ta'kidlashmagan. Bundan tashqari, berilgan topshiriqlar orqali ota-onalar

va o'quvchilar o'rtasida yanada samarali aloqani o'rnatishni ta'minlaydi. Journal of Educational Psychology tadqiqotlariga qaraganda, 70-80% ota-onalar farzandlariga berilgan topshiriqlarni bajarishga ko'maklashadi. Bu esa, bola psixologiyasiga yaxshi ta'sir o'tkazishi ta'kidlangan. Yana shuni aytish joizki, ba'zi vazifalar o'quvchilarni ijodiy yondashuvini talab qiladi, masalan, musiqa, adabiyot hamda rassomchilik, kabi fanlar kreativlikka yo'naltiradi. Bu esa o'quvchilarni izlanishga olib borib, g'oyalar ustida ishlash va tafakkur qilish ko'nikmalarini oshiradi.

Ko'pdan turfa fikr chiqishini inkor eta olmaymiz. Shunday ekan, o'quvchilarga mustaqil topshiriq berilmasligini yoqlovchilarning ham yetarlicha asoslari bor. Birinchidan, dars davomida o'tilgan mavzuni mukammal o'zlashtirgan va mustaqil vazifalarni bajargan o'quvchi, bunday topshiriqlarni yozish zerikarli deb hisoblaydi. Natijada, yoshlarda fanga bo'lgan qiziqish so'nishi mumkin. Masalan, "Pamadora" metodida o'quvchilarga kam vazifa berish ularni yaxshi eslab qolishi haqida ta'kidlagan. Bunday metodika bolalarni qanday o'qitish va ularning psixologiyasini yaxshilashda yordam beradi.

Ikkinchidan, maktabda 1 ta fan darsi 45 minutni tashkil etadi va bir kunda o'quvchilar 6-7 ta fandan dars mashg'ulotlarini olib boradi. Bu esa, uyga berilgan topshiriqlarni bajarishda charchash va holsizlikka olib kelishi mumkin. Statistik ma'lumotlarga qaraganda inson miyyasi 45 daqiqa darsning 25 daqiqasini mukammal qabul qilar ekan.

O'z fikrimni bayon etilgan bo'lsam, yoshlar o'rtasida bilim olish tobora raqobatga aylanayotgan pir pallada o'quvchilar vazifalarni bajarmasdan, vaqtini behuda o'tkazishi kelajagiga ta'sir etmay qolmaydi. Shunday ekan, bolalar uy vazifalarini bajarishi: shaxsiy fikrni mustaqil bayon etishda, o'z ustida ishlashda, vaqtni to'g'ri belgilashda va dars vaqti o'tilgan materiallarni mustahkamlashda katta yordam beradi. Finlandiya va Yaponiya tadqiqotlarida o'quvchilarga qo'shimcha topshiriqlar berilmagan. Natijada, o'qish darajasi keskin tushib ketishiga olib kelgan. Shu sababdan, uyga vazifalarni bajarish, yosh avlod uchun anchagina manfaatli.

"Yo'lning - qisqasi, so'zning - hissasi yaxshi.", - deganlaridek, qo'shimcha topshiriqlar berilishi nafaqat bolalar tafakkurini oshiradi, balki kelajagi uchun yaxshi ta'sir qiladi. Kelajak uchun harakat qilish mana shunday kichik topshiriqlardan boshlanadi. Bejizga buyuk

sarkarda Amir Temur:" Katta-katta imoratlar kichik-kichik g'ishtlardan boshlanadi."-deb ta'kidlamagan.

84. Zamonaviy kasb i yoki an'anaviy?

Har bir inson kasb tanlashda ikki yo'l dan birini tanlaydi: zamonaviy kasblarga intilish yoki avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan an'anaviy hunarni davom ettirish. Bugungi kunda ba'zi yoshlar texnologiyalar taraqqiyoti bilan hamohang kasblarni egallashga harakat qilsalar, boshqalar esa ota-bobolarining kasb-hunarini saqlab qolish va rivojlantirishni o'z burchi deb bilishadi. Bu tanlov har bir insonning qiziqishi, jamiyat ehtiyoji va kelajakdagi rejalari bilan chambarchas bog'liq. Xōsh, aslida-chi, jamiyatimiz a'zolarining qaysi qarashlari porloq kelajagimiz ravnaqi uchun muhim rol o'ynaydi?

Hozirgi davrda dunyo tez o'zgarib bormoqda. Yangi texnologiyalar, raqamli innovatsiyalar va sun'iy intellekt kundalik hayotimizga chuqur kirib kelmoqda. Shuning uchun zamonaviy kasblar ham o'zgarib, yangilanmoqda. Endilikda faqat an'anaviy kasblar bilan cheklanib bo'lmaydi, inson o'z ustida doim ishlashi, zamon talabiga moslashishi kerak. Bugungi kunda IT-mutaxassislar, dasturchilar, sun'iy intellekt bo'yicha ekspertlar, grafik dizaynerlar va raqamli marketing mutaxassislari eng talabgir kasblar qatoriga kiradi. Chunki texnologiyalar rivojlanishi bilan bu sohalarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Masalan, dasturchilar turli ilovalar va dasturlar yaratib, hayotimizni qulaylashtirsa, sun'iy intellekt bo'yicha mutaxassislar robotlar va aqlli tizimlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Zamonaviy kasblarning yana bir jihati – ularning ko'pchiligi masofaviy ishlash imkoniyatiga ega. Endi insonlar faqat ofisga borib ishlashga majbur emas, ular internet orqali dunyoning istalgan nuqtasidan ishlashlari mumkin. Bu esa ish vaqtini moslashuvchan qilish va shaxsiy rivojlanish uchun ko'proq imkoniyat yaratadi.

Biroq, ota-bobolardan o'tib kelayotgan kasblar ham bebaho merosdir. Dehqonchilik, hunarmandchilik, kulolchilik kabi sohalar asrlar davomida shakllangan va xalq madaniyatining ajralmas qismiga aylangan. Bu kasblarni davom ettirish ajdodlar merosiga hurmat ifodasi bo'lishi bilan birga, milliy qadriyatlarni saqlashga ham xizmat qiladi. Shuningdek, bu sohalar ham zamon talablariga moslashtirilib, rivojlantirilishi mumkin. Masalan, hunarmandlar o'z mahsulotlarini onlayn do'konlar orqali

sotishlari yoki xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etishlari mumkin. An'anaviy kasblarning yana bir muhim jihati – ularning tabiiyligi va barqarorligidir. Zamonaviy texnologiyalar rivojlanayotgan bo'lsa-da, qo'lda tayyorlangan mahsulotlar har doim o'z qadrini saqlab qoladi. Bugungi kunda ko'plab hunarmandlar o'z ishini zamonaviy uslublar bilan uyg'unlashtirib, xalqaro bozorda ham o'z o'rnini topmoqda. Misol uchun, milliy matolar, qo'lda yasalgan kulolchilik buyumlari yoki kashtachilik mahsulotlari dunyo bo'ylab e'tirof etilmoqda.

„Zamon bilan qadam tashlagan oldinga yuradi“ deb bejizga aytilmagan. Mening fikrimcha, bugungi kunda zamon bilan hamnafas bo'lib, zamonaviy fikrlash davr talabi. Innovatsion kasb tanlashda kelajakdagi daromadning barqaror bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Mehnat bozorida barqarorlikka erishish uchun moslashuvchan va doimiy o'rganishga tayyor bo'lish zarur. Shuningdek, inson qo'l mehnatini avtomatlashtirish imkoniyati past bo'lgan kasblar kelajakda ham dolzarb bo'lib qoladi. Moliyaviy barqarorlik uchun talab yuqori va daromadi yaxshi bo'lgan kasblarga e'tibor qaratish lozim. Kasb tanlashda faqat hozirgi trendlarni emas, balki kelajakdagi ehtiyojlarni ham hisobga olish kerak. Malumot o'rnida aytish joizki, O'zbekistonda 2018 yilda eng ko'p maosh to'lanadigan kasblar ro'yxatida axborot texnologiyalari sohasi vakillari yetakchilik qilgan. Bu kasblarga talab oshib bormoqda va ularni egallash uchun 3–6 oylik kurslarda o'qishning o'zi kifoya qiladi.

Yaxshi so'z mo'tabar, so'ngi so'z muxtasar" deganlaridek zamonaviy kasblar doimiy ijodiy fikrlash va yangilikka intilishni talab qiladi, chunki texnologiyalar va talablar tez o'zgarib boradi. Ushbu kasblarda muvaffaqiyatga erishish uchun inson o'z bilim va ko'nikmalarini muntazam rivojlantirishi, innovatsion yondashuvlarni qo'llashi lozim.

85. Zamonaviy kasb i yoki an'anaviy?

Barchamizga ma'lumki, aholi orasida qanday kasb–hunarni egallash haqidagi bahs–munozaralar dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Ayrimlar zamon bilan hamnafas bo'lishni afzal ko'rishsa, boshqalar an'anaviy hunarlarni davom ettirishni ustun qo'yishmoqda. Xo'sh, aslida jamiyatimiz taraqqiyoti uchun qaysi tanlov egalarining fikri manfaatliroq?

Bir tomondan olib qaraganda, kundan kunga rivojlanayotgan zamonda ilg'orlashib borayotgan faoliyat bilan shug'ullanuvchilarning o'ziga yarasha asosli sabablari mavjud. Birinchidan, zamonaviy faoliyat bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar doimo raqobatga tayyor turishi kerak. Chunki IT, logistika, kibernetika va boshqa turli kompyuter sohalarida ishlovchi insonlardan innovatsion yondashuv talab etiladi. Bu esa o'z navbatida shaxsiy rivojlanish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Ikkinchidan, texnologik yutuqlar tufayli masofaviy ishlash va yuqori daromad qilish uchun sharoitlar yaratildi. Agar siz quyidagi kasblarda ishlasangiz, oilangiz va shaxsiy karyerangizni rivojlantirish uchun vaqt yetkaza olasiz. Shu sababli ham bunday kasblar mehnat bozorida talabgir hisoblanadi.

„Tanganing ikki tomoni bor“,– deganlaridek, qadriyatlarimizni ko'rsatib beruvchi qadimdan beri davom etib kelayotgan hunarlarni o'zlashtirayotganlarning ham bir nechta o'rinli sabablari bor. Avvalo, ota-bobolarimiz merosini asrab avaylash orqali urf-odatlarimizni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bu o'z navbatida yoshlarimizning qadimiy bilim va tajribalardan foydalanib xalqimiz an'analarini kelajak avlodga meros qoldirishga xizmat qiladi. Shuningdek, „hunaring bo'lsa – elda hurmating bo'ladi“,– deganlaridek, milliy kasblarni saqlash orqali chet ellik sayyohlarga o'z madaniyatimizni tanishtirish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Natijada, ota-bobolar merosiga hurmat-e'tibor, mustahkam ijtimoiy birlik va an'anaviy qadriyatlarga sodiqligimizni boshqa xalqlarga ko'rsatgan bo'lamiz.

Mening nazarimda, yurtimizni istiqboli uchun zamonaviy kasblarning ro'li juda muhimdir. Negaki, agar biz eskicha hunarlar bilan ko'roq shug'ullansak, dunyoning boshqa mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan bizni orqada qoldirishiga shart-sharoit yaratgan bo'lamiz. To'g'ri, an'anaviy kasblarni davom ettirish milliy o'zligimiz va iqtisodiy barqaroligimizga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, ammo „zamon bilan hamnafas bo'lmagan ortda qoladi“,– degan naql bejiz aytilmagan, albatta.

„Yaxshi so'z mo'tabar – so'ngi so'z muxtasar“,– deganlari kabi mamlakatimiz yoshlari faqatgina zamonaviy kasb-hunarlarni egallashi

orqali global darajadagi muvaffaqiyat qozonishlari va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishlari mumkin. Bu esa boshqa mamlakatlar bilan bimalol raqobatlasha olish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga texnologiyar rivojlanishi natijasida yangi kasblar paydo bo'lib, ular mehnat bozorida talabgirlik va raqobatdoshligini oshirishi, shubhasiz.

86.Ba' zilar milliy liboslarni kiyishni ma' qullasa, boshqalar zamonaviy kiyimlar tarafdori

Barchamizga ma' lumki, bugungi kunda kiyinish madaniyati haqidagi bahs-munozaralar dolzarb mavzuga aylanmoqda. Ayrimlar an' anaga mos ravishda kiyinishni ma' qullashsa, boshqalar zamon bilan hamnafas bo 'lish tarafdoridir. Xo 'sh, inson taraqqiyotida kiyimning ahamiyati qay darajada?

Bir tomondan olib qaraganda, an' anaviy liboslar ko 'pincha o 'ziga xos madaniyatga va tarixga ega bo 'lgan kiyimlardir deb hisoblovchilarning ham o 'ziga yarasha asoslari bor. Milliy liboslarni kiyish o 'z xalqining madaniyatiga hurmat ko 'rsatish, o 'z tarixini saqlash demakdir. Yaxshi suhan jonga osoyish, Yaxshi kiyim tanga oroyish deb Mir Alisher Navoiy baytlarida keltirilganidek, milliylik ruhi singdirilgan kiyimlar inson ko 'rkiga ko 'rk qo 'shadi. Bundan tashqari kiyim-bosh insonning doimiy hamrohi bo 'lgani uchun, uning ruhiyatga bo 'lgan ta' siri ko 'proq. Masalan, milliy kiyimda yurish o 'z urf-odatlariga bo 'lgan muhabbatini va o 'ziga bo 'lgan ishonchini oshiradi. Qadriyatlarga bo 'lgan iftixor tuyg 'usini shakllantiradi.

Tanganing ikkinchi tomoni bo 'lganidek, moda jamiyatning ajralmas qismidir deb fikrlovchilarning ham o 'z asoslari bor. Zamonaviy va chiroyli kiyimlar insonning ruhiy holatini ham o 'zida aks ettiradi. Sababi noan' anaviy moda tendentsiyalari doimiy ravishda yangilanib turadi, bu esa o 'zining individual uslubini yaratish va uni doimiy ravishda o 'zgartirish imkonini beradi. Yana noan' anaviy liboslar ko 'pincha kundalik hayotda qulaylikni ta' minlaydi. Masalan, jinsi va futbolkalarni har qanday holatda kiyish mumkin, ular harakatlanishga to 'sqinlik qilmaydi va turli xil faoliyatlar uchun mos keladi. Bu, ayniqsa, tezkor hayot tarziga moslashgan zamonaviy odamlar uchun muhimdir.

Mening fikrimcha, har bir inson kiygan libos uning yoshiga, mentalitetiga, jinsiga mos va har qanday vaziyatda noqulaylik tug 'dirmaydigan, ko 'rkam hamda bejirimligi bilan atrofdagilarning

ruhiyatiga ijobiy ta' sir o 'tkazadigan zamonga urfdagi kiyimlar bo 'lishi maqsadga muvofiqdir. To 'g 'ri milliy kiyimlarni kiyish, urf-odatlarni saqlash kerak, lekin bu an' anaviy liboslarimiz doimo qulaylik tug 'dirmaydi. Masalan, atlas ko 'ylakni hamma vaqt ham kiya olmaymiz. Hozirgi kunda 90 foiz odamlar tanasiga yoqadigan va harakatlanishda noqulaylik tug 'dirmaydigan kiyimlar kiyishadi.

Xulosa qilib aytganda, bashariyatning kiygan kiyimi uning dunyoqarashi , ichki madaniyati va individual psixologiyasidan dalolat beradi. Shunday ekan har kim zamonga mos va o 'ziga yarashgan sifatli kiyimlarni kiygani maqsadga muvofiqdir.

87. Sun'iy intellekt rivojlanishi ijobiymi yoki salbiy ?

Barchamizga ma'lumki, raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan davrda yashar ekanmiz, insoniyatning aql-u idroki bilan yaratilgan sun 'iy intellekt haqidagi fikr- mulohazalar keng jamoatchilik orasida dolzarb bahs-munozaralarga sabab bo 'lib kelmoqda. Oramizdagi ko'plab insonlar sun 'iy ong kishilar taraqqiyoti uchun foydali deb hisoblashsa, boshqalar esa insoniyat kelajagiga xavf tug'diruvchi omil sifatida qarashmoqda. Xo 'sh, aslida-chi, bu fikrlarning qay biri haqiqatga yaqin?

Bir tomondan olib qaraganda, sun 'iy intellektning ijobiy tomonlari ko'pligini ta 'kidlovchi shaxslarning yetarli sabablari bor. Avvalo, sun 'iy intellektning aql-idroki insonlarga qaraganda bir necha barobar ustundir. Katta miqdordagi ma'lumotlarga ega bo 'lgan murakkab muammolarni hal qilish insonlar uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Sun

'iy ong esa buni osonlik bilan yecha oladi. Misol uchun, olimlar, mutaxassislar murakkab arifmetik masalalarni yecholmaganda sun 'iy ong yordamga keladi. Ikkinchidan, sun 'iy intellekt yordamida yangi kasblar paydo bo 'lmoqda va bo 'sh ish o'rinlari ko'paymoqda. Misol tariqasida blogerlarni aytishimiz mumkin. Ular YouTube, Instagram, Telegram tarmoqlarida o 'z sahifalariga ega bo 'lib, pul ishlashmoqda.

Oqni qora, qorani oq deb bo 'lmaganidek, sun 'iy intellektning zararli taraflari ham yo 'q emas, albatta. Birinchidan, o 'zini-o 'zi boshqaradigan texnologiyalar ko'paygani sari ish o'rinlari qisqarib bormoqda. Ba 'zi kasb egalari o'rnini robotlar egallamoqda. Masalan, Amerikaning ko'plab korxonalarida oddiy ishchilar o'rnida robotlar xizmat qilayotganligi fikrimiz isbotidir. Bu esa

mamlakatning 30–40 foiz qatlamini ishsiz qoldirmoqda. Ikkinchidan esa unga qaramlik yil sayin emas, balki kun sayin ortib bormoqda. Biz bilgan kompyuter o'yinlari, telefonimizdagi ilovalar sun'iy intellektning kichik mahsulidir. Hozirgi yoshlar mana shunday vositalarga bog'lanib qolib, real hayotdan chetlashmoqda. Buning oqibatida ularning mustaqil fikrlash ko'rsatkichi pasayib, ongsiz ravishda turli xil jinoyatlarni sodir etayotgani kishini sarosimaga soladi.

Mening fikrimcha, intellektlarning insonlarga foydali taraflari ko'p. Zamon talabi bo'lgan bu texnologiyalar undan foydalanayotgan yosh-u qari uchun keng ko'lamdagi imkoniyatlarni taqdim etadi. Birinchidan, uydan chiqmagan holda internet orqali ta'lim olish imkoniyati mavjud. Imkoniyati cheklangan insonlar, ayniqsa, yosh bolali ayollar bo'sh vaqtida Telegram sahifalaridagi onlayn to'garaklarda til o'rganishi, turli xil sertifikatlariga ega bo'lishi fikrimiz dalilidir. Shuningdek, sun'iy intellekt tez ish bajarganligi tufayli insonning qadrligi bo'lgan vaqti tejaladi. "Vaqtning ketdi-naqtning ketdi", deydi dono xalqimiz. Misol tariqasida Yevropa davlatlarida buyurtmani yetkazib beruvchi dronlar xizmati mavjud. Tirbandliklar sababli kechgacha qolib yetkazib beradigan pochta xizmatini kutib, soatlab vaqt sarflab o'tirishga hojat qolmaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, sun'iy intellektning ijobiy tomonlari sanab o'tilganlardan ham ko'proqdir. Undan to'g'ri yo'lda foydalanganda insonning rivojlanishiga, taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shadi. Zero, innovatsion texnologiyalar davr talabidir.

88. Sun'iy intellekt rivojlanishi ijobiymi yoki salbiy?

Kundan kunga rivojlanayotgan zamonaviy dunyomizda sun'iy intellekt insoniyatning tengsiz yordamchilari hisoblanmoqda. Zamon va makon bilan hamnafas yashaydiganlar sun'iy aqlning rivojlanishi barcha uchun foydali deyishsa, ba'zilar bu faoliyatning jadal rivojlanishi oqibatida hayotimizda turli xatarlar keltirib chiqarishi mumkinligi haqida gapirishmoqda. Xo'sh, aslida-chi qaysi fikr haqiqatga yaqin?

Bir tomondan olib qaraganda, sun'iy intellektning har jabhada rivojlanish uchun hissa qo'shayotgani quvonarli holatdir. U tibbiyotdan tortib sanoatgacha, ta'limdan tortib kundalik hayotimizgacha bo'lgan ko'plab sohalarda insonlarga katta yordam bermoqda. Birinchidan, aqlli robotlar kashf qilingach, barcha og'ir yumushlar ularning zimmasiga yuklatildi. Ko'plab korxonalar va fabrikalarda ish jarayonlari

avtomatlashtirilib, insonlarning anchagina vaqti tejarmoqda va ish samaradorligi ham kundan kunga oshib bormoqda. Axir, "Ish quroling soz bo'lsa, mashaqqating oz bo'lar", – deb bekorga aytishmagan.

Ikkinchidan, tibbiyotda ham sun'iy intellektning hissasi beqiyosdir. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, sun'iy intellekt tibbiy diagnostika, jarrohlik operatsiyalari va dori vositalarini ishlab chiqarishda katta yutuqlarga erishmoqda. Misol uchun, 2024-yilda o'tkazilgan tadqiqotlarda sun'iy ong algoritmlari og'ir kasalliklarni aniqlashda shifokorlarga qaraganda 80 foiz aniqlik ko'rsatgan. Bu esa tibbiyot sohasida sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlarni yanada kengaytirayotganining yaqqol dalilidir.

Boshqa tomondan olib qaraganda, robotlar ma'lum darajada insoniyatga xavf tug'dirishi mumkin deganlarning ham o'ziga yarasha asosli dalillari bor. Birinchidan, sun'iy intellekt ish o'rinlarini kamaytirishi mumkin. Texnologiyalar rivojlanishi bilan ko'plab sohalarda ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj kamaymoqda. Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish sababli ba'zi kasblar yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi. Masalan, zavodlardagi ishchilar o'rnini robotlar egallamoqda, mijozlarga xizmat ko'rsatish sohasida esa chat-botlar va virtual yordamchilar odamlarga nisbatan samaraliroq ishlaymoqda.

Bu esa kelajakda ishsizlik darajasining oshishiga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, sun'iy ong nazoratsiz rivojlansa yoki noto'g'ri qo'llanilsa, u turli xavflarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, yolg'on axborot tarqalishi kabi sohada bu tahdidlar sezilarli darajada oshmoqda. Sun'iy intellektning ishlash tamoyillaridan biri – u har qanday savolga javob topishga harakat qiladi. Agar u aniq ma'lumot yoki dalillarga ega bo'lmasa ham, mavjud bilimlar va o'xshash ma'lumotlarga tayanib, taxminiy javob berishga avtomatlashgan. Ya'ni u aniq javob topa olmasa, "men bu haqida bilmayman" yoki "mening ma'lumotlarim yetarli emas" deyish o'rniga, mavzuga yaqin bo'lgan taxminiy javoblarni berib yuboradi. Bu esa ba'zan noto'g'ri yoki chalg'ituvchi axborot tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin.

Mening shaxsiy fikrimga to'xtaladigan bo'lsam, to'g'ri sun'iy intellektning insoniyat kelajagi uchun ma'lum miqdorda xavfi bordir, ammo agar undan to'g'ri foydalanilsa, sun'iy intellekt insoniyatning eng foydali texnologiyalaridan biri bo'ladi. Bu esa inson hayotini yaxshilash uchun katta imkoniyatdir.

Muxtasar qilib aytganda, sun'iy intellektning rivojlanishi hayotimizga katta yengilliklar olib kelmoqda, biroq u bilan bog'liq xavflarni ham inkor etib bo'lmaydi. Muhimi, uni to'g'ri boshqarish va nazorat qilish orqali foydali jihatlaridan unumli foydalanishdir. Agar sun'iy intellekt inson manfaatlariga yo'naltirilsa, u kelajakda texnologik taraqqiyotning ajralmas qismiga aylanadi.

89. Reklamadan kim ko'proq manfaatdor: ishlab chiqaruvchi yoki xaridor?

Barchamizga ma'lumki aholi orasida ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinayotgan mahsulotlardan kim manfaatdor ekanligi haqidagi bahs-munozaralar dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Ayrimlar bu ishlab chiqaruvchilar uchun brendini tanitishning bir ko'rinishi deyishsa, boshqalar esa buning jamiyatimiz uchun ham foydali jihatlari borligini ta'kidlashmoqda. Xo'sh, aslida qaysi tomon egalarining fikri tarozining pallasini bosadi?

Darhaqiqat hozirgi kundan kunga rivojlanib borayotgan zamonda turli xildagi kompaniya va korxonalar o'z brendlarini mashhur qilishining eng oson yo'llaridan biri reklama hisoblanadi. Birinchidan, reklama qilingan mahsulotning sotuv hajmi baland bo'ladi, chunki ko'p mijozlar jalb qilinadi va sotuv hajmi ortadi. Natijada fabrikalar va ishlab chiqarish joylarida yetkazib berish hajmi ko'payadi hamda ishchi o'rinlari yaratiladi. „Reklama – savdoning dvigateli“,– deganlaridek, bozorda raqobat kuchayishining asosiy tamoyili reklama hisoblanadi. Chunki kompaniyalar bir-biri bilan sifat va narx borasida raqobatlashishadi va yanada innovatsion bo'lishga intilishadi. Shuning uchun ham „Raqobat – rivojlanish asosi“,– degan naql bejizga aytilmagan.

Boshqa tomondan olib qaraganda, reklamaning xalqimiz uchun ham foydali jihatlari bor, albatta. Avvalo, reklama mijozlar uchun tanlov imkoniyatini kengaytiradi va ularni bozorda mavjud mahsulot va xizmatlardan boxabar qiladi. Tadqiqotlarga ko'ra, iste'molchilarning aksariyati xarid qilishdan oldin turli reklama manbalaridan ma'lumot olishga moyildir. Masalan, yirik supermarketlar va savdo markazlari muntazam ravishda chegirmalar va aksiyalar haqida reklama berishadi,

bu esa xaridorlarga o'z byudjetiga mos mahsulotlarni arzonroq narxda xarid qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, reklama yangilik va innovatsiyalarni ommaga yetkazishda ham muhim rol o'ynaydi hamda zamonaviy texnologiyalar, ekologik toza mahsulotlar yoki sog'liq uchun foydali mahsulotlar haqida keng targ'ibot qilinishi natijasida iste'molchilar o'z ehtiyojlariga mos eng samarali mahsulotlarni tanlash imkoniga ega bo'ladilar. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi reklama orqali mijozlar mahsulot haqida batafsil sharhlar, real xaridorlarning fikr-mulohazalari va taqqoslamalar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Mening nazarimda, reklamalar xalqimiz uchun foydalidir, chunki onlayn reklama orqali iste'molchilar uyidan chiqmasdan mahsulot topishi va sotib olishi mumkin.

To'g'ri, Ishlab chiqaruvchilar uchun ham foydali tomonlari mavjud, lekin yaxshi reklama katta budget talab etadi, bu esa kichik kompaniyalar uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

„Yaxshi so'z mo'tabar, so'ngi so'z muxtasar“, – deganlaridek reklama har ikki tomon uchun ham ma'lum darajada foyda va zarar keltirishi mumkin. Ishlab chiqaruvchilar uchun bu mahsulot sotuvini oshirish va bozorga chiqish imkoniyati bo'lsa, iste'molchilar uchun tanlov erkinligi va ma'lumot manbai sifatida xizmat qiladi. Biroq, reklamadan to'g'ri foydalanish, uni haddan tashqari oshirib yubormaslik va iste'molchini chalg'ituvchi yolg'on ma'lumot bermaslik eng muhim tamoyillardan biri bo'lib qolishi kerak.

90. An'anaviy kitob yoki elektron kitob?

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda zamonaviy texnologiyalar bilan birga kitob o'qish madaniyati ham o'zgarib bormoqda. Ba'zilar an'anaviy kitoblarni yoqlab, ularni o'qish jarayonini alohida zavq bilan tasvirlasalar, boshqalar esa elektron kitoblarni qulaylik va zamonaviylik nuqtai nazaridan afzal ko'rishadi. Xo'sh, qaysi biri yaxshiroq?

Bir tomondan olib qaralganda, an'anaviy kitoblarni yoqlovchilarning ham o'ziga yarasha sabablari bor. Kitob sahifalarining hidi, ularni varaqlash jarayoni ko'pchilik uchun o'ziga xos zavq bag'ishlaydi.

Shuningdek, qog'ozli kitoblar ko'zlarni charchatmaydi va ular bilan ishlash vaqtida chalg'ituvchi omillar kamroq bo'ladi. Tadqiqotlarga ko'ra, an'anaviy kitob o'qigan odamlar matnni yaxshi tushunib, uzoq vaqt eslab qolishar ekan. Bundan tashqari, an'anaviy kitoblar uy yoki kutubxona javonlarini bezatib, madaniy va ma'anaviy muhit yaratadi.

Tanganing ikkinchi tomoni bo'lganidek, elektron kitoblarni afzal ko'ruvchilarning ham o'ziga yarasha sabablari bor. Birinchidan, ulardan foydalanish oson, bitta qurilmada minglab kitoblarni saqlash imkoniyati mavjud. Ikkinchidan, elektron kitoblardan qidiruv funksiyasi orqali kerakli ma'lumotlarni tez topish mumkin. Matnlarni kattalashtirish yoki qulay sozlamalarni o'rnatish orqali o'qish jarayonini moslashtirish imkoniyati ham bor. Bundan tashqari, elektron kitoblar ekologik jihatdan ham foydalidir, chunki ular qog'oz sarfini kamaytiradi. "Zamonga qarab ish tut", - degan maqol ham bugungi kunda elektron kitoblarni tanlayotganlar uchun mos.

Mening fikrimcha, an'anaviy kitoblar elektron kitoblardan ko'ra afzal. Chunki ular o'qish jarayonini yanada samimiy va yoqimli qiladi. To'g'ri, elektron kitoblarning qulaylik va zamonaviylik jihatlarini inkor etib bo'lmaydi, biroq an'anaviy kitoblarning inson ongiga va hissiyotlariga ta'siri kuchliroq. Masalan, sahifalarni varaqlash jarayonining o'zi o'quvchini kitob mazmuniga chuqurroq jalb etadi. Shu sababdan men qog'oz kitoblarni afzal ko'raman.

Xulosa qilib aytganda, an'anaviy kitoblarni o'qish eng to'g'ri yo'l. Chunki ular o'qish jarayonini yanada chuqurroq his qilish va bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirish imkonini beradi. Muhimi, qaysi turdagi kitob bo'lishidan qat'i nazar, kitob o'qish odatidan voz kechmaslik va bilim olishni davom ettirishdir. Shu orqali inson nafaqat o'zini rivojlantiradi, balki jamiyat taraqqiyotiga ham hissa qo'shadi.